

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Buxoro davlat universiteti



Tasdiqlayman
O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Qayd raqami _____

“ _____ ” _____ 2012 yil

Х. САФАРОВА

Fan: MUMTOZ NASR POETIKASI

Bilim sohasi: 200000 – Gumanitar fanlar va san'at

Ta'lim sohasi: 5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi)

Bakalavriat yo'nalishi: bakalavriat

Buxoro-2012

MUMTOZ NASR POETIKASI

FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

KIRISH

O'ZBEK BADIY NASRINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

REJA:

1. Mumtoz nasr poetikasi o'zbek adabiyoti tarixining ajralmas qismi.
2. Nasr va nazmning qorishiq kelishi.
3. Bevosita nasrda yozilgan asarlar.
4. She'riy asarlardagi nasriy sarlavhalar.

ADABIYOTLAR:

1. Aristotel. Poetika. -T., 1980.
2. O'zbek nasri tarixidan.-T.: "Fan".1982, 196 bet.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent. 2005 yil.
4. Hasan Qudratullaev. Nasriy asarlar tarixi va janriy muammolari. O'zTA jurnali. 2000 yil, 4-son, 3-7- betlar.

Tayanch tushunchalar.

- | | |
|---------------------------|---------------|
| 1. Nasr | 12. Rabg'uziy |
| 2. "Qisasi Rabg'uziy" | |
| 3. Nosir Xisrav | |
| 4. "Safarnoma" | |
| 5. Nazm | |
| 6. Poetika | |
| 7. Urxun - enasoy | |
| 8. Maxmud Qoshg'ariy | |
| 9. "Devonu lug'otit turk" | |
| 10. Yusuf Xos Xojib | |
| 11. "Qudatg'u bilik" | |

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'tmish o'zbek adabiyotini nasrsiz, nasriy asarlarsiz tasavvur etish kiyin.

Yozma adabiyotda avval nasriy asarmi, yoki nazm namunasi maydonga kelgan, degan savol bilan murojaat etsak, aniq javob topish murakkabligi ayon bo'ladi. Bu masala arab, fors-tojik, turkiy adabiyotda ham muammoligicha qoladi.

Hozirgacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda nasrning dastlabki namunalari yozma adabiyot vujudga kelishi bilan yaratilganligi, u vaqtda nazm adabiyot turi sifatida mavjud bo'lmaganligi haqida ma'lumotlar bor.

Nasr inson, inson hayoti, jamiyat va tabiat hodisalari haqidagi ma'lum bir fikrlarning badiiy so'z vositasi bilan, nazmdagi va dramatik asarlardagiga nisbatan boshqacha qonun-qoidalar asosida erkin ifodalanishini bildiradi. Tarixda birinchi yaratilgan nazm asarini aniqlash qanchalik qiyin bo'lsa, dastlabki yaratilgan nasriy asarni aniqlash ham shuncha qiyin. So'z san'atining boshi fol'klorda bo'lgani kabi nasr ham halq og'zaki ijodidan boshlangan. Nazm so'z san'ati va madaniyatining rivojlanishi natijasida kyoyinroq yuzaga kela boshlagan desak, xato bo'lmas. Birinchi mif va ertaklar halq tomonidan yaratilganini ko'zda tutsak, adabiyot nasr bilan boshlangan, degan fikr o'z-o'zidan ravshan bo'ladi. Qadimgi turkiy halq dostonlarida ham ko'p fikr, asosiy syujet chizig'i nasr orqali ifodalangani, bu xususiyat kyoyingi dostonchilikda ham ("Alpomish". "Go'ro'g'li", "Avazxon" va boshqalar) saqlangani, nazm bilan nasrning aralash kelishi buning dalilidir.

Alisher Navoiy "Lison ut - tayr" asarida:

Nazmu nasrim kotibi taxminshunos,

YOzsa yuz ming bayt etar erdi qiyos, -

("Lisout-tayr"dan)

Der ekan, turli tarixiy davrda nasr va nazmning bir-biridan ustunligi va zarurligi nuktai nazaridan baxs-munozaralar bo'lib turgan. Birok hamma davrda ham adabiyotning bu ikki turi yashab kelgan. Kupgina asarlarda nasr nazmni, nazm nasrni tuldirib kelgan, yoki boshkacha kilib aytganda mualliflar nasriy asarlarida bayon etgan fikrlarini yanada mantikiy yuksaltirish, uning shiradorligini oshirish, davr adabiy-estetik talabining so'z jozibasiga nisbatan kuygan mezonini me'yorga etkazish uchun she'riy parchalardan foydalanganlar. Bu an'ana o'zok tarixga ega bo'lib, xind adabiyotida "Ramayana", "Panchatantra", "Kalila va Dimna", arab adabiyotida kupgina asarlar (Al-Saolibiyning "Yatimatad-daxr" tazkirasi, Ibn-al-Asrning "Komil-fid-ta'rix", Ibn Hallikoning "Vadayotal-a'yon" va b.) hamda arab tilida yaratilgan Forobiy, Ibn Sinoning asarlari (xatto tibbiy asari "Dorushshifo")da, fors-tojik adabiyotida Sa'diyning "Guliston", Nosir Xisravning "Safarnoma", Jomiyning "Baxoriston",

turkiy adabiyotda Rabg'o'ziyning "Qisasi Rabg'o'ziy", Yusuf Amiriyning "Bang va Chog'ir" , Navoiyning barcha nasriy asarlari, "Boburnoma"da yorqin ifodasini topgan. Bu ijobiy an'ana kyoyingi asarlarda, hatto har bir davr uchun ma'naviy zarurati adabiyot, tarixiy, ilmiy asarlarda yashab kelishidan dalolatdir.

O'rta Osiyolik ulug' olim Abu Nasr Forobiy (873-950) ("Al-Muallim assoniy" - "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan kyoyin), "SHarq Arastusi" deb yuritilgan. SHom shahri madrasalaridan birida arabshunos olimlarining yig'ilishi bo'ladi. Raislik qiluvchi yosh yigitchaga so'z beradi. U arab tili shevasining tovush xususiyatlari haqida ma'ro'za qiladi. Ma'ro'za jiddiy bahsga sabab bo'ladi. Oxirida barcha mashhur tilshunos olimlar bu yigitchani arab tili donishmandi, deb tan oladilar. U qomusiy bilim sohibi, mashhur faylasuf, shoir, adabiyotshunos va musiqashunos edi. "Forobiy etmish tilni bilardi", degan naql o'shandan qolgan). Qadim yunon " faylasufi Aristotelning "Poetika" asari ta'sirida, unga yangi sharh

mazmunida yozgan "SHoiralar san'ati konunlari xakida risola"sida poeziya va dramaturgiya janrlariga, xususan, tragediya, komediya, satira va xokazolarga ancha keng tuxtalgan holda nasrga to'xtalmaydi. Bu esa nasrning u davrlarda maxsus janr sifatida hali tan olinmaganini kursatadi.

Keyinchalik nasr adabiy janr sifatida tan olina boshlangan. Buni Navoiyning buyuk shoir va adib, olim va mutafakkir Abdurahmon Jomiy nazmi va nasri haqidagi quyidagi fikrlardan ham bilib olish qiyin emas.

Nazmu aqolimi jahonni tutub,

Nasri dog'i kishvari jonni tutub...

("Hayratul-abror")

Ham nazming nasrdek kelib xo'b,

Ham nasrning nazmdek dilosho'b.

("Layli va Majnun").

Jomiy nasrining "xo'b" va "dilosho'b" deb ta'riflanishidan shu narsa anglashiladiki, Navoiy o'z zamondoshining nasriy asarlariga badiiy asar sifatida qaragan, ularning estetik qimmatini baland baholab, mazkur janrning adabiy hayotda tutgan ma'lum o'rnini to'g'ri belgilagan.

Ta'kidlaganimizdek, nasriy asarlar SHarqda yozma adabiyot yaratila boshlagandan so'ng vujudga keldi. Ularning dastlabki namunalari xalq og'zaki ijodidagi afsonalardan yozma adabiyotga ko'chdi.

O'zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy asar elementlari O'rxun-Enasoy yozuviga oid yodnomalarda deb bilinadi. Ularning ko'plari she'r bilan emas, balki qofiyasiz va vaznsiz ifodalangan. SHu yodgorliklarning birida Bilka Qoon nomidan: "Yo'q, chiqan buduniq ko'p ko'bartdim, chiqan buduniq bay qiltim, az buduniq, o'qush qildim" ("Yo'qolib ketayotgan xalqni juda ko'paytirdim, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'p etdim"). -deydi. Bu - she'r emas, oddiy turkiy prozaik jumalardir.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarlarida turkiy nasr namunalari yanada yorqinroq o'z aksini topa boshladi. Aslida dastlabki turkiy tilda yaratilgan yirik nasriy asar Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" sidir. Bu asarning turkiy tilda maydonga kelishi, birinchi navbatda hali turkiy tilda nazmning rivojlanmagani, nazmda islom dini aqidalari, Muhammad payg'ambar, boshqa aziz-avliyolar tarixiga oid ma'lumotlar turkiy xalqlar orasida keng tarqalmaganligi, bu esa o'sha davrning muhim ma'naviy zarurati ekanligi bois sabab bo'lgan. Rabg'uziy bu asarida fol'klor imkoniyatidan keng foydalanadi, oddiy, sodda tilda Muhammad payg'ambar va u bilan bog'liq qissa va afsonalardan foydalanib, ifoda etadi. Asardagi "Qissai Qobil va Hobil"dan olingan bu matnning soddaligiga e'tibor beraylik. Uni bugungi o'quvchi ham uncha qiynalmay tushunadi: "Odamnung so'ng tug'gan ug'lonlarida bir o'g'liga Abdulmug'is atadi, qizga Amat ul-Mug'isa atadi. Bu ikagu anchada tug'diarkim Odamnung urug'i qirq ming band bo'lmish erdi...". Rabg'uziy bu asarini yaratishda so'z qudrati sehriga suyandi, oddiy o'quvchiga borib etadigan so'z-iboralardan keng foydalandi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, nasrdagi ifoda, tasvir imkoniyatining kengligi, nasriy asarlar tilining nazm tiliga nisbatan soddaligi sababli o'rta asr sharoitida dinni targ'ib etish, xalq

ongiga singdirish yo`lida undan ilk bor foydalanila boshlangan. SHuning uchun ham Rabg`uziy qissalarida dunyoviy hikoyalarning borligi, tilining soddaligi uni butun o`rta asr davomida eng o`qimishli kitoblardan biriga aylantirdi.

Endi POETIKA so`zining ma`nosini bilib olsak. Avval bu so`zning ma`nosini talabalardan so`rayman.

Entsiklopedik lug`atda poetika so`ziga shunday ta`riflar berilgan.

Poetika (yun.), adabiyot nazariyasi bo`limi. Adabiy asar qurilishini va unda qo`llaniladigan estetik vositalar sistemasini o`rganadi. Poetika -umumiy poetika, tavsifiy poetika va tarixiy poetikaga bo`lingan.

Umumiy poetika - har qanday asarning badiiy vositalari va qurilish qonuniyatlarini, janrga, adabiy tur va jinslarga qarab avtor niyatining mujassamlanish usullarini tadqiq etadi.

Tavsifiy poetika - ayrim olingan bir muallif asarlarining yoki davrlar va yo`nalishlarning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Tarixiy poetika - adabiy - badiiy vositalar taraqqiyotini (obrazli ifodalar, shakllar, qofiyalar) va kategoriyalarni (badiiy qilib berilgan zamon, makon, ritm) o`rganadi. Keng ma`noda poetika adabiyot nazariyasiga to`g`ri keladi; tor ma`noda poetik til yoki badiiy nutqni tadqiq etishni anglatadi. "Poetika" termini biron shoir, adabiy yo`nalish, millat, davr uchun xos bo`lgan badiiy vositalar sistemasini ham bildiradi (masalan, "Asqad Muxtor poetikasi", "rus realizmi poetikasi".) (Entsiklopedik lug`at. 2 tomlik. 2-tom. O`zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. Toshkent. 1990. 102-bet.)

Aristotelning "Poetika" asari yaratilgandan buyon adabiyot asarlarini uch katta guruhga bo`lish ilmda qoida bo`lib qolgan. Bu guruhlarning har biri hozirgi zamon adabiyotshunosligida "adabiy tur yoki "adabiy jins" deb ataladi. Bu uch tur epos, lirika va dramadir. Hozirgi zamon o`zbek tilida epos - "nasr", lirika esa "she`riyat" ("poeziya") so`zlari bilan ifoda etiladi.

Butun san`at va adabiyotni "tabiatdan nusxa ko`chirish" yoki "tabiatga taqlid", deb tushungan Aristotel, bu "nusxa ko`chirishning uch yo`l bilan amalga oshuvini "Poetika"ning uchinchi bobida maxsus qayd etadi.

"Taqlid etuvchi", ya`ni san`atkor hayotni, voqeani go`yo tashqaridan mushohada qiluvchi tarzida "xuddi Xomerdek, voqeani uning o`zidan (ya`ni taqlidchidan) ajralgan bir narsa sifatida" tasvirlashi mumkin. Bu xolis, obektiv tasvir natijasida epos (epik tur) yaratiladi.

Badiiy asar matnini tushunish qanchalik xilma - xil ekan, ma`no qirralarini tushuntirish ham shunchalar rangin. SHafqatsiz realist bo`lish ham, ko`tarinki xayollar og`ushida elanish ham, qiyoslarga, analitik tahlilga moyillik bildirish ham mumkin.

XIY -XY asrda o`zbek tilida ijod qiluvchi qator shoir adiblar maydonga chikdilar. Bu mug`ullar imperiyasining oradan ketgani, Amir Temur saltanati va uning vorislarining saltanat tepasiga kelgani bois ham sodir bo`ldi. Bu davrda turkiy tilda fors - tojik tili qatori adabiy, tarixiy asarlar yaratishga ehtiyoj paydo bo`lishi, sulton, amirlar devonxonasida turkiy tilda nomalar yozila boshlanishi,

idora va davlat tili fors tili qatori turkiyda ham ayrim ish qog'ozlarini yuritish sabab bo'ldi.

Turkiy adabiyotda tom ma'nodagi nasriy asarlar namunasini Alisher Navoiy yaratdi. Rus adabiyotshunosi A.Veselovskiy "YAngi rus adabiyotiga G'arbning ta'siri" (1910) asarida Pyotr I dan oldingi Rossiya adabiyotini bor mohiyati bilan Ovrupo adabiyotiga qaram bo'lgani, Shoh Pyotr I ning jur'ati, shijoati bois g'aflatdan uyg'ongani ("biz ruslar butunlay uyg'ondik...") ungacha "xalqning adabiyotdan ajralganlikka mahkum etilganligi, bu dorulamon vaqt etmagunga qadar, rus haqiqatining so'z mulkida maqom topmaguniga qadar lirik poeziya, komediya, roman o'z so'zini topmagan edi deb yozgan. Bu iqtibos beixtiyor Alisher Navoiyning turkiy (o'zbek) tilni arab, fors-tojik tili darajasiga ko'tarish, shu tilda "Xamsa", to'rt she'riy devon, dostonlar qatori yirik, salmoqli nasriy asarlar: "Majolisun - nafois", "Vaqfiya", "Munshaot", "Hamsatul-mutaxayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Nasoyimul-muhabbat", "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Mahbub ul - qulub" va boshqalarni yaratganini eslatadi. Bundan tashqari, Navoiyning nasr turiga oid mahorati uning to'rt devonidagi "Debocha"lar, "Nazmul - javohir" ning muqaddimasi hamda sarlavhalarida, "Mezonul - avzon", "Risolai Mufradot"ning nasriy parchalari, "Xamsa" dostonlarining sarlavhalarida o'z aksini topgan.

Alisher Navoiydan so'ng turkiy tilda yaratilgan nasriy asar sirasiga Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si yuksak mohiyat kasb etadi. Bu asar muallifning o'ziga xos uslubi, ijodda barkamollik, nasrda jasorat kitobidir. Unda Boburning "voqealarni bayon etishdagi tafsiliyligi, muallifning ularga munosabatda bo'lishi, baho berishdagi haqqoniyligi, tarixiy shaxslar portretini chizishda ob'ektiv bo'lishga intilishi, tabiat manzaralari va ashyolarni tasvirlashdagi, mahorati, tarixiy voqealarni qalamga olishdagi ilmiyligi va shuning bilan bir qatorda hamma holatda ham badiiylikka erishishga muyassar bo'lgani bilan diqqatga sazovordir".

eng qadim davrdan to sovetlar davrigacha bo'lgan nasr taraqqiyotini quyidagicha bosqichlarga bo'lib o'rganamiz:

1. O'zbek nasrining ilk manbalari.
2. XIII - XIY asrlarda badiiy nasr taraqqiyoti.
3. Alisher Navoiy badiiy nasri.
4. XYI asrdan keyingi davrlardagi badiiy nasr ravnaqi.

Badiiy matn yaratildi. U - echilishi lozim masala, sirli muammo.

Har bir asarning echimi, kalavaning uchi, sehrli kaliti uning o'zidadir. Matnning sodda - murakkabligi, oson - qiyinligi, mazmunning sayoz -tig'izligi, so'zlarning jonli - jonsizligi ijodkorning uslubiga, fikrlash yo'siniyu darajasiga, hayotiy kontseptsiyasiga, lo'nda aytganda, iste'dodiga bog'liq. Haqiqiy badiiy matnga duch kelganda tirik so'z, badiiyligni his qiluvchi mutaxassis (o'quvchi) jo'shib ketadi: yozuvchi uslubini, fikrlash yo'sinini, iste'dodi imkoniyatini, so'z, ibora, ramzlarning serjilo, mazmunliligi darajasini anglab etadi. U yozuvchi ijod mahsulini tahlil qilish jarayonida unga ijtimoiy munosabatni, asarning tarixiy - madaniy qatlamdagi o'rnini belgilaydi; qiyoslash orqali unga baho beriladi.

O'zbek tilida "sharh", "izoh", "ta'vil", "tafsir", "talqin" degan mazmunan qardosh, lekin o'z yo'sini, vazifasiga ega bo'lgan so'zlar mavjud. SHarh (arab.) - biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib berish, tushuntirib berish;

Izoh (arab.) - 1 .So'z, ibora yoki voqea - hodisalarni tushuntirish. 2. Tekstning ayrim eriga kiritilgan yoki ayrim masalaga berilgan qo'shimcha ma'lumot, tushuntirish, eslatma, uqdirish.

Tafsir (arab.) - 1. Biror gap. Voqea - hodisa, tekstga berilgan mukammal izoh, sharh, tushuntirish. 2. Qur'onning mufasssal sharhi.

Talqin (arab.) - Diniy va'z, ta'lim. 2. Izoh, sharh, tushuntirish.

Ta'vil - so'zni o'z ma'nosidan boshqa ma'noga burish, yo'yish, sharhlash.

Badiiy asar ham jonli odamga o'xshaydi. Asarlar "sersuv" bo'lganiday, ba'zi odamlar ham ezma bo'ladilar. Adibning asar orqali aytadigan so'zi notayin bo'lsa, ko'p yozishga, kitobxonni so'z uyumiga "ko'mib" tashlashga intiladi. SHuning uchun ba'zi odamlar savodsizligini yashirish uchun patira - putur gapirib tashlayveradilar.

Mumtoz adabiyotshunosligimizda ilmi g'ariba, g'ariba fani xususida talaygina ma'lumotlar berilgan. G'arib (g'ariba) - ajoyib, taajjublanarli, hayron qoladigan narsa. Ilmi g'ariba talqin fani bilan bevosita bog'liq. Ilmi g'ariba matndagi asosiy nuqtalarni, ich - ichidagi ma'nilarni anglash san'atidir. G'ariba ilmi mavjud fanlarni sinchiklab o'rganish orqali kashfiyot darajasida xulosa chiqarishgacha etish, ajoyibot nuqtasi qadar ko'tarilishdir. Alisher Navoiy "Hamsatul - mutaxayyirin" asarida Abdurahmon Jomiyning ilmiy uquvi nihoyatda kuchliligi haqida to'xtab: "Va g'aribdurkim, zoxir ulumining takmili vaqtida necha ish alarga muyassar bo'lubturkim, bu ummatda akobir va soxib kamollardan hech qaysiga voqe bo'lg'oni zohir emas". (Alisher Navoiy. 15 tomlik. 14-tom. T. 1967, 11-sahifa.)

Yana Alisher Navoiy "Majolisun - nafois" asarining avvalgi majlisida Xoja Abdulvafoiy Xorazmiy "ulumi g'ariba ham bilur erdi. Xoja avsofini har kishi bitir bo'lsa, alohida bir kitob bitmak kerak, ma'lum emaskim, bir kitobda siqqaymu yo yo'q"(15 - tom, 215-sahifa.) deb yozadi.

Ilmi g'ariba haqida Hasanxo'ja Nisoriyning "Mo'zakkiri ahhob" asarida ham ma'lumotlar mavjud. Olimlar rahnamosi Asomiddin Ibrohim haqida shunday yozadi: "Ko'pgina ilm sohalari bo'yicha yaxshi tasniflari bor. Ayniqsa g'ariba fanidan iqtidori kuchli edi. Insho yozganda ko'p ma'nolarni mo'jaz va lo'nda kalomda bayon etib, siqiq hajm mazmunida katta va ko'p fikrlarni anglatardi. Hazrat Ubaydulloxon peshindan keyin arabiy tilda bir ruboiy aytib yuborgan ekan, mullo esa namozshomgacha shu ruboiy xususida bir arabcha risola tasnif qilishga ulgurganlar. Mazkur ruboiyning har bir misrasi bobida olti yuz ellik (650) ma'no aytganlar." (Hasanxuja Nisoriy. Mo'zakkiri ahhob. T. 1993, 175-sahifa.) Asomiddin Ibrohim shogirdi Mavlono Husayn Turkistoniyning fikri: "Ilmlar ikirchikirini shu darajada o'zlashtirganki, bu sohalarning ko'pida mahorat bilan ish olib borardi... G'ariba fanida fasohatomez nutqi va balog'atangez kalomi bilan ko'p gap tanobini tortib, farovon ma'noli fikrlar inshosini oz jumlalarda oydin ,ravon

bayon qilardiki, dunyo kezuvchi aql isbotlash kemasi bilan tasavvur dengizida ketidan qanchalik ergashmasin, uni sharhlovchi soʻz topaolmasdi, aniqrogʻi, isbotlanmas masalalar turkumidan hisoblanardi" (oʻsha asar.)

Shuning uchun mumtoz nasr matnlaridagi har bir ramz, har bir ifoda, har bir qiyos zaminida olam mazmun yashiringan. Kitobxon buyuk sanʼatkor asarlaridagi maʼnoni anglagani sayin goʻzallik olamiga kirib borayotganligini, ruhan - maʼnan boyib borayotganini his qiladi.

OBRAZ - sanʼat va adabiyotning oʻziga xos bir kategoriyasi. Ijodkor biror voqelik yoki narsa va hodisani mushohada etib, ularni hissiy-emotsional tarzda ifodalaydi. Obraz va obrazlilik har bir badiiy asarning koni, eng muhim xususiyati hisoblanadi. Adabiyotshunoslikka oid ilmiy ishlarda obrazli nutk,, obrazli tasvir kabi masalalarning qimmatini alohida taʼkidlanadi, obrazlarning tizimi, aloqadorligi boʻladi.

Nasriy matnda insonning insonga, tabiatga, jamiyat va ilohiyotga munosabati aks etar ekan , adib unda asrlar davomida shakllanib kelgan anʼanaviy obraz va badiiy tasvir vositalarini qoʻllaydi. Shu bilan birga ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi obrazlar va ifoda tasvir vositalari maydonga keladi. Yoki anʼanaviy obrazlarga adib qaysidir jihatdan yangicha maʼno yuklaydiki, bu ham ijodkor mahoratiga xos adabiy -badiiy hodisa hisolanadi.

Mumtoz nasriy asarlarda sajʼ badiiy sanʼati asosiy oʻrinni egallaydi.Sajʼ lugʻaviy maʼnosiga koʻra qumri, bulbul, toʻti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qoʻshilib, birikib ketishini ifodalab keladi. Istilohda bir yoki bir necha gaplardagi ayrim boʻlaklarning vazn, qofiya yoki har ikkala jihatdan mos kelishi tushuniladi.

Sajʼ shunday xususiyatga egaki, u jumla yoki gap boʻlaklariga ohangdorlik, ravonlik berib, tasvirning emotsional kuchini oshiradi, uning oʻquvchi yo tinglovchi tomonidan esda qolishini osonlashtiradi.

Sajʼ ogʻzaki va yozma adabiyotning qadimgi va xarakterli xususiyatlaridan biri boʻlganidek, u haqdagi nazariy fikrlar ham juda qadimdan boshlangan. Jumladan, fors-tojik sheʼriyati asosida yaratilgan dastlabki asar - Muhammad binni Umar ar-Roduyoniyning (XI) "Tarjimon-ul balogʻat" asarida sajʼ turlari haqida maxsus fikr yuritilgan. Rashiddin Vatvot (vafoti 1182-1183) "Hadoiq-us sehr fi dahoiq-ush sheʼr" nomli asarida sajʼ sanʼatini sharhlab oʻtirmay, faqat uning turlarini misollar bilan izohlaydi.SHamsiddin Muhammad binni Qays Roziy (XIII asr boshlarida) "Al-moʻjam fi maori ashʼori -il - Ajam" asarida nazmi musajjaga ishorat qilib oʻtadi. "Aroʻzi Humoyun"ning (XY asr) muallifi esa sajʼ haqida bunday yozadi. "Sajʼ - lugʻatda kabutar ovozi maʼnosidadir va istilohda shundayki, soʻzlovchi(yoki yozuvchi) oʻz gapida ham vazn, ham harfi raviyda (qofiyada) yoki har ikkalasida bir-biriga oʻxshagan soʻz keltiriladi". Xoja Hasanning "Bahr-us sanoeʻ" (XIII asr oxiri XIY asr boshlari) asaridagi taʼrif ham Qays Roziyning qarashidan farq qilmaydi. Husayn Voiz Koshifiy (vafoti 900/1494) "Badoeʻ-ul-afkor fi sanoeʻ-ul- ashʼor" (894/1489) asarida sajʼ haqida batafsil toʻxtalib, shunday yozadi: "Sajʼ -lugʻatda qumrining sayrashi boʻladi va istilohda bayon qilinayotgan jumladagi soʻzlar vaznda bir xil boʻlishi tushuniladi.

Koshifiyning ta'rif to'liq emas, chunki hamvazlik sajning bir turi - saj mutavozingagina xos deyilib, saji mutavoziy va mutarrafning asosiy xususiyatlarini qamrab olmaydi.

Vohid Tabriziy (XYI) "Jam'i muxtasar" nomli asarida sajga qisqacha izoh beradi: "...nasri musajja` shundayki, qofiya boru vazn yo`q". Bu ta'rif ham to'liq emas.

Turk tadqiqotchilaridan Abdurahmon Surayyo "Mezon-ul balog'a" asarida sajga quyidagicha ta'rif bergan: "Saj` fikrlarning fosilalari qofiyaja biri-birlarina uymaqdin iboratdir... nasrda saj` nazmda qofiya mushobexasinda esa-da, ba`zan qofiya saj` erinda qo`llanilur. YA`ni bu so`z muqaffodur, falon odam masajja`, muqaffo so`z suylardina bilur". Sulaymonbek esa mana bunday ta'riflaydi: "Saj` kalomi mansurda (nasrda) ikki fasilaning oxirlarining harfi vohid (raviyda) o`zra kelmisina derlar. Turk tadqiqotchilarining ta'riflaridan ko`rinib turibdiki, ular saj` san`atini hosil qiluvchi element qofiyadir, deb qaraydilar.

T. Zehniy "San`ati suxan" asarida saj` haqida shunday deydi: "Musajja` qofiyalangan so`z - qofiyali gapdir. Musajja` shunday zanjirli jumlalardirki, har birining oxiri yo hamshakl yo shaklan yaqin so`zlar bilan tugaydilar. Jumla va iboralar oxiridagi bu hamshakllik sajdir. Saj` nasrda qofiya o`rnidadir. Saj`i bor nasr-nasri musajja` deb nomlanadi"...

"Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati"da sajga qisqagina qilib, "qofiyali proza" deb ta'rif berilgan va shu bilan qanoatlanib, uning xalq og`zaki ijodiyotiga xosligi, yozma adabiyotga kelishi, hamda turlariga o`tila berilgan.

Bizningcha, Tabriziy, Zehniy va "Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati"dagi ta'riflar bir - biridan farq qilmaydi, ular saj` san`atining asosiy xususiyati qofiya, deb ko`rsatadilar.

A. Bertel's "Jam'i muxtasar"ga yozgan izohida esa mana bunday yozadi: "o`zi odatda lug`atlarda "qofiyalangan nasr" deb tarjima qilinadi. Bu aniq tarjima emas. Uni "saj` ritorik figurasi qo`llanilgan nasr" tarzida tarjimasi aniqroq bo`ladi". Biz ham A. Bertel'sning fikriga to'liq qo`shilamiz: "saj` - qofiyalangan nasr" deb izohlash saj` san`atiga bir tomonlama yondoshishning o`zidir. Saj` ta'rifida birinchidan, jumla yoki iboralardagi saj` o`rni ko`rsatilmasligi, ikkinchidan, sajning har uchala turini qamrab oladigan bo`lishi, uchinchidan, saj` hosil qiluvchi elementlar "vazndagi moslik", "raviydagi moslik"lar aniq ko`rsatilishi lozim.

Saj` turlari haqida ham qadimdan adabiyotshunoslar tortishib keladilar va ikki guruhga bo`linadilar. Birinchi guruh - Muhammad binni Umar-ar-Roduyoniyo, Faxriddin Roziy, Rashididdin Vatvot, Vohid Tabriziy, Nizomiddin Ahmad Siddiqiy, Mirshamsiddin Dehlaviy, Firo`ziddin, Muhammad G`iyosiddin, Kabul Muhammad, Muhammad Podshox, Sulaymonbek, Abdurahmon Surayyo, Glavdin, Ryukkert va boshqalar sajni uch turga (mutavoziy, mutarraf, mutavozinga) bo`linadi deb ko`rsatadilar. Ikkinchi guruh, - Amir Xusrav Dehlaviy, Husayn Voiz Koshifiylar saj` to`rt turli bo`ladi, deb ko`rsatadilar. Sajni uch turga ajratish to`g`riroq.

1. Saj`i mutavoziy. Nasriy parchadagi ayrim so`zlar ham vazn, ham harfi raviyda mos bo`ladi. Masalan: "Munajjimki, savobit va sayyor nazoratidin

hukm **surar** , rammoledurki, nuqtalari hisobi bila lof **urar**" (A.Navoiy, Mahbub-ul qulub). Sajning bu turi faqat nasrda qo'llanadi, chunki uni nazmda ham qo'llanadi desak, nazmdagi qofiya bilan bir xil bo'lib qoladi: qofiya va saj` san'ati bir narsa degan xulosa kelib chiqishi mumkin.

2. Saj'i mutarraf. Nasriy parchadagi ayrim so'zlar vaznda bir xil bo'lmay, raviydagina mos bo'ladilar. "Zoti **bemadro**, dimog'i po'lod va ko'ngli **xoro**" (A.Navoiy, O'sha asar). Saj`ning bu turi ham yuqoridagidek faqat nasrda qo'llanadi.

3.Saj'i mutavozin. Nasriy yoki nazmiy parchadagi ayrim bo'laklar vaznda o'zaro mos bo'lib. Raviyda esa mos bo'lmaydilar? "... puxta chiqardi **savoddi**; Go'ro'g'li egarlab mindirdi **Fupomdu**" ...(Islom shoir, Zulfizar bilan Avazxon). Saj`ning bu turi nasrda ham, nazmda ham qo'llana oladi, chunki unda vaznda moslik bo'lib, raviyda moslik yo`q. Demak, u she'rda qofiyadan farqlanib turadi.

Nasriy nutq mumtoz poetikaga oid asarlarda qayd etilganidek, uch turga - nasri murajjaz (rajazlangan, vaznli), nasri musajja` (sajlangan) va nasri ori (erkin)ga bo'linadi.

Shunday qilib, saj` o'zbek xalq og'zaki va yozma adabiyotda qo'llanadigan san'atlardan biri bo'lib, o'zbek halk dostonlari va ertaklarida hamda yozma va adabiyotning Navoiy. Bobur, Gulxaniy va boshqa namoyandalari ijodida ko'p uchraydi.

Navoiy ijodida muhim o'rin tutadigan, ammo hozirga qadar tadqiqotchilar nazaridan ma'lum darajada chetga qolib kelayotgan masalalardan biri "Xamsa" dostonlarida keng qo'llangan nasriy sarlavhalardir. "Xamsa" she'riy asar bo'lsa ham, shoir har bir bobga nasriy sarlavhalar qo'yadi. Ularning "Xamsa" badiiyatida tutgan o'rni beqiyos. Har bir sarlavhani shu bobning o'ziga xos nasriy debochasi deb aytish mumkin. Chunki nasriy sarlavhalarda bobdagi voqealar mazmuni ixcham ifodalangan bo'lib, ular bobning, ba'zan esa hatto dostonning g'oyaviy va badiiy olamini tushunish uchun o'ziga xos bir kalit. SHu bilan birga, ular Navoiy qalamining sehri va kudrati bilan so'z san'atining betakror namunalariga aylangan. Nasriy sarlavhalarda ham tashbeh, istiora, tanosub, iyhom, tajnis, tardi aks, kitobat, tashxis, mubolag'a, tamsil kabi o'nlab lafziy va ma'naviy san'atlarning namunalarini uchratishimiz mumkin.

Nasriy sarlavhalarda keng qo'llangan badiiy san'atlardan biri -talmex,- Navoiy talmehlariga xos bo'lgan xususiyat shundaki,shoir badiiy timsollarning an'anaviy talqini bilan cheklanmay, ularning yangi-yangi tasvir imkoniyatlarini kashf etgan. "Farhod va SHirin" dostonidagi Xusravning Shiringa sovchi jo'natish voqealari tasvirlangan XXXVII bobning sarlavhasini tahlil qilamiz;

Ushbu nasriy sarlavhada to'rt mazmuniy bo'lak bo'lib, har bir bo'lakda ikkitadan jumla bor. Jumlar o'zaro qofiyadosh. Nasriy jumlalarining bunday qofiyadosh bo'lib kelishi saj`dir. Bu erda saj`ning uch turi ham mavjud. Birinchi mazmuniy bo'lakdagi saj'lar: qurg'oni -o'lturg'oni.*Qurg'oni* va *o'lturg'oni*. so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lsa ham, vazndosh emas: *o'lturg'oni* so'zida *qurg'oni* so'ziga nisbatan bir bo'g'in ko'p. Saj`ning bunday qofiyadosh, ammo vazndosh bo'lmagan turi saj'i mutarraf deb

ataladi. Ikkinchi bo`lakda **qilg`oni** va **solg`oni** so`zlari saj` hosil qilgan. Ular vazndosh ammo qofiyadosh emas. Bu saj`ning mutavozin ko`rinishi. Uchinchi va to`rtinchi bo`lakdagi saj`lar: **ochqoni - sochqoni -qochqoni; ketg`oni - etg`oni**. Bu so`zlar saj`ning eng oliy ko`rinishi - saj`i mutavoziyga mansub. Ular ham qofiyadosh, ham vazndosh. Nasriy sarlavhada saj` san`atining qo`llanishi yoqimli bir ohangni yuzaga keltirgan, shu bilan birga, uni she`riy asarlarga o`xshatib qo`ygan.

Nasriy sarlavhadagi birinchi mazmuniy bo`lak: **Xusrav elchisi Armon kishvariga etgoni va Mehinbonu munhiylariga muddaosin zohir etib, Bonu ani ko`rarga bazmi saltanat qurg`oni va Hudhud Bilqis olinda o`lturg`ontek rasulning Bonu qoshinda ulturg`oni**. Ya`ni: Xusrav elchisining Arman mamlakatiga etgani va Mehinbonu elchilariga muddaosini bayon qilgach, Bonu uni ko`rish uchun saltanat bazmi qurgani. Birinchi gapda elchi tilga olingani uchun ikkinchi gapda unga ma`nodosh bo`lgan munhiy (mulozim, elchi) so`zi keltirilgan. Ma`nodosh so`zlarning bunday ketma-ket keltirilishi **tanosub san`ati** deb ataladi. U elchi haqidagi fikrni ta`kidlab, tasvirdagi mazmuniy aloqadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchi jumladan **talmeh san`ati** boshlangan: Hudhud va Bilqis. Ular Sulaymon payg`ambar haqidagi afsonalarning qahramonlari. Sulaymon alayhissalom payg`ambar va eng ulug` podshoh. Unga dev va parilar, qushlar va hayvonlar, el va suv ham bo`ysunar edi. Sulaymon payg`ambar bilan bog`liq mo`jizalar: ko`ziga ismi a`zam yozilgan o`q, uchar gilam, hashamatli taxt, vaxshiy hayvon va qushlar tilini bilish.

Sulaymon va Bilqis hikoyati eng mashhur hikoyat. Sulaymon alayhissalom qo`l ostidagi qushlarning xar biriga bir vazifa topshirilgan. Hudhudning ishi - cho`l-biyobonlardan suv topish. Bir kuni suv kerak bo`lganda Hudhud topilmaydi. Sulaymon Hudhud kelgach, uni urishadi. Shunda Hudhud suv qidirib Sabo (Navoiyda Saibo) shahriga borib qolganini, u erning hukmdori beqiyos go`zal, boylik va hashamatda tengsiz Bilqis ismli ayol ekanligini va ularning quyoshga sig`inishlarini aytadi. Sulaymon Bilqisga oshiq bo`lib qoladi va "Kelib musulmon bo`ling" deb maktub bitib Hudhud orqali jo`natadi. Turli voqea va mo`jizalardan so`ng Bilqis iymon keltiradi va Sulaymon alayhissalom unga uylanadi.

Ikkinchi jumlaning mazmuni: **Hudhud Bilqis olinda ulturg`ontek rasulning Bonu qoshinda ulturg`oni**. Bu erda talmeh san`ati tashbeh san`ati bilan qo`shilib ketgan: shoir Xusrav elchisini Mehinbonu oldiga o`tirishini Hudhudning Bilqis oldiga o`tirishiga o`xshatadi.

Jumladagi tashbeh san`atining ma`nosi keng: faqat o`tirish manzaralari emas, qahramonlar ham bir-biriga o`xshash: elchi bilan Hudhud, Bilqis bilan Mehinbonu. SHoir elchini Hudhudga o`xshatib, Xusravning Sulaymon singari qudratli ekanligini ta`kidlayapti. Mehinbonu ham Bilqisdek shavkatli malika. Biroq Bilqis Sulaymon oldida qanday ojiz bo`lsa, Mehinbonu ham Xusrav oldida shunday ojiz. SHuning uchun u Bilqis Hudhud maktub keltirgan chog`da Sulaymondan cho`chigandan, Xusravdan cho`chiydi, chunki Xusrav ham Sulaymonga o`xshab Arman kishvariga qo`shin tortishi mumkin.

Xusravning maqsad-muddaosi bayon qilingi mazmuniy bo`lak quyidagicha: va Sulaymoni zamon risolatin qushlar tili bila arz qilg`oni va tovusni Anqo juftlug`iga so`z solg`oni. SHoir Sulaymoni zamon deganda Xusravni, tovus deganda SHirinni, Anqo deganda yana Xusravni nazarda tutgan ( istiora san`ati) .

O`ZBEK NASRINING ILK MANBALARI

REJA:

1. Qadimgi yozma yodgorliklar.
2. O`rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyati va nasrga xos belgilari.
3. Maxmud Qoshg`ariyning "Devoni lug`otit turk" asari.
4. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig" asari.
5. Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyik" asari.

ADABIYOTLAR:

1. Qadimiy hikmatlar.-T., 1987.
2. A.Qayumov. Qadimiyat obidalarini.-T.: Fan, 1993.
3. R.Vohidov. H.Eshonqulov. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-kitob. Buxoro - 2005.

TAYANCH TUSHUNCHALARI:

1. O`rxun-Enasoy
2. Mahmud Qoshg`ariy
3. Devoni lug`otit turk
4. Yusuf Xos Hojib
5. Qutadg`u bilig
6. Ahmad Yugnakiy
7. Hibatul-haqoyiq

Bu fan matn tahlilining umumiy yo`nalishlari, usullari va uslublari bilan amaliy tanishtiradi. Badiiy asar tahlili orqali uning g`oyaviy mag`zini, estetik qiymatini, badiiy tasvir vositalarini, janr xususiyatlarini bilib olasizlar.

Ona tili adabiyot fani bilan bog`liq. Fanimiz ona tiliga bog`liq holda o`tiladi. CHunki yozuvchi va shoirlarning asarlarini o`rganishda til va adabiy til qoidalarini bilish zarurligini ko`rsatadi.

Badiiy matnni poetik tahlil qilish usul va yo`llari to`liq ifodasini topgan ishlar juda kam.

O`zbek adabiyoti tarixi qanchalik uzoq asrlarga borib taqalsa,undagi nasr ham shu darajada qadimiydir."Vatanimizning boshqa xalqlari kabi o`zbek xalqi tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni haqiqiy ardoqlash, yig`ish va saqlash, ilmiy o`rganish va targ`ib etish" (Zohidov V.O`zbek adabiyoti tarixidan.T.,1961,3-bet) zarurati nasrimiz tarixini ham chuqur va atroflicha tadqiq qilish masalalarini keltirib chiqaradi.

O`zbek xalqining ilk manshalari dastlab xalq og`zaki ijodi bilan bog`lanadi. Xalqimiz tilida ming yillar davomida nasldan naslga, og`izdan og`izga ko`chib yurgan ertaklar,qissalar,shubhasiz o`z ibtidosini (boshlanishini) juda qadim

zamonlardan oladi. O`rta Osiyo xalqlarining uzoq tarixga ega bo`lgan adabiyotini o`rganish unda nasrning nazm bilan yonma-yon taraqqiy etib kelganligini ko`rsatadi. Odam yozuvni ixtiro qilganidan boshlab badiiy tafakkur hosilalarini u yoki bu darajada bayon etishga o`rgangan ekan, demak, u boshqa janrlar qatorida nasrga ham murojaat etgan. Afsuski, biz nasrning ana shu ilk namunalari ega emasmiz. Lekin bu janrning bugun bizga ma`lum namunalar o`rtasida "Avesto", "O`rxun-Enisey yodgorliklari" singari muhim manbalarning mavjudligi O`rta Osiyo xalqlari adabiyotida nasrning o`ziga xos yo`l bosib o`tganligi va rang-barang boyliklarga ega bo`lganini ko`rsatadi.

Bizgacha etib kelgan yozuv yodgorliklari bu ajdodlarimizning qadimgi hayoti, urf-odatlarini, so`z boyligini ifodalovchi manbalardir.

Mug` tog`i qasrida topilgan sug`d kalendari, Dunxuanda (SHarkni Sintszyan) topilgan sug`d tilidagi ona bilan qiz o`rtasida yozilgan oilaviy xat kabilar shu xarakterda bo`lib, badiiy proza elementlariga ega.

Ma`lumki, O`rxun-Enasoy yodgorliklari, O`rta Osiyo xalqlarining VI - VIII asrlarga oid qimmatli yodgorliklari bo`lib, unda qabr toshlariga uyib yozilgan ta`rix, marsiya va turli hujjatlar badiiy ifoda etilgan. Ushbu yodgorliklar qator olimlarning diqqatini tortgan, chuqur tekshirilgan. SHunga qaramay, hanuzgacha uning janr xususiyatlari haqida turlicha fikrlar mavjud. Masalan, V. Jirmunskiy, A. SHcherbak kabi olimlar uni proza yodgorligi deb atasalar, A. Bernshtam, I. Stebleva, A. Qayumov kabi olimlar uni turk xalqlari poeziyasining go`zal namunasi degan xulosaga keldilar.

Buni I. Stebleva o`zining shu yozuv tadqiqotiga doir maxsus kitobida asoslashga harakat qiladi: O`rxun asarlarining badiiy tuzilish vositalari majmuasi, ma`nolar paralllelligida ritmlardan ustalik bilan foydalanish, ohangdosh so`zlarni keng ravishda ishlatish, sajlarning yuqori darajali tartibi, kinoya, qochirimlarning xilma-xilligi qadim turk dostonlarini o`z davrining bebaho durdona asarlari deb hisoblashga dalil bo`ladi (Stebleva I. Poeziya tyurkov VI - VIII vekov. M., 1965, s. 68).

Biz ham I. Steblevaning fikriga qisman qo`shilib, ushbu yodgorlik VI - VIII asr turkiy poeziyasining ayrim elementlari uchrashini inkor etmaymiz. Biroq undagi katta yozuvlarda, ayniqsa, Kultegin qabr toshlaridagi parchalarda nasrga xos ayrim elementlar-sajning uchrashi kabi holatni "O`rxun-Enasoy yozuvlarida" prozaga oid belgilarning ustun bo`lganidan darak berishini alohida qayd etish lozim.

O`zbek xalqi turkiy tilda eng qadimgi davrlarda yaratilgan asarlarga merosxo`rlardan biri bo`lib qolmasdan, O`rta Osiyo va eron territoriyasida arab va fors-tojik tilida maydonga kelgan madaniy yodgorliklarda ham o`z hissasini qo`shadi. Chunki arab tarixchisi Tabariy, Saolibiy, Bal`amiy kabilarning asarlarida O`rta Osiyo xalqlari og`zaki ijodining ko`p namunalar mavjud. Chunonchi, O`rta Osiyo va eron xalqlari orasida eng qadimiy davrlardan boshlab mashhur bo`lgan Kayumars, Siyovush, Jamshid to`g`risidagi afsonalarning mufassal bayoni va variantlari Tabariyning "Tarixi Tabariy" asarida, shuningdek, shu afsonalarning ayrim variant va xronologiyasi haqida qiziqarli fikrlar Beruniyning "Al osorul-

bokiya anal-qarun-ul holiya" kitobida ham ketiriladi (O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 1-tom, T., 1977, 24-45-betlar).

XI asrning mashhur olimi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan maqol, matal, she'riy parchalar qatorida ayrim qissa va afsonalarning izlari ham ko'zga tashlanadi.

Mahmud Qoshg'ariy o'z asarlariga xarakteristika berib shunday deydi: "Men shu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan narsalar bilan bezadim". Asarda Alp ertunga (Afrosiyob), Iskandar kabilar to'g'risidagi mavjud ayrim kichik hajmdagi afsona hamda rivoyatlar keltiriladi.

Kichik bir lavha: Iskandar Chinga yaqinlashganda hoqon uning oldiga yosh o'smirlardan iborat bir to'p qo'shin yubormoqchi bo'ladi. Vazir esa kattalardan iborat qo'shin yuborishni ma'qul topadi. Qo'shinlar kechqurun borib Iskandar qo'shini bilan to'qnashib, uning bir askarini o'ldiradilar. Askarning belida lattaga o'ralgan oltin donasi bor edi. Tong otgach, askardagi "oltun qon" ekanini ko'rishadi. Bu kichik lavhani avtor "ucha" (katta), "oltin qon" turkiy so'zlari izohi uchun keltiradi. Aslida esa kichik lavhada o'ziga yarasha mazmun, voqealar bayoni, g'oya mavjud.

Shuningdek, XI asr yodgorlidan yana biri Yusuf Xos Hojib "Qudatg'u bilig" asarining muqaddimasida hamd, na't, kitobning qimmat, nomi, xonga tuhfa etilgani, muallifning taqdirlangani, asarda to'rtta ramziy qahramon - Kuntug'di (adolat), Oyto'ldi (baxt), Ugdulmish (aql), O'zg'urmish (qanoat)ga turkcha nom berilishi va bular o'rtasida munozara, savol-javoblar bo'lib o'tishining nasriy bayon etilishida ham nasr elementlari ko'zga tashlanadi.

Qadimgi YUnon tarixchisi Gerodot, Polien, Ktesiy, Xares, Mitilenskiy va boshqalarning tarix kitoblarida saqlanib qolgan "To'maris", "SHiroq", "Striangey va Zarineya", "Zariadr va Odatida" kabi O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid ayrim namunalar ham bizga nasriy shaklda etib kelgan.

V.V.Bartol'd epik motivlarni adabiy jihatdan qayta ishlash va ularni tarixiy shakllarga bog'lash Axlyuniylar davrida boshlangan, degan fikrni bayon qiladi va u bu fikrni sak malikasi Zarina hamda Midiya SHahzodasi Striangey haqidagi romanga murojaat qilish bilan oydinlashtiradi. Masalan, Xares Mitilenskiy eron eposidagi afsonaviy motivlardan birining saklarda tarqalgan eng dastlabki naqlini, shuningdek, o'n uch asrdan keyin Firdavsiy tomonidan kuylangan ba'zi qaxramonlarning nomlarini yozib qoldirgan. Bu aka-uka Gushtasp va Zariadr hakidagi hikoyadir... Afsuski, Biz nasrimiz tarixi haqida ana shu dastlabki namunalardan boshqa tugal ma'lumot va manbalarga ega emasmiz.

XIII-XIV ASRLARDA BADIY NASR TARAQQIYOTI

REJA:

1. O'zbek nasrining birinchi yirik namunasi - Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari.
2. Asarning tarkibi va janr xususiyatlari.

3. Asarning o'zbek adabiy tilini urganishdagi urni.
4. Kissalarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish.

ADABIYOTLAR:

1. R.Vohidov, H.Eshonqulov.O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1- kitob. Buxoro-2005.
2. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy.Ikki tomlik,1-2-tom.-T. «Yozuvchi»,1991.
- Z.H.Safarova. Hazrati Yusuf-go'zallik timsoli.-T.2003.

Tayanch tushunchalar

1. Nosiruddin To'qbug'a

2. Qissasul anbiyo
3. Qur'oni Karim
4. Luqmon

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan nasr namunasi "Qisasi Rabg'uziy" asaridan o'rin olgan hikoyatlar, rivoyat, naqlarga Qur'on va boshqa diniy kitoblardan, tarix asarlari va turli xalqlardan kirib kelgan afsona va rivoyatlar ham zamin bo'lib, ular turkiy epik an'ana ta'sirida yangi mohiyat va xususiyat kasb etdi.

Darhaqiqat, "Qisasi Rabg'uziy" dagi hikoyatlarning manbalari yuzasidan olib boriladigan izlanishlar masala tarixini kengroq tasavvur qilishga imkon beradi. XIII - XIV asr o'zbek adabiyoti Mo'g'ul istilosining hukmronligining og'ir natijalari oqibatida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy ahvolga qaramasdan, janr rang-barangligi bilan taraqqiy etib borganligi diqqatga sazovordir. SHu jumladan nasr ham adabiy jarayonning boyligiga aylandi.XSH asr oxiri va XIV asr boshlarida yaratilgan "Qisasi Rabg'uziy", "Najhul farodis" kabi asarlar shu davr mahsullari bo'lgan nasriy yodgorliklardir.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi murakkab va og'ir ahvol adabiyotda o'z ifodasini topmasdan qolmadi. SHunga ko'ra, ushbu davrda davr ziddiyatlari, zulm adolatsizlikka qarshi norozilik o'ziga xos ifodasini topganligini ko'ramiz. Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg'oniylar hikmat devonlari tuzdilar. Bunday asarlar sodda tilda turkiy she'riyatga xos shakllarda ifodalandi.

XIII – XIV asrlarga kelib mehnatkash xalqning fikrini quruq va'zxonlikdan ko'ra diniy-afsonaviy voqealarga tortish kuchaya boshladi. Ma'lum syujet asosiga qurilgan turli-tuman naql-rivoyatlarni badiiy bayon etishga intilish nasrning yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo'ldi. Syujet va kompozitsion yaxlitlikni, syujet fabulasining ochilishida bayon etilayotgan voqealarning izchil tugallanganligi, qahramonlar xarakteri va portretini yaratish, konflikt, echim, til va uslubning shakllana boshlaganligi o'zbek nasriy janrining vujudga kelayotganidan darak berar edi.Bu davrda qator asarlarning mualliflari islom tarixining bilimdonlari sifatida maydonga chiqib, oyat, hadislarni sharhlashga katta e'tibor berdilar. XIII - XIV asr o'zbek nasri namunasi hisoblangan va Ali ibn Mahmud

tomonidan yozilgan "Najhul farodis" ("Jannatlarning ochiq yo'li")da xuddi shu narsa ko'zga tashlanadi.

Asardagi 4 qism va uning ichki boblarida payg'ambarning to'liq hayoti, uning yaqinlari to'g'risidagi turli-tuman voqealar so'zlanadi. Bunday hikoyatlarning asosiy qahramonlari payg'ambarlar bo'lib, syujet davomida ularning boshidan kechirgan voqealar bayon etiladi. Ular bilan bog'liq biror voqea va hodisa dinning quvvatini, xudoning karomatini ko'rsatuvchi xulosa bilan yakunlanadi. "Najhul farodis" asari orqali din tarixi va avliyoyu anbiyolar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

«Qisasi Rabg'uziy» asari anbiyolar to'g'risidagi majmua bo'lsa-da, sof diniy ruhdagi asarlardan farqli o'laroq, o'zida dunyoviy mayllarning, xalq og'zaki ijodiga xos badiiy fantaziya tasviri ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi zamon o'quvchilari uchun etarli darajada tanish bo'lmagan mazkur asar va uning muallifi to'g'risida bir qancha tadqiqotlarda xarakterli fikr-mulohazalar mavjud⁶. Bu asarga besh tomlik «O'zbek adabiyoti tarixi»ning I tomida ham to'xtab o'tilgan.

Manbalarda «Qisasi Rabg'uziy»ning XIV asrning diqqatga sazovor adabiy yodgorligi sifatida talqin etilishi uning o'zbek adabiy tilini o'rganishda o'z o'rnini va ahamiyatini borligini ko'rsatadi. Asar traditsion kirish bilan boshlanib, so'ng kitobning yozilish sababi, avtorning o'zi haqida xabar beruvchi qisqacha so'zboshisi keladi.

Asar etmish ikki qissadan iborat bo'lib, ularning hajmi, kompozitsion to'zilishi turlichadir. Qissalarning ba'zilar o'zaro ichki fasllarga — qismlarga bo'lingan. Goho shunday o'rinlar uchraydiki, bir qissa ichida uning mazmunini to'ldiruvchi tamoman yangi mazmundagi mustaqil rivoyat keltiriladi.

Rabg'uziy qissalar syujeti davomida o'zi murojaat etgan Hasan Basra Raxmatulloh, Jobir ibn Ansoriy kabi mualliflarni, shuningdek, tafsir, Qur'on va boshqa kitoblarni eslatib o'tadi. SHuni ham aytish kerakki, qo'lyozmaning ba'zi bir nusxalarida Rabg'uziy «Qissasul-anbiyo»ning avval arab tilida ekani, keyin fors tiliga tarjima qilingani, so'ngra unga (Rabg'uziyga) turkiy tilda yozish topshirilgani aytiladi.

Darhaqiqat, muallif sanab o'tgan avtorlardan ko'rinib turibdiki, anbiyolar haqida anchagina manbalar mavjud bo'lgan.

Beruniy nomidagi O'zSSR FASHI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan № 8814, 4076, 1199 inv. nomeridagi «Turk adabiyoti tarixi», «Milliy tatabular majmuasi», «Totor adabiyoti tarixi» kabi bosma kitoblarda, shuningdek, Fitrat tuzgan «O'zbek adabiyoti namunalari» xrestomatiyasida. S. E. Mallaevning «Pamyatniki drevno-tyurkskoy pis'mennosti» kitobida (M—L., 1957), N. Mallaevning «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligida (Toshkent, 1961), «O'zbek adabiyoti» ko'p tomliqligining I tomida (Toshkent, 1959) keltirilgan.

Hozirda «Qisasi Rabg'uziy»ning XV asrga oid bir nusxasi Londondagi Britaniya mo'zeyida, XVI asrga oid nusxasi Leningrad kutubxonasida, XIX asrga oid etti qo'lyozma va o'n uch bosma nusxasi O'zSSR FASHI da saqlanadi.

(«O'zbek adabiyoti tarixi». 1-tom, Toshkent, 1977.)

Rabg`uziy o`sha tayyor qissalar xoh arab tilida, xoh fors tilida bo`lsin, ular asosida o`zbek tilida «Qisasi Rabg`uziy» (yoki «Qissasul-avbiyo»ni) yaratadi.

Asardagi qissalar payg`ambarlar to`g`risidagi afsonalar bilan bog`liq bo`lgani, ularga asoslangani tufayli ularning diniy xarakterda bo`lishi tabiiydir. Lekin qissalar asosini payg`ambarlar to`g`risidagi rivoyatlar tashkil etishiga qaramasdan, asarda dunyoviy yo`nalishdagi, pand-nasihat ruhidagi rivoyatlarning ham keng o`rin olishi o`z-o`zidan asar qimmatini va yozuvchi mahoratini belgilovchi omillardan biri vazifasini o`taydi.

Syujet tarkibiga diniy rivoyatlar qatori dunyoviy yo`nalishdagi pand-nasihat, didaktik targ`ibot ruhidagi qiziqarli rivoyatlar bayoniga keng o`rin ajratilgani asarning o`sha davr kitobxoniga ma`lum darajada ma`rifiy, didaktik ozuqa berar edi. Bu esa nasrda yozilgan ushbu asarning el o`rtasida tez va kengroq yoyilishiga, qiziqib o`qilishiga ham sabab bo`ldi.

Rabg`uziy har bir qissa boshlanishida payg`ambarlarning si-fatlarini bayon etuvchi madhiyalar keltiradi. Bu madhiyalar, ba`zi qissalarning xulosa va xotimalari she`r bilan yozilgan. She`rlar ko`proq o`zbek tilida, ba`zilari esa arab tilidadir. Asarda keltirilgan she`riy parcha va g`azallar badiiy saviyasi bilan Rabg`uziyning talantli shoir ekanligidan ham dalolat beradi. Ikkinchi tomondan bu hol XIV asr o`zbek adabiyotida g`azal janrining paydo bo`lganini ko`rsatadi.

Har bir qissadagi o`ziga xoslik, ularning kompozitsion qurilishida ham ko`rinadi. Ulardagi bayonda xalq og`zaki ijodining bevosita ta`siri yaqqol ko`zga tashlanadi. Shu jihatdan Sulaymon, Luqmon hakim, Nuh, Yusuf to`g`risidagi qissalar xarakterlidir. Masalan, Sulaymon to`g`risidagi (23) qissaning o`zi «Sulaymon bilan murcha (chumoli), «Sulaymon bilan boyqush», «Sulaymon va Samandun dev», «Sulaymon va hudhud», «Sulaymov va Bilqis», «Sulaymon va burga», «Sulaymondan hayvonlar tilini o`rgangan kishi», «Ho`kiz bilan eshak» kabi nomlash mumkin bo`lgan hikoyatlarga bo`linadi. Bularning hammasi alohida-alohida kichik hajmdagi hikoyatlar bo`lib, ularning har biri syujet chizig`iga ega. Ularning hammasi qo`shilib Sulaymon to`g`risidagi qissani to`ldiradi, voqealarning rang-barangligini ta`minlaydi.

Sulaymonning podshohining shon-shavkati, dabdabasining tasviri esa xuddi sarguzasht xarakteridagi ertaklarni eslatadi. Bu qissadagi syujet liniyasi Sulaymonning payg`ambar, podshoh sifatidagi obro`-e`tiborini yoritishga muvofiqlashgan bo`lib, qissa echimida esa uning oqil va odil shaxs sifatidagi fazilati namoyon bo`ladi. Bu bilan Rabg`uziy Sulaymonning payg`ambar va podshoh sifatidagi mavqeining balandligi-yu, muhimi, uning inson sifatidagi yaxshi fazilatlarini namuna sifatida tasvirlaydi, shunday kishilarning hayoti, faoliyati, portreti, hatti-harakati o`sha davr hukmronlariga o`rnak bo`lishi ko`zda tutiladi.

Bir kishining iti, xo`rozi va tovuqlari ham bor edi. It xo`rozga: xo`jayinning o`lar vaqti etibtiku, sen to`poloningni qo`ymaysan!—dyoydi. Xo`roz:—Nega o`ladi? Kasali yo`q-ku!—deydi. It voqeani aytadi va xo`jayin o`lsa, xotini erga tegadi, bizlarga kim don bersa, biz o`shanga boramiz!—dyoydi.

Bu voqealar ichida voqealar berilgan hikoyat yumorga boy xalq ertaklarini eslatadi. SHuningdek, ulardagi syujet izchilligining davom etishi bosh hikoyatdagi yo`nalishning to`g`riligini ta`minlashga xizmat etadi. Kichik tamsil xarakteridagi hikoyatlar mantiqidan birovning sirini mahkam tutish foydadan xoli emas, aks holda o`sha kishining o`ziga zarar etadi degan ibratli yakun bor. Bu hikoyada Jamshid haqidagi qadimgi qissalarning izlari ham mavjuddir.

«Qisasi Rabg`uziy»dagi personajlar portreti tasvirida xalq og`zaki ijodining ta`sir kuchi seziladi. Avtor tasvirida personaj real hayotiy kuchdan, ko`rinishdan ko`ra, ko`proq fantastik qiyofadagi o`ta bahodir, o`ta yaxshi yoki o`ta yomon xislatlarga ega holda namoyon bo`ladi: Masalan, Yusufning akalaridan YAhudo na`ra tortsa, Misr xalqi hushsiz yiqilar ekan. YOki Muso (payg`ambar)ning hassasi erga sanchilganda mevali daraxt, dushmanga qarshi katta ilon, daryoga ko`prik bo`lish kabi xosiyatlarga ega ekan. YAna bir misol. Amalqa qabilasi odamlari g`oyat uzun bo`ylik bo`lib, Bani Isroil ularga o`n ikkita baquvvat, novcha kishilardan elchi yuboradi. Ular ancha yurib bir kishining bog`iga kirib uzum eb tursa, egasi kelib ularni tutib oladi va oltitasini bir engiga, oltitasini boshqa bir engiga solib shoh huzuriga olib boradi va engini qo`yadi. U erdagilar hayron bo`lib, bu qanday qo`llik, oyoqlik qurtlar?—deb, kaftlariga olib, tomosha qiladilar.

Bu qissalarda umuman sharq adabiyotiga xos mubolag`ali ta`sir kuchlidir. YAna bir misol. No`h davrida yashagan Avj ibn Ano`q (Odamning qizi — Ano`qning o`g`li)ning ikki oyog`i orasi bir kunchalik yo`l edi. U daryolardan qo`li bilan katta baliqlarni tutib, oftobda pishirib er edi. To`fon uning tizzasidan yuqori chiqmaydi, yuz botmon taom nahorlik bo`lmaydi. Rivoyatda aytilishicha, Avj ibn Ano`q daryo labida oyog`ini narigi qirg`oqqa qo`yib o`tirganida Azroil uning jonini olgan ekan. Oyoq suyagi ko`prik bo`lib qolib, keyinchalik uning ichidan karvon o`tdigan yo`l bo`lgan ekan. Boshqa bir rivoyatda aytilishicha, Avj ibn Ano`q Muso davrigacha yashab, Musoning lashkarlari ustiga tog`ni ko`tarib tashlamoqchi bo`lgan ekan. Xudo farmoni bilan bir kush tog`ni teshganda tog` uning bo`yniga sirtmoq bo`ladi. Musoga:— «Hassang bilan ur!—deb farmon keladi. Musoning bo`yi 12 gaz, hassasi 12 gaz, urish uchun yana 12 gaz sakraydi. Avj ibn Ano`q nomi bilan

bog`liq hikoya boshqa qissalar bilan aytarli uzviy bog`liq emas, payg`ambarlar to`g`risidagi qissalarga esa deyarli aloqasi yo`q. Avjning o`zi esa diniy karomatga ega shaxs ham emas, aksincha, u fol`klor asarlaridagi devsfat personajlar obrazini eslatadi, xolos. SHuningdek, bu erdagi motiv ham har qanday diniy tushunchadan xolidir. Bunday o`rinlar qissalarni o`qigan o`quvchini zeriktirmay, aksincha uning voqealarga bo`lgan qiziqishini tobora kuchaytira boradi. SHunisi xarakterliki, qissalarda keltirilgan kichik hajmli hikoyatchalarning mavzulari ham xilma-xildir.

Rabg`uziy asaridagi xarakterli qissalardan biri Nuh to`g`risidagi qissadir. Bu qissadagi eng qiziqarli o`rin parranda, hayvonot dunyosidagi turli xususiyatlarni izohlovchi hikoyatdir. Masalan, arining g`ung`illab uchishiga oid shunday naql keltirilgan: Nuh va uning kishilari suvda ketayotganlarida kemani sichqon teshib qo`yadi. Ilon teshikni berkitib, ularni halokatdan saqlaydi va Nuhdan buning evaziga eng shirin narsa so`raydi. Nuh arini eng shirin narsani

aniqlashga yuboradi. Ari kelaver-magach, qaldirg'och undan xabar olgani uchib, yo'lda ko'rishib qoladi. Qaldirg'och aridan: «Eng shirin narsa nima ekan?»—desa, ari: «Odam go'shti!»—deb javob beradi. Ziyrak qaldirg'och: Qani, men ham totib ko'raychi»,—deb uning tilini uzib oladi.

Birgalashib Nuh oldiga kelishadi. Ari g'ung'illab javob bera olmay turganida, qaldirg'och — eng shirin narsa qurbaqa emish, deydi. O'shandan buyon ari g'o'ng'illar ekan, ilon qurbaqani er ekan, qaldirg'och esa insonga xizmat qilgani uchun odamlar orasida yashab, uylari peshtoqiga in qo'yarkan. Ilon qaldirg'ochning aldaganini bilib o'shandan buyon unga dushman bo'lib qolipti. Bularning bir naql sifatida keltirilishi Nuh to'g'risidagi qissaning syujet fabulasining qiziqarli chiqishiga, eng muhim ibratli bir tezisni ilgari surishga xizmat etadi. Ko'rinib turibdiki, naqlda xurofiy tushuncha mutlaqo yo'q.

Bulardan tashqari, «Qisasi Rabg'uziy»da didaktik ahamiyatga ega bo'lgan hikoyatlar mavjud. Ularning ba'zilar latifa xarakteridadir. Masalan, Luqmon hikoyasi bunga misoldir. Ma'lumki, Luqmon shaxs sifatida payg'ambar, anbiyolar toifasidan bo'lmasdan, insonlarga shifo baxsh etuvchi donishmand hakim sifatida qadimdan mashhur.

Rabg'uziy o'zining asarida Luqmonning mana shu jihatlarini — ta'birchan va donoligini ta'kidlaydi. Bir kun xojasi Luqmonga qo'yning eng yaxshi eridan keltirgin desa, u til va yuragini keltiradi. So'ngra eng yomon erini keltir desa, yana tili va yuragini keltiradi. Xojasining bundan taajjublanib bergan savoliga qo'yning eng yaxshi va eng yomon eri tili va yuragidir, deb javob beradi. Avtor qissadan hissa chiqarib, xojasining ikki tilli tovlamachi shaxs ekanini fosh etadi, unga tanbeh beradi. Bunda avtor kichik syujet chizig'i orqali bir-biriga qarama-qarshi ikki xarakterlar to'qnashuvini yarata olgan. Xalq og'zaki ijodiga singib ketgan yaxshi narsa ham til bilan yurak, yomoni ham til bilan yurak!—mazmunidagi iboraga asoslangan bu hikoyada ikki bir-biriga zid — xoja va Luqmon obrazlari ochiladi. Luqmonning donoligi asosida xojasining qora yurakli, yomon tilli kishi ekani o'quvchiga ayon bo'ladi.

Keyingi hikoya ham o'ziga xos syujetga ega bo'lsa-da, unda g'oyaning uzviyligi, obrazlarning tadriji davom etadi. Undagi Luqmon bilan xoja o'rtasidagi konflikt bu ikki qarama-qarshi xarakterdagi obrazlarning tamoman bir-biriga zid ekani, shu bilan birga, tadbirkor Luqmonning yod etib, oqilona xulosa bilan yaxshilikka asosida davom ettiriladi.

Yana bir misol. Luqmon xojasi bug'doy desa, arpa ekadi.—Nega bug'doy ekmading? Arpa bug'doy bo'ladimi?—degan savoliga u:—Sening gunoh ishlaring xayr ish o'rniga o'tadimi?—deb xojasini mot qiladi, uning adolatsizligini qoralaydi. Bunday maqol, matal darajasiga ko'tarilgan naqlarning qimmati shu kunlarda ham saqlanib qolmoqda.

Shunday qilib, har bir qissa ichida keltirilgan ko'plab naql, hikoyatlar turli mavzularga bag'ishlangan bo'lib, garchi payg'ambarlar to'g'risida bo'lsa ham, goh adolatsizlikni qoralab, adolatni yoqlashga, umuman insonlarga xos manmanlik, kibr-havoni tanqid qilib hamisha to'g'ri, odil bo'lishga, halol yashashga da'vat etadi. Albatta, asar va avtor o'sha davr sharoitiga ko'ra diniy qarashlardan, hukmron mafkura ta'siridan xoli emas. Bu tabiiy. SHunga ko'ra, asarni biz sof

dunyoviy xarakterda deb baholay olmaymiz, albatta. Chunki «Qisasi Rabg`uziy»ning diniy e`tiqod asosida yozilgani ravshan ko`rinib turibdi. Chunki undagi xarakterli hollardan biri asardagi qissalar syujetining ildizlari Qur`on, Tavrotga borib taqalishidir.

Lekin shunga qaramasdan, asardagi originallik, voqealarning turli-tuman yo`nalishda qiziqarli, ifodali tasvirlanishi, davr uchun muhim axloqiy qarashlarni bayon etishi uni dunyoviy xarakterdagi asarlarga nisbatan bo`lsada, yaqinlashtiradi.

«Qisasi Rabg`uziy»dagi Yusuf to`g`risidagi qissa syujet va kompozitsion qurilishi, voqealar chizig`ining izchilligi, personajlarning xarakter to`qnashuvi va rivoji, hajmining kattaligi bilan boshqa qissalardan farqlanib, mustaqil bir povest` darajasiga ko`tarilgan. Undagi epiklikning kuchliligi shunday fikrga olib keladi. Ma`lumki, Yusuf va Zulayxoning sevgi qissasi eng qadimiy mavzulardan bo`lib, juda ko`p avtorlar tomonidan tilga olingan, u haqda maxsus dostonlar yaratilgan.

«Qisasi Rabg`uziy»da ham biz shu syujet bilan uchrashamiz. Akalarining mansab, mol-dunyo uchun kurashi, baxilligi, Yusufning tush kurishi va bu tushning Ya`qub tomonidan uning kelajakda katta mansabga ega bo`lib, akalarining unga itoat qilishi haqidagi tush bilan boshlanadi.

Ya`qub payg`ambarning bir necha o`g`li bo`lib, Yusuf Ya`qubning eng sevikli o`g`li edi. U aql-farosatda, husnda akalaridan ustun edi. Akalari otaning Yusufni sevishidan rashk qilib, uni yo`qotish payiga tushadilar. Ular hiyla-nayrang bilan ukalarini uydan olib chiqib ketib chohga tashlaydilar, qul qilib sotadilar. Natijada o`g`li firoqida YA`qub ko`r bo`lib qoladi. Yusuf karvon bilan Misrga keladi, husni, aqli bilan u erda ham shuhrat topadi. Farang shohining qizi Zulayxo tushida ko`rgan va yil-lar davomida kutgan Yusufni o`ngida ko`rib, eri — Misr Azizini uni sotib olishga ko`ndiradi. endi qissadagi sevgi chizig`i boshlanadi. Zulayxo o`z sevgisida sobitqadam, ammo Yusuf Zulayxoning eriga xiyonat qilmaydi. SHuning uchun sevgilisi tomonidan ta`qib qilinib, tuhmatga, zindonga duchor bo`ladi. Lekin adolat tantana qiladi, Yusuf zindondagilarga ularning tushlari ta`birini to`g`ri aytib berishi bilan nom qozonadi. Bundan xabar topgan shoh ham o`zining tushini Yusufga aytib, mamlakati boshiga kelayotgan xavfdan va uning oldini olish yo`llaridan voqif bo`ladi.

Uning dono maslahatini eshitgan Misr shohi Rayyon mamlakatini qahatchilik — qurg`oqchilik xavfidan saqlay olmasligini bilib, o`zining keksa ekanini aytadi va Yusufni o`z urniga shoh qiladi. Yusufning oqilona va donolik bilan qilgan hukmronligi natijasida el-yurt qurg`oqchilik natijasida yuz bergan qiyin ahvoldan qutulib, shod-xurram yashay boshlaydi.

Bu vaqt ichida Misr Azizi o`lib, Zulayxo Yusuf firoqida davlatini sarflab, ko`zlari ko`rmasdan qoladi. Lekin sevgani— Yusuf bilan uchrashuv unga yoshligi, husnini qaytaradi. Yusuf Zulayxoga uylanadi. Qissadagi sevgi chizig`ida Zulayxoning faolligi ko`rinib turadi. Zulayxoning o`z maqsadi yo`lida turli-tuman to`siqlarni engib, ota-ona yurtidan Yusufni deb chiqib Misr Aziziga tegib xatoga yo`l qo`yishi, lekin shunda ham sevgan kishisi Yusufga etishish istagida, turli malomatlarga qolishi, husnidan, mol-dunyosidan ayrilib, ko`zlari ko`rmas bo`lib qolganda ham Yusuf xayoli bilan yashashi, uning sevgisiga optimistik ruh

bag'ishlaydi. Asar anbiyolarga bag'ishlangan bo'lsa-da, xotin-qizlarning o'z maqsadi yo'lida chidam va sabot bilan qat'iy kurash olib borishi Zulayxo obrazida o'zining yuksak badiiy ifodasini topadi. Qissada yaxshilik, adolat g'alaba qiladi.

SHunisi xarakterliki, Rabg'uziy voqealar bayonida qissa konflikti bilan bog'liq bo'lgan katta-kichik tugunlarning ibratli echilishiga alohida e'tibor beradi.

Masalan, Rayyon shoxining xizmatidagi bakovul, soqiy va Yusufning akalari o'z munofiq ona hatti-harakatlari uchun jazolanadilar. Ya'qub qul xotinning o'g'li Basharni sotib yuborib, onani dard-musibatda qoldirgani taqdirdan o'ziga qaytadi. O'sha ona-bola topishgandan so'ng Ya'qub ham Yusuf bilan ko'rishadi. Yusuf Bashirni qullikdan ozod etib otasiga o'z ko'ylagini berib yuboradi. Avval Bashir onasining, so'ngra Ya'qubning ko'r ko'zi ochiladi. Bu bilan qissada beva-bechoralarga qilingan zulm, adolatsizlik natijasiz qolmaydi,— degan g'oya ilgari suriladi. Bu qissadan chiqariladigan bosh xulosa edi. Lekin qissadagi Jabroilning xudodan payom etkazib turishi, Yusufning qismatini qanday lozim ko'rilgan bo'lsa, shunday bo'layotganini ko'rsatib borishi, voqealar rivojida turli-tuman mu'jizalar zohir qilishi — bu asarning umumiy diniy ruhda ekani bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, Yusuf va Zulayxo hatto «Qur'on»ga ham kiritilgan edi. Rabg'uziy o'z asarida Qur'ondagi syujetdan foydalangani shubhasiz. Lekin bu cheklanish va ziddiyatlardan qat'i nazar — Yusuf va Zulayxo sevgisi XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridagi o'zbek nasri tarixida mustaxkam o'rin oldi. SHu bilan birga u keyingi davrlarda yaratilgan «Yusuf va Zulayxo» mavzuidagi asarlarga ham asos bo'lgan. Shuningdek, qissa diniy ruhda asarlardan farqli holda bevosita aniq munosabatlarni belgilab, o'zbek adabiyotining nasr janri taraqqiyotida muayyan o'rin egallay olgan.

Asarda Rabg'uziy badiiy nasrda o'ziga xos mahoratga erishgan yozuvchi sifatida turli hajmdagi hikoyatlarda ma'lum bir mavzuni echishga, rang-barang obrazlar yaratishga erishdi.

Avtor qissalarda badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanadi. Mana, bir bahor peyzajining go'zal manzarasi: Yusufning akalari otasiga kelib aytadilar: «Ey ota! Yoz kuni bo'ldi, bu kun otlig' sulton Hut otlig' qishloqni qo'yub, Hamal otlig' yayloqqa o'g'radi. Odiz juk yirlar, yag'iz er kular. Bulut ko'zlaridin yosh oqsa, er yuzinda ko'k chimgonlar kular. Usruk sabo isnab tuyar. Buston toba yuldin sabo kirib, ko'rushturub, yig'ochlar boshida tugma tuyur. Chechaklar tugmasin yirtib bo'zar. Lola ko'ylaki soya tortib o'zar. Er yuziga naqshin bezar. Barcha gullar tun qarosidin qosh ko'ziga surma tortar. Butoqlar solinib o'ynar, sanduvoch qush sevinib sayrar. Qumrilar muhri bo'lib unun charlar. To'ti qush zokir bo'lub majlis tutar. emdi qish kuchti. «Yoz qozi qo'ndi, torilsish qushlar yirildi. Uluk erlar tirildi»...

Bu parchadagi badiiy tasvir vositalari Rabg'uziyning etuk mahoratidan darak beradi: ushbu lavhada tabiatning nihoyatda chiroyli manzarasi yaratilgan. O'quvchi ko'z oldida endi uyg'ona boshlagan tabiatning ilk bahordagi jonli tasviri va ko'rki xarakterli va go'zal obrazlarda chizilib, kishiga emotsional zavq bag'ishlaydi.

Ma'lumki, anbiyolar to'g'risida yaratilgan qissalarning xarakteri va qiziqarli xususiyati o'z davrida uning ta'sir doirasini kengayishiga sabab bo'lgan. Rabg'uziydan so'ng XV asrning II yarmida Alisher Navoiydek gumanist va mutafakkir adib asarlari orasida ham «Tarixi anbiyo va hukamo»dek nasriy bir asar yaratildiki, bunda biz «Qisasi Rabg'uziy»da ko'rib o'tilgan — Sulaymonning murcha bilan suhbat, Dovudning Uryonning xotiniga uylanishi to'g'risidagi xarakterli voqealarni aynan uchramiz.

Bundagi o'xshash o'rinlar Rabg'uziy asarlaridagi ayrim mavzu va bayonlarning ildizi qadimiyligini va u ko'pchilikning diqqatini tortganini yana bir karra iobotlaydi.

Shu bilan birga biz «Qisasi Rabg'uziy» misolida o'rganilayotgan davr nasrida ko'zga tashlanadigan yana bir muhim tomon — psixologizm tasvirining sezilarli o'rin egallaganini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shu jihatdan filologiya fanlari doktori A. Hayitmetovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: «O'rta asr muhitida, din odamlarni g'oyat kamsitgan, inson qadri feodal hukmdorlar oldida toptalgan, uni adabiy asarga qahramon qilib olish rasmiy doiralarda g'ayritabiiy bo'lgan bir sharoitda (XIII—XIV asrlar) peshqadam shoirlar insonni ulug'laganlar. Ular inson go'zalligini madh etganlar va uning ichki dunyosini orzu va intilishlarini, o'z zamonasiga munosabatini, dard-alamlarini, iztirob va hayajonlarini ochishga intilganlar. Hozirgi termin bilan ifodalaganda, ularning ijodida ichki kechinmalar tasviri—psixologizm sezilarli o'rin egallagan. Bu davr shoirlari o'zbek adabiyotining keyingi rivoji uchun to'g'ri yo'l ochganlar, adabiyotni dindan va mistikadan uzoqlashtirib, uni inson manfaatlariga xizmat qildirishga yo'naltirganlar».

Darhaqiqat, «Qisasi Rabg'uziy»da keltirilgan Luqmon, Dovudga oid qissalarda va boshqalarda inson, uning borligi, atrofidagi kishilarga munosabati, uy-qarashlari, qarama-qarshi xarakterlar tasviriga jiddiy o'rin ajratilgan.

Dovud oldiga aka-uka qiyofasida kelgan farishtalar tilidan aytilgan so'zlar, Dovudning ma'naviy fosh etilishi hayotiylik namunasidir. Ko'p xotinlilik o'tmish davr kishilari psixologiyasiga tanish hodisa. SHu jihatdan Dovudga qilingan ta'nalar hayotiy va mantiqan to'g'ridir. YOki Luqmonning xarakteriga xos to'g'rilik orqali davr adolatsizligi fosh etiladi. Bunda ijtimoiy mazmun o'z ifodasini topgan. SHuningdek, Zulayxoning Yusuf ishqidagi iztiroblari, sevgi yo'lida hech narsadan qaytmay goh yalinib, goh zulm-sitam bilan Yusufni o'ziga og'dirmoqchi bo'lgani asarda mubolag'alar bilan ishonarli bayon etiladi. Qissalarda mubolag'alar ba'zan hayotiy haqiqatga aylana boradi. Bu hol davr nasri rivojida psixologizm tasvirining jiddiy o'rin egallaganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, «Qisasi Rabg'uziy» XIII asr oxiri va XIV asr boshidagi o'zbek adabiyoti tarixida proza janri taraqqiyotini belgilashda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yodgorlikdir. Asar, undagi diniy qarashlardan qat'i nazar, o'zining u yoki bu darajadagi dunyoviy motivlari bilan XIII—XIV asr nasr namunasi va adabiy tili yodgorligi sifatida muhim qimmatga egadir.

Bundan tashqari, shu davr nasri takomilida adabiy aloqalar ham muhim o'rin egalladi. Chunonchi, XIV asrda yashab ijod etgan Sayfi Saroyi tomonidan Sa'diy "Guliston"ining fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, «Gulistoni bit-turkiy» asarining yaratilishi buning yorqin dalilidir.

Sayfi Saroyi va Sa'diy asarlarini muqoyasali o'rganish shuni ko'rsatadiki, tarjimada mustaqillik ko'rinib turadi. Sayfi Saroyi Sa'diy asarining mag'zini koldirib, tarjima jarayonida uni o'z davri hayotini ko'zlatish natijasida olgan taassuroti, o'zining g'oyaviy niyati, ideallarini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a, baytlar bilan to'ldirib, o'zbek tilida go'zal asar yaratadi. «Guliston bit-turkiy»dagi hikoyatlar sakkiz bobga bo'lingan bo'lib, ular — sultonlar, faqirlar axloqi, qanoat, sukutning foydasi, yigitlik sifati, qarilikdagi zaiflik sifatleri, tarbiyaning ta'siri, suhbat odoblari haqidadir. Bu boblarda xilma-xil obrazlar—shoxlar, vazirlar, amaldorlar, dexqonlar, kosiblar, savdogarlar, cho'ponlar, o'g'rilar, darveshlar kabi turli ijtimoiy guruhlar ishtirok etadi.

Sayfi Saroyi goh Sa'diy tilidan, goh o'z tilidan so'zlab, kichik bir voqeani hikoya qilib qissadan hissa chiqaradi. Uning xulosalarida pand-nasihat, axloqiy-didaktik qarashlar o'z ifodasini topgan.

Adib fikricha, agar shoh va uning atrofida gilar odil bo'lsa, mamlakatni obod va farovon qilish, rostguylik, sadoqat, to'g'rilik kabi olijanob fazilatlarni targ'ib etish, odamlarni haq yo'lga solish mumkin deb o'ylaydi. Bular Sa'diyning qarashlariga hamohang holda o'z davri, o'z xalqi orasiga tarqaldi. Albatta, ushbu asar ham Sa'diydagi kabi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlardan xoli emas. Lekin, shunga qaramasdan, Sayfi Saroyining ona yurt va xalqining baxt-saodati yo'lidagi e'tiqodi asarining qimmatini belgilovchi mezondir.

Nasrning bundan keyingi rivoji o'ziga xos yo'lda davom etdi. XV asrning birinchi yarmida o'zbek adabiyoti nasr janri taraqqiyotida yana bir yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu davrda nasrning munozara janrida Amiriyning «Bang va chog'ir orasinda munozara», Yaqiniyning «O'q va yoy orasinda munozara» nomli qimmatli asarlari vujudga keldi.

Navoiygacha yaratilgan proza namunalaridan Amiri y va YAqi-niylarning asarlari filologiya fanlari doktori e. Rustamov tomonidan o'rganilgan va uning «XV asr birinchi yarmidagi o'zbek poeziyasi» kitobiga ilova tarzida keltirilgan.

Amiri y va Yaqiniylarning munozaralari yaratilgunga qadar, asar XI asr yodgorligi hisoblangan Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi qish va yoz o'rtasidagi tortishuvni hisobga olmaganda, turkiy tilda bu janrda yaratilgan maxsus asar uchramaydi. SHu jihatdan nasrda yaratilgan «Bang va chog'ir orasinda munozara» va «O'q va yoy orasinda munozara» asarlari XV asr adabiyotining nasri tarixini boyitib, bu janrning keyingi asrdagi rivojiga ham muhim hissa qo'shdi.

Fors-tojik adabiyoti tarixida esa munozara janri ancha ilgari rivojlanganini ko'ramiz. Uning dastlabki namunasi «Daraxti Asurik» bo'lib, unda xurmo daraxti bilan echki kim insonga ko'proq foyda etkazishi mumkinligi haqida bahslashadi.

XI asrda yashagan fors-tojik shoiri Asadi Tusiy esa munozara janrida beshta «Kecha va kunduz», «O'q va yoy», «Osmon va zamin», «Kofir va musulmon», «Arab va fors» nomli asar yozgan edi. Keyinchalik Sa'diy ham o'zining «Guliston» asarida bu janrga murojaat etadi.

Lekin Yaqiniy va Amiriylar yaratgan asarlar, e. Rustamov ta'kidlaganidek, shakl va mazmun e'tibori bilan avvalgilardan mutlaqo farq qiladi.

Yusuf Amiriyning «Bang va Chog'ir» asarida Bang timsoli orqali yashilrang to'n kiygan So'fiy va gulgun libos kiygan yosh yigit Chog'ir — May ikkalasi munozaraga kirishadi. Har ikki tomon o'zining raqibidan ustun va afzalligini ko'rsatmoqchi bo'lib, o'z fazilatlarini maqtab ko'klarga ko'taradi, raqibini esa o'zidan past turganini uqtirib, uni erga urishga, kamsitishga harakat qiladi.

Bu munozara shu qadar keskin boradiki, natijada o'quvchi tasavvurida chog'irning ham, bangning (nasha, opium) ham inson sihat-salomatligi, faoliyati uchun koni zarar ekani fosh etila boradi. Avtor har ikki tomon tilida go'zal o'xshatish, istioralar, kesatiq va kinoyalarni mahorat bilan ishlatib, o'sha davr ijtimoiy illatini yoritib berishga muvaffaq bo'ladi. Hikoya davomida konfliktning keskinlashgan paytida har ikki tomon o'zining fazilatini, ikkinchisidan ustunligini shiddatli nutqiy gahsda, sharqning mashhur shoirlari — Ubaydi Zokoni, Salmoni, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviylar tilidan aytilgan she'riy parchalarni keltirish bilan tasdiqlaydilar. Bu o'rinda shoirlarning qachon va qay munosabat bilan o'sha she'ri yozganlari va bu parchalar ayni vaqtda bahslashayotganlar tomonidan o'rinli keltirilishi avtorning diqqat markazida turadi.

Misol uchun chog'ir deydi:

«Rindlar mazxabida men ul maxbubamenkim, mening uchun chandin qonlar oqibtur va chindan jonlar chiqibtur. Mening majlisimda goh oyoq boshqa qo'yilar va goh bosh oyoqda.

...Sen bir o'tsanki, majmu'i el sening ilkingdin kuyubturlar, har kimki senga ugrandi — urtondi. Bu fand sehr qilursenki, odamiyni bir damda eshak etarsen. Fahmning oxir qilguvchisi va vahmning zohir qiluvchisi... ey lavandlar sarmoyasi va tanandlar biroyasi, ey badshakl, degdoni, va yoy badbaxt otashdoni, jastu cholok yigitlarni kesgil va tanbal qilg'aysen, chandin odamiy va odamiyzodalarni qaro erga yondurg'oysen...

Ilohi, tuxumung qurugay sening!»

Yuqoridagi parchadan ko'rinadiki, taraflar o'z muxoliflarini satira ostiga olishlari orqaligina emas, balki o'zlarini maqtashlarida ham illatlarni fosh qilib tashlaydilar. Bu, shubhasiz, muallifning fosh qilishlik uslubini atroflicha chuqur bilganligidan dalolat beradi.

Bang bilan chog'ir urtasidagi munozara uchinchi bir taraf — bolning aralashuvi bilan yakunlanadi. Bol ularni ajratib qo'yadi, barcha yigilganlar tarqab ketadilar.

Avtor bu asarida o'z davri illatlarini maka shu kichik, ammo keskin ruxdagi bayonda fosh qilishga muvaffaq bula olgan. Ushbu munozaradagi konflikt davrga xos xususiyatning asos qilib olinishi va konfliktning keskinlashuvida avtorning har ikki tomonning illatlarini ochib tashlashi asarning tsimmati, mohiyatini belgilashda g'oyat diqqatga sazovordir.

Bang va chog'ir majoziy obrazlar bo'lib, ular XV asr sharoitidagi xukmron guruhlarining qilmishlarini yoritishga xizmat etadi. O'sha davrdagi temuriy shaxzodalar urtasidagi bema'ni tortishuvlar, nifoq, adovat hamda

ichkilikbozlik, maishatparastlik illatlari avtorning diqqat e'tiborida turgani ravshan kurinib turibdi. Ushbu asar nasr tarixida Amiriyning axloqiy-ta'limiy qarashlarini o'zida mujassamlantirgan nasriy asar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Yaqiniyning «O'q va yoy» munozarasida Yoy — qaddi bukilgan qari chol, O'q — qaddi rost yosh yigit timsolida ham, ularning munozaralari .mobaynida ham davr, zamon zuravonliklari sha'niga aytilgan nihoyat darajada dadil, isyonkor fikr, achchiq istehzolar mavjuddir. Lekin muallifning o'zi ta'kidlashicha, u ta'qib va tazyiqlar tufayli talaygina so'zlari, fikrlarini qisqartirishga majbur. U oxirigacha ayta olmagan yoki ochiq bildirishdan ojiz qolgan ma'nolarni anglab olishni «rost tabiat» va «mustahkam zehn»lilarga havola qiladi. Yaqiniy yozadi: «Agarchi bu so'zning soati vasi' erdi, shani' ko'rungay deb so'z ixtisor bo'ldi. Umid ulkim, rost tabiat, mustaqim zehnlarning mahokida bu nakdi tamom ig'yor bo'lgay».

Munozaraning bosh g'oyasi — jamiyatda o'q kabi to'g'rilar xor-zor, qadrsiz, yoy kabi egrilar izzat-hurmatda, yaxshi lavozimlarda ekanligi asarda ana shu satirik yo'sinda izchil ochib berilgan.

Adibning badiiy mahoratiga oid xalq jonli tili iboralarini o'rinli qo'llashi, sharq poeziyasidagi musaxxaf (arabcha harflardagi diakritik nuqta, belgilar, harflarning o'rnini almashtirish) san'ati va sajning ishlatilishi kabi masalalar haqida e. Rustamov o'z kitobida batafsil to'xtab o'tadi.

Bu asosiy g'oya muallif tomonidan asarning oxirida — qissadan hissa tarzida ta'kidlanadi. «Bu munozaradan maqsud ulkim, bu davrning kajtab'larining qoshinda har kim yodek egri bo'lsa, yonlaridan yiroq bo'lmas va har kim o'qdek rost bo'lub to'z yursa Yaqiniydek yiroq to'shar».

Asarda voqea shahardan tashqarida majlis qurayotgan yoshlar oldiga ikki kishining kelib qo'shilishidan boshlanadi. Ularning biri qora chol — yoy, ikkinchisi navqiron yigit — o'q. Bu ikki qaddi basti va yoshi jihatidan bir-biriga zid personajlar obrazining berilishining o'zi bejiz emas. Ular avtorning maqsadini, asar konflikti va bosh tugunini yaratishdagi bir-biriga tashqi jihatidangina emas, mazmunan nomuvofiq bo'lgan obraz-lardir.

Ulardan o'q — yigitning ung tomondan, yoy — qari cholning chap tomondan o'rin olishi qariyani ranjitib, asosiy munozara boshlanishiga sabab bo'ladi. Uning gaplarida rostguylik, adolat, yoy — Kamonning talablarida esa haqsizlik, yolg'onchilik, zulm, zo'ravonlik motivlari kuchli.

Haqgo'y (yigit) O'q adolatsizlikning — yoy (qari chol) va hukmdor barloslarning qurboni bo'ladi.

Bu mavzu va undagi voqealar rivojining borishi nixoyatda kuchli dramatik fonda davom etib, o'quvchining qiziqishi va hayajonini torta boradi.

Qarama-qarshi tomonlarning bag'rida har ikki qutbning fazilatlariga xos so'zlarning ishlatilishi, sharq shoirlarining go'zal she'riy misollari, maqol, matallaridan foydalanishi munozaraning ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Yaqiniy Amiriydan farqli o'laroq, o'zining haqgo'ylik, rostlik simvoli bo'lgan o'qda ekanini ochiq namoyish etadi. Ko'ramizki, Yaqiniy o'z davrining ilg'or fikrli farzandi sifatida zamonasida hukm surayotgan zulm-zo'ravonlik, adolatsizlikka befarq qarab tura olmay, uni o'zining so'z borayotgan asarida qattiq

qoralaydi. Asardagi mazkur tema va g'oya orqali Temuriylarning yurgizayotgan siyosati ochik, zo'ravonlik ekanini tasvirlashi avtorning naqadar jasoratli shaxs bo'lganidan darak beradi. SHuningdek, uning o'q kabi rost gapirganlarning o'zidek yiroqda tushishini aytib o'tishi ham buning yorqin dalilidir.

Yaqiniyning ushbu asari o'zining originalligi, go'zal badiiy ifodasi bilan Amiriy yaratgan nasriy munozara janrini yanada rivojlantirdi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek nasrining biz ko'rib o'tgan ushbu namunalari o'zbek nasri tarixida muhim bosqich bo'ldi. Bu davrdagi nasr janri o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tdi. U avvalo eng qadimiy va o'lmas xalq og'zaki ijodi, qo'shni xalqlar adabiyoti bilan aloqa va shuningdek, o'zining yozma adabiyoti zaminida vujudga kelib taraqqiy etdi. Yaratilgan nasr yodgorliklari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, mafkurasini badiiy aks ettirishda nihoyatda qimmatlidir. «Qisasi Rabg'uziy», «Bang va Chog'ir orasinda munozara», «O'q va yoy orasinda munozara» kabi asarlar nasr janrining va o'sha davrlar o'zbek adabiy tilining go'zal namunalari sifatida o'zbek adabiyoti tarixida katta ahamiyatga egadir. Chunonchi ushbu asarlarda nasrning muhim momentlari — syujetning berilishi, bayon etilayotgan voqealarning iz-chilligi, tugallanganligi, mufassallik, personajlar xarakter va portretniy yaratish, konflikt, echim, shuningdek, munozara-lardagi simvolik obrazlar yaratishda bevosita davr va muhit tsnyofasidan kelib chiqish, asarlarni o'quvchilarga o'z davrining oddiy tilida etkazish, ayniqsa xalq kitoblariga xos «roviyda andor aytibdurki», «naql borki» kabi jumalardan foydalanish kabi xususiyatlari o'zining go'zal ifodasini toptan. Bu nasriy asarlarning XV asr ikkinchi yarmi prozasining rivojiga zamni bo'lgani shubasizdir.

ALISHER NAVOIY BADIY NASRI

REJA:

1. Alisher Navoiy nasri poetikasi.
2. Navoiyning ilmiy-filologik xaraterdagi nasriy asarlari.
3. Memuar-biografik nasriy asarlar tahlili.
4. Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va didaktik xarakterdagi nasriy asarlari.
5. Adibning tarix, tasavvuf va din tarixiga oid nasriy asarlari

ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbek nasri tarixidan.-T.,1982.
- 2.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar tuplami.20 jildlik.-T.. 1987-1992.
- 3.O'zbek adabiyoti tarixi besh tomlik 2 - tom T., "Fan"19

Tayanch tushunchalar

1. "Muhokamatul-lug'atayn"
2. «Mezonul-avzon»
3. «Risoi mufradot»
4. «Majolisun-nafois»

5. «Hamsatul-muttaxayyirin»
6. «Holoti Sayyid Xasan Ardasher»
7. «Holoti Pahlavon Muhammad»
8. «Tarixi muluki ajam»
9. «Nasoyimul-muhabbat»
10. «Tarixi anbiyo va hukamo»
11. «Vaqfiya»

Alisher Navoiyning ilmiy-filologik xarakterdagi nasriy asarlari («Muhokamatul-lugʻatayn», «Mezonul-avzon», «Risolai mufradot», «Majolisun-nafois»).

Memuar-biografik xarakterdagi asarlar («Hamsatul-muttaxayyirin», «Xoloti Sayyid Xasan Ardasher», «Xoloti Paxlavon Muhammad»)

Ijtimoiy-siyosiy va didaktik xarakterdagi asar («Mahbubul-qulub»).

1. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlari («Tarixi muluki ajam», «Nasoyimul-muhabbat», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Vaqfiya»).

XV asrning ikkinchi yarmida oʻzbek adabiyoti oʻz taraqqiyotining oʻtmishdagi eng yuksak pogʻonasiga koʻtarildi. Bu yuksalish asos eʼtibori bilan ulugʻ shoir va adib, ajoyib mutafakkir va olim, davlat arbobi va madaniyat homiysi Alisher Navoiy nomi bilan bogʻlangan edi. Oʻzbek adabiyotida sheʼriyatning «Xamsa» va «Xazoyinul-maoniyy» kabi jahonshumul namunalari yaratildi, oʻzbek adabiy tili shakllandi. Bu davrda fan, sanʼat, adabiyot va umuman madaniyatning rivojlanishi uchun xususan Xuroson davlatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar tufayli nisbatan qulay sharoitlar yuzaga keldi. Natijada oʻzbek va fors-tojik adabiyotlari oʻrtasidagi hamkorlik yanada mustaxkamlanib, oʻzining ijobiy samalarini berdi, ikki adabiyotda ham xalqchilik gʻoyalari bilan sugʻorilgan koʻplab sheʼriy va nasriy asarlar yuzaga keldi.

Bu davr oʻzbek adabiyoti taraqqiyotida nazm bilan bir qatorda nasrning ham oʻrni katta boʻlib, oʻtmishda hech bir ijodkor Navoiychalik koʻp miqdorda rang-barang janrlarda nasriy asarlar yaratmadi. Bizga bu davrda mazkur saltanat hukmdori Husayn Boyqaroning oʻz davri siyosiy va madaniy hayoti haqida oʻzbek tilida bir nasriy risola yozganligi maʼlum. Bu risola 1485 yili, yaʼni Navoi oʻz «Xamsa» sini yozib tugatgan yili yozilgan boʻlib, unda muallif oʻz hukmdorligi davrida koʻplab shoir va olimlar etishganiga, fan va madaniyat ilgarigiga nisbatan rivojlanganiga, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiydek ulugʻ soʻz ustalari uning davrida qalam tebratib, badiiyat moʻʼjizalarini yaratganiga shukronalar bildiradi. Bu risolada Navoi haqida shunday soʻzlarni oʻqish mumkin: «Xar sinf maydonigakim takovar surdi, ul kishvarni tigi zabon bila oʻz hatti tasarrufiga kivurdi. Aning nazmi vasfida til tsosir va ojiz turur». Xusayn Boyqaro risolasi oʻsha davr oʻzbek prozasining oʻziga xos namunalaridan xisoblanishi mumkin.

Alisher Navoi nasriy asarlarini yaratar ekan, oʻzigacha boʻlgan va oʻz davridagi sharq prozasining zng yaxshi xususiyatlarini oʻzlashtirib, oʻz ona tilida shunday asarlar yaratishga, ulardagi ilgʻor traditsiyalarni yangi zaminda yanada rivojlantirishga, alohida ahamiyat bilan qaradi. Binobarin, Navoi nasriy asarlarining yaratilishida Avfiy, Nizomiy Aroʻziy, Saʼdiy va Jomiy kabi fors-tojik adabiyotidagi nasrning taniqli ijodkorlari-ning maʼlum taʼsiri va roli bor. Ayni

chokda, o'sha davrdagi turkiy tilda badiiy adabiyotning forsiy tilidagiga nisbatan sust rivoji, qadimiy o'zbek tili mavqeining quyi ekanligi, o'zbek tilida nasriy asarlarning nihoyatda kam yaratilgani va X. k. lar Navoiydek ulkan san'atkor uchun shunchaki masalalar sirasida turmas edi, albatta. Natijada Navoiy ijodida ham, o'zbek nasri tarixida ham mustasno ahamiyatga molik bulgan 13 nom va turli janrdagi asarlar maydonga keldi.

Avvalo shuni alohida qayd qilib o'tish zarurki, Navoiyning nasriy asarlari orasida sof badiiy nasr namunasi sifatida qaralishi mumkin bo'lgan asar kam. Lekin badiiy nasrga juda yaqin turgan, badiiy nasr elementlariga nihoyatda boy bo'lgan asarlari oz emas.

1. Navoiyning ilmiy-filologik xarakterdagi nasriy asarlari «Muhokamatul-lug'atayn», «Mezonul-avzon», «Risolai mufradot» (fors tilida yozilgan), «Majolisun-nafois»larni XV asr ikkinchi yarmida yaratilgan ilmiy va ma'lum shartli ma'nodagi badiiy nasrning ajoyib namunasi deyish mumkin. Bu asarlarda voqelikni bevosita aks ettirish, sezilarli va realistik elementlardan yorqinroq (bu ma'noda «Majolisun-nafois» alohida ajralib turadi) foydalanish ko'zga tashlanadi.

Garchi «Muhokamatul-lug'atayn»da til va tafakkur, qadimiy o'zbek va fors tillarining o'ziga xos jihatlari, o'zbek tilining so'z boyligi, fonetik va uslubiy xususiyatlari, o'zbek tili va forsiy tili qator masalalarining qiyosiy tahlili kabi davr uchun ulkan ahamiyatga molik bo'lgan nazariy va amaliy masalalar hal etilsa-da, Navoiy asarda o'rta tashlanayotgan masalani dalillab berishda til bilan adabiyot masalalarini bir butun yaxlitlikda olib, ularning bir-biriga bog'liq qirralarini tahlil etishda tarixiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liq holda badiiyat elementlaridan keng foydalanadi. Natijada o'quvchi muallifning asardan kuzatgan bosh ilmiy niyati qatorida uning ijodiy merosining qadimgi o'zbek va fors tillarida yaratilgan adabiyotlardagi boy an'analar zaminida yuzaga kelganini, forsiy tilida yaratilgan adabiyotning boy yutuqlariga berilgan haqqoniy baholarni bilib oladi.

Navoiy o'z ijod va faoliyatining asl qimmatini, xalq va Vatan qarshisidagi o'z burchini juda aniq va yaxshi idrok etgan haqida shu asarida quyidagilarni yozgan edi: «...dono hakam adolat yuzidan ko'z solsa va burungi forsiy va so'nggi turkiy latoyif va dakryikidin bahra olsa... Har qaysining martabasini ta'yin qilur avonida umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin kuyi inmagay va bu tarkibim kav-kabasi a'lo darajadin o'zga erni beganmagay». Bu nasrda keng qo'llaniladigan «faxriya» usulidagi parcha g'oyat Hayotiy bo'lib, real zaminta egaki, shunday fikrlar Navoiyning ilmiy prozasida ko'plab uchraydi.

«Mezonul-avzon» va «Risolai mufradot»lar aruz nazariyasi va bu nazariyani o'zbek she'riyati asosida to'ldirishga, turkiy (qadimiy o'zbek) poeziyaning formal qoidalarini umumlashtirishga, muammo san'ati va uni tuzish hamda echish usullarini barcha mavjud qo'llanmalardan farqli holda qat'iy tartib bilan ifodalashga bag'ishlangan ilmiy asarlar bo'lganidan, ularda nasrda yozilgan ismlar ozdir. Lekin ana shu borlari ham Navoiyning nasrdagi kamolotidan darak berib, uning ma'lum g'oya, mazmunni ifodalash, dalillashda mantiqiy izchillik, uslubiy yorqinlikka to'la erishganligini ko'rsatadi.

Navoiyning shu turkumdagi asarlaridan «Majolisun-nafois» alohida ajralib turadi. Bu birinchi navbatda asarda nasrga xos badiiy komponentlardan keng istifoda etishda, hayotiy tasvir, portret chizish, hatto xarakter yaratish, badiiy epizod, lavhalar berishda yaqqol ko`rinadi. Ma`lumki, «Majolis un-nafois»ning Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlaridagi o`rni, undagi satirik va yumoristik xarakteristika, epizod, lavha, tasvirlar, bu asarning forschaga tarjimalari, olimlar tomonidan puxta o`rganilgan, tazkiraning umumiy tahlili va boshqa tazkiralar bilan qiyosiy tahlili yaratilgan. Bu o`rinda «Majolis»da ko`tarilgan qator-qator masalalarni talqin etishda, o`zining gumanistik qarashlari va yuksak badiiy zakosi tufayli bu an`anaviy janrni yangi taraqqiyot bosqichiga ko`targani, tazkiradagi nasriy maqolalarning haqqoniy tasavvur yaratib berishi va bunga erishishdagi muallif mahorati haqida alohida to`xtalib o`tish joyiz ko`rinadi.

Masalan, tazkiradagi Hofiz Sharbatiy degan shoirga bag`ishlangan maqolada uning odamivash, odobli shaxs va yaxshi qobiliyat egasi, xushxat, hofiz va mohir bastakor ekanligi ta`kidlanadi. Sungra uning hayotidan quyidagi mazmunda bir kichik lavha keltiriladi. Kunlarning birida Abulqosim Bobir mirzo shahar muftisi rindvash Mavlonozodai Abxariy bilan may ichib sarxush holda kelayotganida Xofiz Sharbatiy uchratadi va undan ushbu holatga muvofiq bir bayt to`qishni taklif etadi. Hofiz SHarbatiy shunday bayt o`qiydi:

Dar davri podshohi atobaxshu churmpo`sh,

Hofiz arobakash shudu mufti piyolano`sh

(«Ya`ni -muruvvatli gunoh ishlarni yopib ketuvchi podshoh davrida Xofiz soqiy bo`ldi-yu, muftiy mayxo`r bo`ldi).

Bu voqea Xofiz Sharbatiyning iste`dod qirralari shaxsiyati (beg`uborligi, quvnoqligi, hozirjavobligi), ijodi haqida g`oyat qisqa, ayni choqda yaxlit tasavvur beradi. Navoiy o`zining portret chizish va xarakter yaratish mahoratini yaqqol namoyish qiladi.

Yana bir misol: Mavlono Osafiyning ta`rif qilgulik qobiliyati bor, hofizasi ham juda baquvvat. Lekin u o`z qobiliyati va hofizasini ishga solmaydi. Chapanilik, bezorilik, o`jarlik va oliftagarchilik bilan vaqtini behuda o`tkazib yuradi. Navoiyning ta`kidlashicha, shoirning aytilganlardan boshqa ham xunuk sifatlari va nojo`ya ishlari ko`p. Bularning ustiga u yana mutlaqo pand-nasihatlariga quloq osmaydi. SHuning uchun ham u «bag`oyat parishondur». Ammo har ikki tilda forsiy va turkiyda yaxshi she`rlari bor.

Tazkiradagi bu maqola ham o`tkir iste`dod egasi bo`laturib, o`z vaqtini bema`niliklarga sarf qiluvchi shoirning ijtimoiy va ma`naviy qiyofasi haqida, bir so`z bilan aytganda, obrazi, xakteri haqida aniq tasavvur yaratadi.

«Majolisun-nafois»da aniq hayotdan olingan jonli voqealar xaqidagi badiiy lavhalar ham mavjud. Masalan, shoir Ayoziyga bag`ishlangan maqolada keltirilishicha, Puli molon degan joyda qurilgan bir she`riyat majlisida bu shoir, ya`ni Ayoziy o`zining bir qasidasini o`qib beradi. U qaysi baytni boshlasa, Navoiy uning so`z uslubiga qarab qofiyasini oldindan aytib beraveradi. Uch yildan keyin xuddi shunday voqea bog`i Safidda qaytariladi. Ko`zi zaif bo`lgan shoirdan bunaqa yigitni oldin ham ko`rganmidingiz, deb so`raganlarida: «...Magar uch yil mundin

burunroq, Puli Molonda bir yigit «urdum, ul ham bu nav`shu`badabozliq qildi», deb javob beradi.

Bu lavha, bir tomondan, adabiy faoliyat faqat shaxsiy ijod, tor poetik doirada emas, balki ko`p odamlar orasida — bozor, ko`cha, maydonlarda, saroydagi majlislarda, boshqacha qilib aytganda, katta auditoriyalarda, ko`pchilik ishtirokidagi yig`ilishlarda ijodiy jarayonga aylanganidan dalolat bersa, ikkinchi tarafdin, bu davr adabiyotida badiiy jihatdan jo`ngina bitilgan asarlar ham ko`plab yaratilib turganligini ko`rsatadi.

«Majolisun-nafois»ni badiiy prozaga yaqinlashtiradigan lahzalar juda ko`p bo`lib, quyidagi ikki hikoyat shular jumlasidandir. Bu voqeiy hikoyatlar butunligicha Sulton Husayn Boyqaro she`riyati tahliliga bag`ishlangan sakkizinchi majlis so`ngida ijodkorning «g`ayri nazm latofiyi»ga misol qilib berilgandir. Birinchi hikoyatda Xusrav Dehlaviyning hindcha yozilgan bir g`azalining ma`nosi (bahor chog`ida qalin yomg`ir yogib turganida qayoqqadir ketayotgan bir mahbuba loyda toyilib yiqila yozadi, shunda u «nihoyat nozukligidan yog`in rishtasi madadi bila» o`zini o`nglab oladi) ustida so`z ketadi. Lutfiy, Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqa ko`p shoirlar orasida «bu g`arib ma`no» muhokama qilinadi. Hamma Xusrav Dehlaviyning poetik zakosiga tahsin o`qiydi. Ammo Husayn Boyqaro g`azaldagi o`xshatishlar naqadar nodir va nozik bo`lmasin, ularning hayotiy emasligi, yog`in rishtasi detalining mantiqiy emasligi (chunki yomg`ir yuqoridan pastga oqib tushishi-da yiqilayotgan odamga madad bo`la olmasligi)ga e`tiroz bildiradi va o`zi mantiqan e`tiroz uyg`otmaydigan «quyidagi baytni bitadi:

Za`fdin kulbamda kupmoq istasam aylar madad,
Ankabute rishta osqon bo`lsa har devorra.

Navoiy bularni izchillik va ehtiros bilan bayon etadiki, natijada lavha she`riy ijod namunasining ma`naviy o`tkir, badiiy jihatdan puxta, pishiq bo`lishligi haqida voqeiy hikoyadek o`qiladi.

Ikkinchi hikoyat mazmuni shunday: Hisordan kelgan Qabuliy ismli yosh shoir o`z g`azallaridan birini Navoiyga olib keladi. G`azalning «ham bo`lmadi» deb qofiyalangan bayti Navoiyga ma`qul tushmaydi. Navoiy e`tiroziga javoban shoir «men xili tashvish g`oritim, yaxshi bog`lay olmadim. Albatta, bu qofiyani siz bog`lang», deya iltimos qiladi. SHunda Navoiy quyidagi baytni bitadi:

Sarv moyil bo`ldikim, o`pgay ayog`ing tuprog`in,
Yo`qsa har soat tahrکیدin xam bo`lmadi.

Qabuliy o`z g`azaliga bu baytni kiritib «Oliy majlis» (taniqli shoirlar, mashhur ilm-fan, madaniyat arboblari ishtirok etadigan Husayn Boyqaro huzuridagi anjuman)ga yuboradi. G`azalni o`qib chiqqan Husayn Boyqaro uning tarkibidagi yuqorida keltirilgan baytni Qabuliy she`riyatiga o`xshatmay, uni Navoiy qalamiga mansubligini aytadi. Navoiydan bu haqda so`ralganda, u bo`lgan voqeani aytishdan iymnadi, lekin inkor ham qila olmaydi. Majlis ahli orasida «aning bila bu bobda mutoyiba» qilish uchun Qabuliyini topib keladilar. Lekin Husayn Boyqaro so`zni Qabuliy g`azalini maqtashdan boshlaydi. So`ngra suhbat boshqa mavzularga ko`chadi. Hamma tarqalib eng yaqin mahramlar qolganida kimdir, Qabuliy she`ri yuzasidan mutoyiba qilinmadi, unutildimi?— deb so`raydi. Husayn Boyqaro: «unutilmadi, ammo u so`z zikrida anga uyat bo`lur

erdi, tila-madukki, g'arib yigit majlis orasida uyaltig' bo'lgay, ul sababdin aning she'ri va ul bayt bobida so'z deyilmadi»,— deb javob qiladi.

Bu hikoyatdagi voqea dinamik tarzda rivojlanadi. Uning davomini o'quvchi zur hayajon bilan kutadi. Hikoyatda voqea rivojidagi asosiy nuqta — g'azalning bir bayti badiiy detal darajasida berilgan bo'lib, muallif tomonidan mohirlik bilan yaratilgan psixologik holat tasviriga bevosita aloqadordir. Voqea echimini esa Navoiy hikoyatdagi asosiy personaj Husayn Boyqaroning yuqorida keltirilgan nutqi orqali beradi. Hikoyatda badiiy uslubning personaj nutqi qatoridagi yana bir komponenti «ichki nutq» ham mavjud («Faqir mutaraddidkim, ta'rif bunyod bo'ldi, anga ajab sharmandalig' bo'lg'usidir va faqirga andin ortug'roq»). Bu o'rindagi «ichki nutq» ham ma'lum vazifani o'taydi. U orqali Navoiy o'zining dramatik holatini, shoir mazax qilingudek bo'lsa, bunga o'zini aybdor deb bilishini ifoda etadi.

Ikkala hikoyat ham asos e'tibori bilan Husayn Boyqaroning poetik didi, odamshavanda fazilatini ochib berishga qaratilgani uchun, unda taqozo qilingan o'rinlarda madh san'ati istisno etilsa, bu hikoyatlarni g'oyat realistik ruhda yozilgan kichik janrdagi badiiy nasr namunasi deyish mumkin.

2. Memuar-biografik xarakterdagi asarlar. Bu turkumga Navoiyning «Hamsatul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» nomli asarlari kiradi. Alisher Navoiy ularda o'z zamonasining madaniy hayotida ulkan o'rin o'ynagan mashhur fan va madaniyat arboblari, unga eng yaqin bo'lgan kishilar — ustoz va murabbiylari, hamfikir, maslakdosh do'stlari — Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan va Pahlavon Muhammadlarning ma'lum darajada ijodiy va ijtimoiy biografiyalarini yaratib, ular bilan o'zining har sohadagi ham-korligi, muloqotlarini ishonarli misollar, hayotiy lavhalarga asoslanib bayon etadi.

Mazmunan bu uchchala asar bir sathda turadi. Lekin ularning umumiy jihatlari bilan birga juda xarakterli o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

«Holoti Sayyid Hasan» bilan «Holoti Pahlavon Muhammad» bir-biriga juda yaqin asarlardir. Navoiy SHarq adabiyotida qadimgi an'anaga ega bo'lgan «manoqib»lar janridan ham tamomila ijodiy foydalanadi. Navoiy o'z asarlaridan tubdan farqli o'laroq, ilohiylashtirilgan, real borliqdan tamomila uzilgan avliyo yoki din arboblarning sarguzasht, mo'jiza va karomatlari haqida emas, balki zamonning madaniy hayotida faol ishtirok etgan, ijobiy o'rin o'ynagan haqqoniy shaxslar ijodi va faoliyati haqida yozadi.

Bu asarlarda badiiy nasrning ilk belgilovchi elementlari mavjud bo'lib, u ayniqsa Navoiyning badiiy portret yaratish mahoratida namoyon bo'ladi. Navoiy Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad obrazi, xarakterining ichki mohiyatini psixologik asosda ochib beradi. Bu ikkala shaxs muallif talqinida haqiqiy hayotdagi voqealarga faol munosabatda bo'lgan, o'zining hayoti va dunyoqarashida qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarga yo'l qo'ygan, o'z shaxsiyati va badiiy faoliyatida qator-qator fazilatlar, afzalliklarga ega bo'lgan yorqin siymolarning umumlashtiruvchi obrazi darajasiga ko'tariladi. Navoiy «ko'proq zamonning tab' va fazl axliga foyiq va sarafroz» bo'lgan har ikkala qahramonining ma'naviy dunyosini atroflicha ochib berishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy avvalo ularning insoniy fazilatlarini, har sohada bilimdon ekanliklarini alohida ko'rsatib, ma'naviy qiyofalarini, tabiatlarini ochib beradigan xususiyatlarini xarakterli misollar, maroqli lavhalar bilan asoslab, dalillab beradi. Buni Navoiy katta badiiy san'atkorlik bilan bajaradi. U, masalan, Sayyid Hasanining ilg'or fikrliligidan dalolat beruvchi shunday lavhani keltiradi. Rindona o'tirishlardan birida fozillar o'rtasida narsa — buyumlarning bir-biridan farqi haqida so'z ketadi. Majlisda ishtirok etayotganlardan biri quyidagi baytni o'qiydi:

La'l sangastu degi sangin sang,
Lek andar miyon tafovut hast.

(Mazmuni: La'l toshdir va tosh qozon ham tosh. Lekin ular orasida farq bor).

Sayyid Hasan juda qoyil qolib deydiki, tosh qozonda turli taomlar pishadi va barcha undan bahramand bo'ladi, la'l-javohirdan esa xaloyiqqa turli balolar keladi.

Navoiy Sayyid Hasanining bu hayajonli fikri xuddi o'sha kez-larda shoh Abusaidning kimdagi javohir bo'lsa tortib olayotgani, bo'lmasa, hammani bezovta qilib, axtarib, elga qattiq zulm o'tkazayotganiga ochiq ishora sifatida tushunilganini izohlab o'tadi.

Pahlavon Muhammad xarakteridagi hazil-mutoyibaga moyillik xususiyatini ham Navoiy ajoyib bir hayotiy lavha orqali ochib beradi: Kunlardan birida Pahlavon muolaja yo'lida Navoiyni uqalab turib, suhbat quyuqlashib ketadi. Navoiy o'sha kuni tongda:

Har qayon boqsam ko'zimga u quyoshdin nur erur,

Har sori qilsam nazar ul oy manga manzur erur,—

deb boshlanadigan bir g'azal yozib, cho'ntagiga solib qo'ygan edi. Paxlavon Navoiydan: «Turkiguy shoirlar orasida seni bebadal deydilar, sen o'zing kimni ma'qulroq ko'rasan?»— deb so'raydi. Navoiy: «Hammadan Lutfiy yaxshi»,— deganida, Pahlavon: «Hega -Sayyid Nasimiy demading?»— deb so'raydi. Navoiy bu haqda o'z mulohazalarini quyidagicha bayon etib, «xotirga kelmadi va bar taqdir kelmoq, Sayyid Nasimiyning nazmi o'zga rang tushubdur, zoxir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g'arazing majoz tariqida aytur el erdi»,— deydi. Pahlavon ham shu yuzasidan bir necha so'z aytgach, tongda Navoiy yozib cho'ntagiga solib qo'ygan g'azalni bildirmasdan uning cho'ntagidan olib boshdan-oxirigacha o'qib, darhol yodlab oladi va g'azalni yana uning cho'ntagiga solib qo'yadi. Bir oz vaqt o'tgach u g'azalning oxirgi:

Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,

Yo'q ajab, nechukki xom etgan kishi ranjur erur,—

maqdaidagi «Navoiy» tahallusini Navoiyning g'ashiga tegish uchun «Nasimiy» so'ziga o'zgartirib, yoddan o'sha g'azalni o'qiydi.

Navoiy nihoyat darajada taajjublanadi va sezdirmasdan cho'ntagiga qo'l solib, she'r qo'yilgan joyda turganligiga ishonch hosil qiladi. Bundan so'ng yanada hayron qoladi. Navoiy bu ishning tagiga etmoqchi bo'lib, hozir o'qib bergan she'rni Pahlavon qachon yod tutganini surishtiradi. Paxlavon, bundan o'n ikki yilcha bo'lgan. Abulqosim Bobir majlislarida bu she'r o'qilib turardi, men uni

yoqtirib, yodlab olgan edim,— deb javob beradi. ertasiga Navoiyni g'oyat band etgan bu voqea yuzasidan yana so'z ketadi. Paxlavon aytganlarining isboti uchun shogird polvonlarga ham bu she'rni yod oldirtiradi va Navoiy huzurida ularga ham o'sha g'azalni yod o'qittiradi. SHoirning taajjubi ortadi, chunki u o'z she'rini hech kimga ko'rsatmagan, o'qib ham bermagan edi. Oxiri Pahlavon Navoiyga bo'lgan voqeani o'zi gapirib beradi.

Bu lavha, Navoiyning ta'kidlashicha, Pahlavonning “zehn va zakosi latofatidin va hofizasi tezligi va zarofatidin» dalolat berar edi.

Ikkala asarda ham Navoiy o'z qaxramonlarining yumshoq ko'ngilli, kamsuxan va dardli so'z yoki nazm va kuydan cheksiz ta'sirlanadigan tabiat egasi bo'lganliklarini alohida qayd qilib o'tadi. Sayyid Hasan va Pahlavon Muhammadning yuqoridagi fazilatlari, ayniqsa, yoqimli fe'l-atvori ularni katta va kichik, yaxshi va yomon qoshida aziz va muhtaram qilgan ediki, buni Navoiy chuqur samimiyat bilan qalamga oladi.

SHunday qilib, har ikkala «Holot»da ham Navoiy Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadlar siymosida teran va o'ziga xos xarakterlarni, etuk shaxslar obrazini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Bunga erishishda muallifning o'z qahramonlariga bo'lgan rag'bat, hurmat-muhabbati aslo xalal bermaydi. Aksincha, bular bayonga shunday ajib bir dilrabolik bag'ishlaydi, natijada asarlarning yana bir spetsifik badiiy xususiyati — muallifning qarama-qarshiliklar, fojiali voqea va ku-rashlarga to'la bo'lgan murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan bu ikki ulkan siymolarga munosabatini ruy-rost va aniq belgilash mumkin bo'ladi.

Har bir «Holot» qahramonining atroflicha tasviri, voqealar tafsili, bayon uslubining ravon va tilining aniq va soddaligi, ayrim tarqoq ma'lumot va detallarni yagona maqsadni yanada chuqur ochib berishga bo'ysundirib tasvirlash va h. k. lar butun bir yaxlitligi bilan bu ikki nasriy asarning o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Garchi asos e'tibori bilan yuqorndagi asarlarida bo'lganidek, «Hamsatul-mutahayyirin»da Navoiy o'zining eng yaqin do'sti, ustoz va maslakdoshi Abdurahmon Jomiyning yorqin obrazini yaratishni bosh maqsad qilib olgan bo'lsa-da, bu asar birmuncha o'zgacha yo'nalishda yozilgandir.

Buning sababi, eng avvalo, Jomiyning davrning eng katta obro'li va eng bilimdon madaniyat arboblariidan bo'lganligida hamda uning ijodkor olim sifatida adabiyot nazariyasi, tilshunoslik, tarix, falsafa, musiqa ilmida ko'p ishlar yaratganligida, komil san'atkor sifatida ilg'or fikrlarni, insonparvarlik g'oyalarini, go'zal insoniy fazilatlarni tarannum etganligida, ayni choqda, butun O'rta va YAqin SHarqda keng tarqalgan tasavvuf bilan ham yaqindan bog'langanligidadir. Binobarin, Jomiy haqida asar yozishga kirishgan ijodkor bularni izohlash, munosabat bildirishga, o'zi bilan bu ulkan shaxs orasidagi muloqotlarning eng xarakterli tomonlarini ochib berishga burchli edi. SHuning uchun ham hajman, ham mazmunan, ham kompozitsiya jihatidan ancha farq qiluvchi bu asar maydonga keldi.

«Hamsatul-mutaxayyirin» («Hayratga tushganlar beshligi» — asar nomi uning tuzilishi va mundarijasiga ishora qiladi) 1494 yilda yozilgan bo'lib, bir muqaddima, uch maqola va bir xotimadan tarkib topgandir.

eng avvalo, shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki, Navoiy bu asarida ham badiiy yaxlitlik, kompozitsion etuklik va uslubiy ixchamlikka to'la erishgan.

Navoiy o'zi bilan Jomiy oralarida bo'lib o'tgan qiziq va tasodifiy voqealar bayoniga bag'ishlangan asarning birinchi maqoloti tarkibidagi 13-lavhada Jomiyning ma'naviy va ijtimoiy qiyofasini ochib beruvchi turli voqealar va shu voqealar munosabatida u bildirgan mulohaza va maslahatlari, uning hazil-mutoyibaga moyilligini ko'rsatuvchi maroqli naqlar va turli adabiy mavzularda o'tkazilgan suhbatlar beriladiki, ularni voqeiy hikoyalarning etuk namunasi deyish mumkin. Ayniqsa, ba-diiyat masalalari, ijodkor burchi haqidagi, chunonchi, Jomiyning «safed shud chu daraxti shukufador sare» — deb boshlanadigan «qarilik» qasidasi, Xoja Hasan Dehlaviyning «Misoli qatrai boron sirishki man hama durr shud» misrai, Ahmad Husayn marsiyasi borasidagi, Sog'ariyning shoirlik rutbasi xususidagi bahs, munozara, mutoyibalari g'oyat jonli, real tasvir etiladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Navoiy voqealarning, uchrashuv va suhbatlarling hammasini emas, balki Jomiyning ijodiy yoki ijtimoiy biografiyasining aniq bir qirrasini ko'rsatib beruvchi eng xarakterli tomonlarini qalamga oladi.

Masalan, u Jomiyning hayotdan ajralgan ijodkor bo'lmagan-digidan, balki uni mamlakatda ro'y berayotgan katta voqealar, saroy va saroydagilar hayoti, xulq-atvori juda yaqindan qiziqtirganligi hikoyalarda bayon etilgan. Navoiy sipohiylikdan — davlat xizmatidan bezor bo'lib mansabni tark qilganida Jomiy buning sababini so'raydi. Navoiy shunday javob beradi:

— Inson jinsi suhbat va ixtilotidin malul bo'lub erdim, bu ishga ul bois bo'ldi.

Jomiy g'oyat qisqa, lekin nihoyatda o'tkir, vaziyatga juda muvofiq tushadigan:

— Inson deb kimni xayol qilib erding, bizga dag'i ko'rguz? — degan savolni beradi. Bundan Navoiy o'zining qat'iy qarori Jomiyga «noxush kelmagan»ligini tushunib etadi.

Navoiy bilan Jomiy orasidagi bu suhbat, oldingi hikoyatda qayd qilinishicha, ustozning haj safaridan endigina qaytgan, SHohning esa Balx ustiga yurish qilib turgan vaqtida sodir bo'ladi. Buning ustiga Hirotga kelgandan keyin Jomiyga safar chog'ida turli shaharlar, jumladan Bag'doddagi chiqishlari uchun bid'atda ayblangani ovozasini etkazadilar. Jomiy bundan nihoyatda qattiq ranjiydi. Hech shubhasizki, bunday vaziyatda Jomiyning Navoiyga yuqoridagi aytgan g'oyat samimiy hamda nihoyatda tabiiy bo'lgan so'zlari dialog formasida berilgan badiiy lavhaning xulosasi sifatida keltirilgandir.

«Hamsatul-mutahayyirii»ning ikkinchi qismi — maqoloti Jomiy va Navoiyning o'zaro yozishmalariga bag'ishlanadi. Bu erda Jomiyning Navoiyga yo'llagan 15 nomasi va javob xatlari hamda Navoiyning ham Jomiyga yozgan 15 maktub va javoblari keltiriladi. Jomiy va Navoiyning bu nomalari, — xoh ular ikki shaxs orasidagi do'stona yozishmalar bo'lsin, xoh badiiy ijod hamda ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bog'liq ruq'alar bo'lsin, g'oyaviy-badiiy, ham sotsial-tarixiy

ahamiyatga molikdir. SHuningdek, ular SHarqda ancha keng rivoj topgan forsiy insho

san'ati tarixini o'rganish uchun ham muhimdir. Har bir maktubning yozilish tarixiga oid ,qaydlargina o'zbek tilida bitilgan bo'lib, xatlariing o'zi va unda keltirilgan she'riy parchalar forschada bitilgan, ba'zilarida esa Jomiyga mansub ta'kidlarni Navoiy o'zbekchalashtirib keltiradi.

Masalan, Navoiy yozadi: «Podshoh Qunduz viloyati azimatiga cherik otlangonda, alarning va hech kimning ul yurush dilxohi emas erdi, faqirra der erdilarkim: «Ulcha mumkin bor, bu yurishning man'iga sa'y «ilraysen va ul matlub surat boglamogay, azimat jazm bo'lsa, bizga bitib yiborgaysen».

Bu maktub Navoiy va Jomiyning o'sha davr uchun dolzarb, xalq manfaati uchun zaruriy masalalardan biri — harbiy yurishlarga munosabatlarini ko'rsatib beradi. Podshoxning Qunduz viloyatiga yurish qilmoqchi bo'lganidan xabardor bo'lgan Jomiy Navoiyni bu tadbirga yo'l qo'ymaslikka undaydi.

Bir qator boshqa xatlar esa (ham Jomiyning, ham Nazoiyning qalamiga mansub) nixoyatda murakkab tilda, dabdabali uslubda, saj' san'atidan keng istifoda etilgan holda bitilgan bo'lib, forsiy epistolyar janrning g'oyat xarakterli namunasidir.

«Hamsatul-mutahayyirin»ning xotima qismida Jomiy hayotida yuz bergan, lekin g'ayritabiiy tuyulgan bir necha naqlar keltiriladi. Masalan, kunlarning birida Jomiy va Navoiy Gozurgoxdan kelar ekanlar, doimo mast-alast bo'lib yuradigan Maxmud Habib otliq fosix bir devona duch kelib qoladi. yo'liqqan odamga ko'p bemaza gaplar otib, ta'nalar otuvchi bu odam Jomiy qarshisida ha deb uzrxohliklar bildirib, «odamiyona va xushmandona so'zlar» ayta boshlaydi. Navoiy ajablanib buning sababini surishtiradi. Ma'lum bo'lishicha, bu devona bir necha kun avval mast ahvolda Jomiyni ko'p beadab so'zlar, so'kishlar bilan «qattik, ranjitgan ekan. endi esa Jomiyni Navoiy yonida ko'rib, jazolanishdan qo'rqib shunday qilayotgan ekan. Bularni eshitgan Navoiy darhaqiqat devonani jazoga mahkum etmoqchi bo'ladi. Jomiy esa deydi:

— Ul o'z siyosatini topqusidir, sen hech nima dema.

Besh-o'n kundan so'ng ma'lum bo'lishicha, devonani o'ziga o'xshash yana bir bezori devona bo'zaxonada bo'ynini chopib o'ldiradi.

Bu naql Jomiyning zohirda o'zini shoir va mullodek tutib, botinda esa tasavvufdagi «malomatiya» nomli bir ta'limotga mansubiyatini izohlash uchun keltirilgan bo'lsa-da, lekin u Navoiy tomonidan shunday badiiy hikoyat darajasida. talqin etiladiki, natijada uning echimi hayotdagi oddiy tasodif asosiga qurilgandek anglashiladi.

Asardagi g'oyat maroqli kattagina nasriy parcha bu — Jomiy vafotining taflisotlarini hikoya qiluvchi xotima qismidir. Juda ta'sirli va nihoyatda hayotiy qilib yozilgan bu parchada keng xalq ommasini uchun ham, barcha adab ahli uchun ham katta yo'qotish, og'ir musibat bo'lgan Jomiyning vafoti va uning dafn marosimi hikoya qilinadi. Bayon g'oyat hayotiy bo'yoqlarda, salobatli ritmda, barcha katta va kichik hayotiy tafsilotlar o'rni-o'rnida beriladi, natijada ulkan ijodkor, kamtarin inson Jomiyga xalqning va yaqinlarining, jumladan, Navoiyning tutgan motami haqida to'la tasavvur yaratiladi.

SHunday qilib, Navoiy bu asarida Jomiyning ijodiy va ij-timoiy biografiyasini ma'lum yaxlitlikda yaratib beradi.. «Hamsatul-mutahayyirin» nasr namunasi sifatida sinkretik xarakterga zga asar bo'lib, unda Navoiyning ham ilmiy, ham insho san'ati hamda hikoyanavislik, badiiy lavhalar yaratish sohasidagi mahorati namoyish qilinadi. Bu asarda real insonning anchayin mukammal xakteri ochib beriladiki, bunda Navoiy juda ustalik bilan Jomiyga xos bo'lgan barcha ilg'or fazilatlarni ham, ziddiyatli, murakkab jihatlarni ham ko'rsata olgan. Aksar hollarda Navoiy bunga tavsifiy, ta'rifiy bayonchilik vositasida emas, balki xarakterli voqealar jarayonini ko'rsatish, go'zal, badiiy barkamol lavhalar bilan dalillash, talqin qilish orqali muvaffaq bo'ladi.

3. Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va didaktik xakterdagi «Maxbubul-qulub» asari uning ijodiyotida nasrning eng yorqin namunasi sanalib, unda badiiy nasrga xos xususiyatlaridan keng foydalanilgan.

Asarning yorqin ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan birinchi qismida feodal jamiyatida mavjud bo'lgan sotsial tabaqalarning har birini ana shu jamiyatda tutgan o'rni va vazifasi haqida so'z yuritilar ekan, odil va zolim, oqil va fozil vazirlar, yaxshi va yomon san'atkorlar, qalamkash ijodkorlar, riyokor din ahllari, navkar, sipox, va h. k. larning ijtimoiy portretlari chuqur mantiq, yuksak pafos hamda real tasviriy bo'yoqlarda yaratib beriladi. SHuning uchun har bir xarakteristikaga singdirilgan isyonkor publitsistik ruh va muallif tutgan insonparvarlik yo'nalishining izchilligi, bayonning badiiy serjiloligi, fikrning teran, til va uslubning lo'nda va ravonligi bilan birlashib ketib, Navoiyning nasriy mahoratini namoyon qiladi. Misol tariqasida asarning «Riyoyi shayxlar zikrida» degan maqolasini keltiramiz: «SHayxi riyoyi — ra'nolir jilvanamoyi. Misedur oltin bila rukash, tashi xushnamo va ichi noxush. Surati darveshvash va ma'nisi sarosar rash. Orastaliri barcha qayd va karomati tamom shayd. Amomasi riyosat yuki, boshida bir fosid xayol har tuki. egnidagi muraqqa' — rangomezlik. bila mulamma'. Ridosi uyubining pardadori va riyo charxi igirgan har tori. Misvoki tama' tishin elturga suhon, shonadoiida reshxand olati nihon. Muxraboqlik tasbihin evumak va uzunroq namozdin g'arazi el ko'rmak. Kulohi davlat ul davlatmandra dastor va uzunroq aloqasi tulku quyrug'idin namudor. Mahalsiz sayqasi bag'oyat sovuq, andoqki vaqtsiz un tortgan tovuq. Raflatdin avrodida alola, nechunkim mastlar bazmida «dirno talolo». Barcha kalimoti hiylaangez va majmu'i harakoti g'arazomez. Voqeasi bari yasalg'on, uyg'oqligida degani barcha yolg'on. Simoy usuldin tashqari, vajdu sa'qasi ta'rif ohangidin nari. Suratida muncha pech, dar pech, ma'nosi boshdin ayoq hech.

Bu xabis zotu muncha oroyish, pok eranlar holidin ancha namoyish. Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat! Turfa bukim, bu mazharra muridlar ham bor, xizmatida barcha sheftu beqaror. Ul bu do'konni yurutub tadbir bila va bu ma'rakani ko'rub tazvir bilakim, shayotinra mahalli hayratdur va devi lainra mujibi ibrat va nafratdur»...

Keltirilgan maqolada riyokor shayxning tashqi portreti va xakteri to'laonli qilib yaratiladiki, uni adabiyotshunos A. Abdug'afurov «Navoiy ijodidagi prozaik satiraning eng yaxshi namunasi» deb baholagani bejiz emas. Qo'shimcha tarzda aytish kerakki, Navoiygacha va Navoiy davridagi nasrda keng

qo'llanilgan saj' san'atining har uchchala turi bu erda g'oyat unumli ishlatilgan. Riyokor shayxlarning qabih kirdikorlarini, soxta va firibgarligini fosh etishda Navoiy shunday so'zlar, iboralar tanlaydi, aniq o'xshatishlar, sifatlashlar keltiradi va hatto nido san'atidan foydalaniladiki, natijada ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan g'oyat puxta, etuk nasr namunasi yaratiladi.

Asarning ikkinchi qismi tarkibidagi inson uchun yaxshi va yomon fe'l-atvor, xislatlar, bir so'z bilan aytganda, axloqiy qoidalar haqida bahs yurituvchi fasllar ham yukorida qayd etilganlar darajasida yozilgan. Lekin ta'kidlab o'tish lozimki, xuddi shu qismda Navoiyning o'z davri farzandi, aniq tarixiy sharoit, sotsial tuzum va siyosiy-iqtisodiy muhitning namoyandasi o'laroq, mazkur sabablarning ta'siri va tazyiqidan mutlaqo qutula olmagan yaqqol ko'rinadi. Buni «Tavba», «Zuhd», «Tavakkal», «3ikr» kabi fasl materiallari hamda ulardagi asosiy fikrni dalillash uchun keltirilgan hikoyatlar mazmunidan o'qib olish mumkin. SHunisi diqqatga sazovorki, Navoiy bu o'rinlardagi o'z tahlilida har bir inson uchun zararli xislatga uning «qutbiy aksi bo'lgan ijobiy fazilatlarni qarshi qo'yib so'z yuritadi va bunda qator-qator ilg'or fikrlarni maydonga tashlaydi.

«Mahbubul-qulub» ning uchinchi qismi turli-tuman foydali nasihat, hikmatlarni o'z ichiga oladi. Navoiy o'z tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan fazilatlarni targ'ib qilar ekan, bularni tushuntirish uchun «tanbeh»lar beradi, ularda esa o'ziga qadar ma'lum va mashhur bo'lgan xalq makol, matal va hikmatlarini va xulosalarini keltiradi (Alisher Navoiy. Asarlar. 13-tom, 34-bet. Abdurafurov A. Navoiy ijodida satira. Toshkent, 1972, 153-bet.)

«Mahbubul-qulub»ning bunday «tanbeh»larini o'zbek didaktik nasrining yorqin namunalari desaj xato bo'lmaydi.

Misol tariqasida quyidagi tanbehni keltiramiz:

«Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz. G'arzagoykim, ko'p takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat etkurur, o'z boshiga ham ofat etkurur. Nodoning muvaxdish harzaga burzin qirmori — eshakning jihatsiz qichqirmog'i. Xushgo'ykim, so'zni rifk. va musovo bila aytqay, ko'ngulga yuz ram keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytgay. So'zdadur har yaxshilikni imkoni bor, mundin debdurlarki, nafasning joni bor...

Makruheki, harzasi taviil va ovozi karixdur, o'zi savti bila qurbaqag'a shabihdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zuloliga manba' ham til, ahli shaqovatlar naxs kavkabira matla' ham til. Tiliga iktidorlir — kakimi xiradmand, so'ziga ixtiyorsiz — laimi najand. Tilki fasih va dilpazir bo'lgay — xubroq bulray agar ko'ngul bila bir bo'lgay.

Til va ko'ngul xo'broq a'zodurlar insonda, savsan va runcha marrubroq rayohindurlar bo'stonda. Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bulur va ham aning bila soyir insonga sarafroz bo'lur. Til muncha sharif bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur»...²⁹

Bu «tanbeh»da Navoiy tilning ahamiyati va nutq axloqi haqida fikr yuritadi. U o'z aqidalarini obrazli iboralar, o'xshatishlar bilan ifodalaydi. Tanbehda hozirgi o'quvchi uchun anglashilishi qiyin bo'lgan so'zlar ko'p uchraydi. Bu o'sha davrdagi adabiy til normalari bilan izohlanib Navoiy

prozasining tili aichagina murakkab ekanligini ko'rsatadi. Tan-behda (butun asarda bo'lgani kabi) istifoda etilgan saj' san'ati, undagi qofiyadosh yoki ohangdosh hamda teng hijoli so'zlardan foydalanish Navoiyning fikr, xulosalari va pand-nasihatlarining xalq orasida keng tarqalishi, xalq hikmatlariga aylanib mashhur bo'lib ketishini ta'minlagan omillardan biri (asosiysi, albatta, fikr, g'oyaning ilg'orligi, halqchilligidir) sifatida ahamiyatlidir.

«Mahbubul-qulub»ni badiiy nasrga yaqinlashtiradigan yana bir nuqtalardan biri — fikrni dalillash uchun keltirilgan hikoyatlardir. Navoiy ishq va uning qudrati haqida so'zlab quyidagi mazmunda hikoyat keltiradi: Bir odam bir go'zalni qattiq yaxshi ko'rib qoladi. SHuning uchun uni zindonga tashlaydilar. U erda va odamlar orasida unga chidab bo'lmas darajada azob beradilar. Lekin u o'z sevgilisi nomini aytmaydi. Oxiri noumid bo'lib tashlab ketadilar. SHunda yig'ilgan xaloyiq orasida hamma voqeani ko'rib turgan sevgilisi kelib, uning jarohatlariga malham qo'yadi, boshini silaydi. hikoyat quyidagi bayt bilan tugallanadi:

Kimki bir shiddat aro sabru tahammul ayladi,

Baxt aning nishini nushu xorini gul ayladi.

Bu hikoyatda muallif ustalik bilan o'z zamonasida sevgi toptalgani va jinoyat sanalganiga aniq ishora qilib, jiddiy e'tiroz bildirdi. Unda sevgan odamning ajoyib qahramonona va fidokorona obrazi yaratilgandir. Uning sabot va matonatli ekani tanga detali orqali ko'rsatib beriladi.

Oshiqni azob berib kaltaklayotganlarida u og'ziga tanga solib olib, uni qattiq tishlagan, toki og'riq tufayli ovoz chiqarmagay, mahbubi nomini aytib yubormagay. Hamma tarqalganda qarashsa, tish orasidagi tanga mayda-mayda bo'lib ketgani ma'lum bo'ladi. Umuman, sof insoniy sevgi, ulkan maqsadga erishish yulida izchil bulishlik, sabr-toqatlilik qanchalik qudratli va oqibatli ekanligi hikoyatda yorqin va ta'sirchan qilib ifo- dalangan.

Asardagi hikoyatlarning ba'zilar din, diniy e'tiqodlarning xukmron mavqei bilan aloqadordir. Navoiy tavba, zuxd, tavakkal, qanoat, sabr, tavoze' va adab, sharh, tavajjuh, rizo, ishq kabi mafhumlar haqida fikr yuritar zkan, davr mafkurasi doirasida qoladi. Lekin ba'zi masalalarda davr uchun anchagina ilg'or so'zlar aytadi.

«Mahbubul-qulub»ning badiiyati adibning unda ilgari surgan g'oyaviy niyatlari, ijtimoiy munosabati va ruhiy olami bilan mutlaqo bog'liqdir. SHuning uchun ham Navoiyning bu asaridagi badiiy obrazlar, vositalar, ma'naviy va lafziy san'atlar boshqa nasriy asarlaridan ajralib turadi.

5 – Mavzu: XYI asrdan keyingi davrlardagi badiiy nasr
ravnaqi (2 soat)

1. Boburning “Boburnoma” va Vosifiyning “Badoe'ul -vaqoe” asarlarida tarixiylik va badiiylikning uyg'unligi.
2. Nasr va xalqchillik.
3. “Latoyifuz - zaroyif” – tarjima nasr sifatida.

Tayanch tushunchalar.

1. “Boburnoma”

2. Vosifiy
3. “Badoe`ul – vaqoe”
4. “Latoyifuz – zaroyif”

“Boburnoma” asari maydonga kelganiga qadar o`zbek prozasida Rabg`uziy va Alisher Navoiylarning nasriy asarlari mavjud edi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning asarlari o`zbek ilmiy va didaktik nasrining rivojlantirishda katta o`rni bor. Ammo “Boburnoma” o`zining xususiyatlari bilan o`zbek prozasi tarixida o`ziga xos o`ringa ega.

XVI asrning boshlarida o`zbek va tojik tillarida “Tavorixi guzida – Nusratnoma”, “Shayboniynoma”, “Badoe`ul - vaqoe”, “Mehmonnomai Buxoro” kabi asarlar yaratildi. SHu asarlardan “Badoe`ul - vaqoe” asari “Boburnoma” asaridan keyin yaratilgandir. “Badoe`ul - vaqoe” asari muallifi Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485- 1566) avval Hirot, keyinchalik esa Movarounnahrda yashab ijod etgan.

Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoe`ul - vaqoe”si badiiy esdaliklar janriga mansub bo`lishi bilan Boburning “Boburnoma”si bilan bir tipdagi asar bo`lsa-da, ammo tasvir uslubi va mualliflarning tasvirlanayotgan voqealarga munosabati jihatidan, esdalikdagi badiiylilik jihatidan firq qiladi.

Vosifiy asarida realistik tasvir uslubi romantik tasvir uslubi bilan aralash mushohada qilingan. “Badoe`ul - vaqoe”da XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmidagi tarixiy voqealarning tasviri unga nisbatan uzoq yoki yaqin o`tmish voqealariga bag`ishlangan hikoyalar bilan boglanib ketadi. Bu hikoyalar esa sarguzashtlilik, tarixiylik yoki fantastik ruh bilan sug`orilgan bo`lib, badiiy tasvir jihatidan mohirona yozilgan. Unda voqealar tasvirida muallifning ularga bo`lgan ijobiy va salbiy munosabati ham sezilib turadi.

“Boburnoma”da voqealar xronologik tarzda bayon qilinishi bilan birga tarixiylik ham kuchli ifodalangan. Tarixiylikda haqqoniylik va badiiylilik o`zaro bog`lanib ketadi. Asarda Vosifiy asaridagiday turli xarakterdagi hikoyalar ko`rinmaydi. Bu esa bir xil janrga mansub asarlarning har biri ham muallifning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei, qalamga olinayotgan voqealarga munosabati nuqtai nazaridan rang-barang uslubda yozilganidan, har biri yangi badiiy olamga ega bo`lgan asarlardir.

“Boburnoma” voqealarni bayon etishdagi tafsiliyligi, muallifning ularga munosabatda bo`lishi, baho berishdagi haqqoniyligi, tarixiy shaxslar portretini chizishda haqqoniy bo`lishga intilishi, tabiat manzaralari va ash`yolarining tasvirlashdagi mahorati, tarixiy voqealarni qalamga olishdagi ilmiyligi va shuning bilan bir qatorda hamma holatda ham badiiylikka erishilganligi bilan farqlanadi.

“Boburnoma”da keltirilgan ma`lumotlar faqat tarixiy jihatdangina emas, balki boshqa fanlarga tegishli bo`lganligi bilan ham farqlanadi. Unda topografiya va toponimiya, zoologiya va ixtiologiya, geografiya va adabiyotshunoslik, tilshunoslik va etnografiya kabi fanlarga daxldor ma`lumotlarni olish mumkin. Ma`lumotlarning ahamiyati shudaki, ularning haqqoniyligi tufayli tarixchi o`sha davrdagi Movarounnahr, Xuroson va Hindiston tarixiga oid ma`lumotlarni topa oladi; geograf o`sha davrdagi mazkur o`lkalarning

topologiyasini, iqtisodiy geografiyasiga doir qimmatli manblarni ko`radi. Zoolog esa shu mamlakatdagi qushlar va hayvanlar dunyosini o`rganadi. Adabiyotshunos o`sha davr adabiy muhitini tekshiradi. Tilshunos o`zbek tili tirixi taraqqiyotini aniqlay oladi. etnograf bu joylarda yashaydigan xalqlarning urf- odatiga doir ma`lumotlarga duch keladi. Bular hammasi Bobur tilidan tasvirlanadi. Hayotning murakkab voqealarini ko`rgan, boshidan kechirgan bu shaxs hamma sharoitda ham insoniyligni, odamgarchilikni, kamtarlikni shior qilib oladi.

“Boburnoma”da tarixiy shaxslar portreti va psixologik

holatlari ham chiroyli tasvirlangan. Tarixiy shaxslar portretini chizishda Bobur haqqoniy bo`lishga harakat qilgan. Temuriyzodalarga bo`lgan munosabatida shuni ko`rish mumkin. Husayn Boyqaroning portretidagi jismoniy va ma`naviy holatni tasvirlash bilan birga hayotining so`nggi davrlarida katta siyosiy ishlarga layoqatsizligini ham aytib o`tadi. “Boburnoma”da Husayn Boyqaro haqida yozilgan ma`lumotlar bir joyda to`plansa shohning ko`p nuqtalarini ko`rish mumkin. Bir tomondan, nihoyatda kelishgan qad-qomatli, qiyiq ko`zli, kuchli qilichboz qo`llar sohibi; ikkinchidan, mag`rur, o`ziga bino qo`ygan shohni; uchinchidan, hayotining so`nggi davrlarida podshohlik lavozimini saqlay olmay aysh-ishratga berilgan shaxs siymosini ko`rish mumkin. Buning ustiga u qo`chqor va xo`roz urishtirishlarning muxlisi. Bobur amakisi Sulton Mahmud haqida shunday deydi: “Past bo`yluk, suyuq soqollik, tanbal, sinchisizroq kishi edi. Zulm va fisqqa ko`p mashg`ul edi. Muttasil chog`ir ichar edi. Cho`hra qilin saxlar edi... Bu shum fe`l aning zamonida andoq shoe` edikim, cho`hrasiz kishi aslo yo`q edi...Zulm va fisqining shomatidin o`g`lonlar tamom juvonmarg bo`ldilar...Bad e`tiqod kishi edi...Yuraksiz kishi edi...Hayosi kamroq edi...Badkalom edi...She`ri bisyor sust va bemaza edi.Andoqshe`r aytqondin aytmog`on yaxshiroqdur” (42-43).

Portretni muallif shu darajada mahorat bilan yozganki, o`qigan kishi hayratda qoladi. So`z va iboralarni o`z o`rnida mahorat bilan qo`llay olgan. SHaklu shamoyil tavsifi “past, suyuq” sifatlar bilan, ma`naviy xarakteristikasi esa, “zulm, fisq”, “bad e`tiqod”, “yuraksiz”, “hayosi kamroq”, “badkalom” kabi so`z va iboralardan to`lib ketgan. Bu so`zlar orqali Sulton Mahmudning mana men deb turgan tuban, razil va pastkash shaxs ekanligi ko`zga tashlanadi.

Ikkinchi xil portretlarga o`sha zamon ilmi va madaniyati arboblarning portretlari kiradi. Bunday shaxslarning obrazini yaratishda Bobur asosiy diqqatini ularning portreti detallariga qaratmaydi, balki qalam sohiblarining ijodiy portretini chizishga ko`proq mayl ko`rsatadi. Go`yo Bobur bunday shaxslarning asosiy fazilati tashqi ko`rinishlarida emas, balki ular yaratgan asarlarda deb ko`rsatishga harakat qiladi.

Bobur o`zining “Boburnoma”si bilan Navoiyning tazkirachilik faoliyatini davom ettirgan.U Navoiyning “Majolisun-nafois”ida tilga olingan juda ko`p shoir, san`atkorlarning ba`zilari haqida so`z yuritib, ularning XVI asr boshlaridagi ijodi to`g`risida yangi ma`lumotlar beradi. Boburning Muhammad Solih va SHayboniy haqidagi fikrlarini ko`rib chiqamiz. SHayboniy haqida “Har necha kuda bir bemaza bayt aytur edi”, deb yozadi. Agar biz SHayboniy she`rlariga bir nazar tashlasak, uning sultonlar hokimiyatini mustahkamlashga qaratilganligini

darrov payqab olamiz. Shoir dushmanlari – temuriy mirzolardan kulib, ularni masxaralaydi:

Muxolif Vaxshni qishlab tururda,
Urush bermay turar turmoq ichinda.
Cherikning gardini ko`rmay qochibtur,
Masaldur: “Qul qochar urmoq ichinda”.
Shayboniga berubtur nusratin haq,
Qovubmen Xusravi qipchoq ichinda.

Boburning yuqoridagi bahosi, albatta, shunday she`rlar asosida maydonga kelgan bo`lib, tendentsiozlik xarakterga egadir. Ikkinchi tomondan, Boburning Shayboniy ijodini tanqid qilishida qisman haqqoniylik ham mavjud. Chunki Shayboniy shoir sifatida o`zbek adabiyoti tarixida o`z ijodi bilan yangilik qo`sha olgan emas. Ana shuning uchun ham masalaning bu tomoni Bobur – adabiy tanqidchining badiiy ijod masalalariga jiddiy qaraganligidan darak beradi. Xuddi shunday holat Muhammad Solih ijodi haqidagi fikrlarida ham ko`rinadi. Muallif Muhammad Solihning g`azallari haqida umuman ijobiy munosabatda edi. Ikkinchi tomondan, Muhammad Solih mirzolardan nafratlanib, shayboniylar tomoniga o`tgan, ularni maqtab SHayboniynoma” asarini ham yaratgan. Masnaviyda shayboniylar va temuriylar kurashi natijasida qator shaharlarning vayronaga aylanishi, xalqning azob-uqubatda qolganligi shoirning istagidan tashqari holda o`z aksini topgan. SHoir SHayboniyning g`olib shoh ekanini tasvirlab, uni temuriylardan ustun qo`yishga intilgan. Bobur bu dostonning bir baytini ma`qullab, qolgan qismini qoralaydi: “Yana Muhammad Solih edi, choshnilik g`azallari bor, agarchi hamvorlig`i choshnisicha yo`qtur. Turkiy she`ri ham bor, yomon aytmaydur. So`ngra Shayboniixon qoshiga kelib edi, filjumla rioyat qilib edi. Shayboniyning otiga bir turkiy masnaviy bitibdur, “ramali masaddasi maxban” vazndakim, “Sabha” (Bobur bu o`rinda Jomiy “Haft avrang”ining to`tinchi dostoni “Sabhatul – abror”ga ishora qilmoqda) vazni bo`lgay, bis`yor sust va furudtur, ani o`qig`on kishi Muhammad Solihning she`ridin bee`tiqod bo`lur. Bir yaxshi bayti budur:

Bo`ldi Tanbalga vatan Farg`ona,
Qildi Farg`onani tanbalxona.

Andijon viloyatini tanbalxona ham derlar, ul masnaviyda muncha bayt ma`lum emaskim, bo`lg`ay. Sharir va zolimtab` va berahm kishi edi”. Sulton Ahmad Tanbal Boburning Samarqandga ikkichi marta yurish qilganida Bobur tomonidan Andijonga vaqtincha hokim qilib tayinlangan edi. Ahmad Tanbal bundan foydalanib, hokimiyatni butunlay o`z qo`liga olgan va Boburga qarshi kurashgan. Demak, Bobur o`ziga dushman bo`lgan kishilarning boshqa yo`nalishdagi kishi tomonidan tanqid qilishini ham qo`llab quvvatlagan.

Bobur ayniqsa, mutoyiba va hazil pardasida pornografik g`oyalarni ifoda etishga qarshigina emas, balki bunday hazil va mutoyibalarning yaratilishi to`g`ridan-to`g`ri yaramas ish ekanligini qayd qiladi: “Mundin burun yaxshi va yomrn, jid (tirishish) xazl xarne xotirga etsa edi, mutoyiba tariqi bila gohe manzum bo`lur edi. Har nechuk qabih va zisht nazm ham bo`lsa marqum bo`lur edi. Bu fursattakim, “Mubayyin”ni nazm qiladur edim, xotiri fotirga xutur etdi va xazin

ko'ngilga mundoq ettikim, hayf bo'lg'ay ul tildinkim, bundoq alfozni darj qilg'ay yana fikrni qabih so'zlarga xarj qilg'ay va darig' bo'lg'ay ul ko'ngildinkim, mundog' maoni zuhur etgay, Andin beri hajv va hazl she'r va nazmidin torik va toib edim" (71-bet).

Bobur o'z-o'zini tanqid qilib, bundan avval u ham hazil va mutoyiba deb har qanday she'rlar yozganini qoralaydi. U hazil va mutoyibaning, ya'ni satira va yumorning g'oyaviy va badiiy jihatdan kuchli bo'lishini aytadi. SHoir: "xayf bo'lg'ay u tildinkim, mundoq alfozni darj qilg'ay, yana fikrini qabih so'zlarga xarj qilg'ay va darig' bo'lg'ay ul ko'ngildinkim, mundoq maoni zuhur etgay", deb yozgan edi. Haqiqatdan ham hazil va mutoyiba formasidagi o'sha asarlarda axloqsizlik olg'a surilar, nomatbu' so'zlar juda ko'p ishlatilar edi.

Navoiy ham kulguning chegaradan o'tishi yomon oqibatlarga olib kelishini quyidagi misralarda aytib o'tgan"

Kulguki o'z haddidan o'ldi yiroq,

Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq(71-bet).

Asarda Boburni tanqidchi sifatida ham ko'ramiz. U shoir va yozuvchining axloqi go'zal va kishilarga namuna bo'lishi kerak degan talabda bo'ladi. Shuning uchun u Osafiy va Mir Atoullo Mashhadiyni kamtarlik xususiyatiga ega bo'lmaganlari uchun tanqi qiladi: "...Yana Mir Atoullo Mashhadiy edi. Arabiya ilmini yaxshi bilur edi. Qofiyada bir forsiy risola bitibdur, tavre bitibtur, aybi budurkim, amsila uchun tamom o'zining ibyotini keltirubtur. Yana har baytidin burun "sunonchi dar in bayti banda" lafzini lozim tutubtur" (71-bet).

Bobur asarda san'atshunos sifatida musiqachi, xattot va rassomlar haqida ham ma'umotlar beradi. SHarqning Rafaeli deb ataluvchi mashhur rassom Behzod rasmlaridagi kamchiliklarni ham ko'rsata olgan.

"Boburnoma"da shahar va viloyatlarning faqat geografik xususiyatlarinigina emas, balki madaniy va moddiy yodgorliklari, o'sha joy uchun maxsus bo'lgan fazilatlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, ob-havosi, xalqining hunarmandligi va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Andijon "Farg'ona viloyatining paytaxti...Eli turkdur...Elining lafzi qalam bila rosttur", "O'sh "Farg'ona viloyatida safo va havoda O'sh chog'lik kasaba yo'qtur", Marg'ilon "pur ne'mat,...eli sorttur. Sohibi "Hidoya" Marg'ilonning Rishton otliq kentidindur", Asfara "ko'hpoyada voqe' bo'lubtur...Musmir daraxtisi bis'yordur...eli tomom sirt va ko'hiydur, "Koson "yaxshi havoliq erdur...Safolik bog'chalari tamom soy yoqasida voqe' bo'lg'on uchun "po'stini pesh barra" debturlar", Samarqand "rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur,... Samarqand shahri ajib arasta shahredur, bu shahrda bir xususiyati borkim, o'zga kam shahrda andog' bo'lg'ay",

Kesh –"baharlar sahrosi va shahri va bomi va shomi xub sabz bo'lur uchun Shahrissabz ham derlar", Kobul "Muxtasar viloyatdur...qal'asi tog'qa payvastdur...Kobuldin bir kunda andoq erga borsa bo'lurkim, hargiz qor yog'mas, ikki soati nujumiyda andoq erga borsa bulurkim, hargiz qori o'ksumas...O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy,

mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoiy, parojiy, g'abriy, barakiy, lamg'oniy. Muncha muxtalif aqvom va mug'oyir alfoz ma'lum emaskim, hech viloyatda bo'lg'oy".

Hindistonning o'simlik va hayvonot dunyosi haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, "...nabotot orasida xurmo daraxtining ikki ishi hayvonotga o'xshar: bir ulkim, nechukkim hayvonot boshini kesarlar, hayoti munqate' bo'lur, xurmo daraxtining ham boshi kesilsa daraxti qurur. Yana bir ulkim, nechukkim, hayvonottin be nar natija hosil bo'lmas, xurmo daraxtiga ham nar xurmoning shoxini kelturub tegurmasalar, yaxshi bar bermas. Bu so'zning haqiqati ma'lum emas.

Bunday tavsiflar Boburning nihoyatda qiziquvchanligi va kuzatubchanligidan dalolat beradi.

"Boburnoma"da saj' san'atining va badiiy tasvir vositalari, obrazli iboralar, sodda va ravon jumladan keng foydalangan.

NASR VA XALQCHILLIK. XVII - XIX asrning birinchi yarmidagi o'zbek adabiyotida ham o'tgan davrlardagidek, nazm etakchi o'rinda

XVII va XIX asr avvallaridagi o'zbek nasri chuqur ildizga va boy tajribaga ega bo'lgan adabiyotimizning eng hayotiy an'analar asosida rivojlandi. Bu davrda qissanavislik ancha rivojlandi. Umar Boqiy, Gulxaniylar qissanavis sifatida tanildilar. Munis va Ogahiy she'riyatda va tarix asarlari, fors-tojik tilidan qilingan tarjimalari bilan badiiy nasr taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Bu davrda badiiy prozasining taraqqiyotida tarjima asarlarining o'rni alohida. XVIII va XIX asrlarning badiiy tarjimachiligida ko'zga tashlanadigan narsa shuki, "ba'zi bir tarjimonlar nasriy originalni (asliyat) she'riy yo'l bilan tarjima qilgan bo'lsalar, ayrimlari she'riy originalni nasriy yo'l bilan tarjima qildilar" (Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob, Toshkent, 1967 yil, 134-bet).g'

Ogahiy Nizomiyni "Haft paykar", Xusrav Dehlaviyni "Hasht bihisht" dostonlarini nasrda tarjima qiladi.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmidagi badiiy nasr boyliklari to'g'risida gap borganda tarix asarlarini ham ko'zda tutish kerak. Bu davrdan bir necha muddat ilgari yuzaga kelgan Muhammad YUSUF Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Abulg'oziyning "SHajarai turk", "SHajarai tarokima", shuningdek, Munis va Ogahiy tomonidan hamkorlikda yaratilgan "Firdavsul-iqbol" asarlari yaratildi. Akademik V. Zohidovning "Ogahiyning tarixiy asarlarida badiiylik elementlari oz emas. Ularda avtor ayrim badiiy proza elementlariga yo'l qo'yadi, bu tilda va stilda (uslubda) namoyon bo'ladi" (Zohidov V. O'zbek adabiyoti va tarixidan. Toshkent. 1961, 141-bet) degan fikrlar bejiz emas. Abulg'oziyning "Shajarai tarokima" tarix asari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Chunki "Shajarai tarokima" "O'g'uznoma"ning "o'g'uzlarning donishmand oqsoqoli Dada Qo'rqud haqidagi O'rta Osiyo afsonalarini bugungacha saqlab kelayotgan nodir yodgorlikdir. O'g'uz qadimiyati va Qo'rqud haqidagi qissa va afsonalarning dastlab O'rta Osiyoda yuzaga kelgani shubhasiz. Lekin O'rta Osiyo o'g'uz epik tarixiga oid ishoralar va uzuq-yuluq ma'lumotlardan tashqari deyarli hech qanday manba saqlanmagan. Abulg'oziy asari orqali biz o'sha kalla qissaning ayrim lavhalaridan xabardor bo'lamiz. Bu Abulg'oziy asarining ahamiyatini yanada oshiradi.

XVII-XIX asrlar nasrida qissanavislik katta o`ringa ega bo`lgan.

Qissa Sharq adabiyoti, jumladan, o`zbek adabiyotida badiiy tafakkurning uzoq asrlik hosilasi sifatida ko`zga tashlanadi. O`tmishda islom dini ta`siridapayg`ambarlar, aziz va avliyolar haqidagi qissalar ko`proq yaratildi. SHu bilan birga tabiat hodisalari ustidan hukmronlik qilish, adolat va baxt uchun fidoiylik yo`liga kirgan mifologik va afsonaviy qahramonlar haqidagi qissalar Farhod, Iskandar, Rustam va Siyovush sarguzashtlariga bag`ishlangan qissalar yaratildi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida Umar Boqiyning “Farhod va SHirin” , “Layli va Majnun” va Mahzunning “Farhod va SHirin” qissalarini keltirish mumkin.

Umar Boqiy Xorazmda Muhammad Amin Inoq va Avazbiy Inoq hukmronligi davrida yashab ijod etgan. U Sharq adabiyoti obidalariga katta ixlos bilan qaragan, ularni faol targ`ibotyaisi bo`lgan, navoiyxonlikda ko`pchilikka tanilgan. Navoiyxonlikda Navoiy asarlarini o`qib berish bilan birga , ularni bobma-bob, baytma-bayt sharhlab borilar edi. Navoiy yashagan davrdan boshlab o`zbek tilida yuz bera borgan o`zgarishlar natijasida mumtoz asarlarni asliyatda o`qib tushunish ma`lum bir qiyinchiliklar tug`dirganligidan, ularning ommabop nasriy variantlarini yaratish ehtiyojlari tug`ilgan edi. Umar Boqiyning qissalari shu usuldagi asarladir. Qissalar xalq tomonidan yaxshi kutib olindi. Shoir Xislat 1908-1909 va keyingi yillarda qissalarni bir necha marotabi chop ettirdi. Bu haqda prf.N.M.Mallaev “Alisher Navoiy va xalq og`zaki ijodiyoti” masalasiga oid ishlarida, S.Narzullaev o`z tekshirishlarida nasriy variantning ahamiyati haqida fikrlar bildirganlar.

Adabiyot tarixi ma`lumotlari shuni ko`rsatadiki, biror asarni tarjima qilish yoki uni bayon etib berishni maqsad qilib olgan ijodkor asliyatga farqsiz qarashi mumkin emas. SHu davrda Ogahiy qilgan tarjimalarga diqqat qilaylik. SHoir murojaat qilgan asarlarning mualliflari Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Sa`diy kabi SHarq adabiyotining yirik namoyandalari. Uning diqqatini asarlardagi hayotiy masalalar tortgan edi.

Umar Boqiy Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni syujetini qisqartirib, undagi asl mazmunni xalq kitoblari uslubida ommabop tarzda ifodalashga harakat qilgan. U asliyatdagi voqealarni bayon etishda fikr izchilligi va ravshanligiga erishish maqsadida nasrning katta imkoniyatlaridan foydalanib, ayrim lavha va epizodlarga ijodiy yondashadi. Ularni yangi detallar, zamonaviy iboralar bilan to`ldirib, bog`lovchi so`z va jumlar qo`llaydi. SHirinning “Gul uzorig`a boron yoqqondek yoshlari ravon bo`ldi”. “Farhodning firoqida barcha xalq motamdor erdilar”. Bunday misollar ko`p.

Umar Boqiy nasriy bayonda asliyatdagi Alisher Navoiy qalami bilan bunyod etilgan tasvir vositalari, poetik obrazlarni mahorat bilan sharhlab, hikmat jarajasiga ko`tarilgan baytlarni nasrda ham o`sha ohangda saqlashga harakat qiladi. Masalan, “Podshohlik birla ishq-muhabbatning na ishi bor”.Farhod SHopurni ilk marta uchratganida sarguzashtini so`zlab beradi. Shu o`rinda Umar Boqiy “Farhodning dardu so`zi SHopurg`a ta`sir qilib, yog`dek erib, suv bo`ldi”iborasini qo`llaydi. Tog` qazishida “er va tog`lar larzaga keldi”, “Farhodning haybatidan

Xusravning yuragi darz ketdi”. Saj` san`tidan keng foydalangan. Laylining otasi “ul turfa qabilada sarafroz, har ishta hay ahlig`a navosoz”, Layli “Bu shikasta hol, parishon ahvol bechora va benavodin ul ishq dashtida makon tutqon va maning furqatimda qon yutqon, visol davlatidin mahrum bo`lg`on, hijron alamidin Majnun bo`lg`on mubtalog`a”.

Qissada xalq maqollari va hikmati so`zlar ham ko`plab uchraydi.

“LATOYIFUZ – ZAROYIF” – TARJIMA NASR SIFATIDA. XIX asr o`zbek adabiyotida qardosh xalqlar adabiyotidan nasriy asarlarning o`zbek tiliga ko`plab tarjima etilishi katta ijobiy voqea bo`ldi. Tarjimachilik ayniqsa Xorazmda rivojlandi. Munis, Ogahiy, Tabibiy, Bayoniy, Rojiy va Muhammad Rafe`lar ko`plab tarixiy, ilmiy va badiiy asarlarni arab, fors- tojik tilidan o`zbek tiliga o`girdilar.

1864-1865 yillardan boshlab mashhur o`zbek shoiri va bastakori, mohir xattot va davlat arbobi Muhammadniyoz Komil “Latoyifut- tavoyif” nasriy asarini tarjima qilgan.

XVI-XVII asrlarda katta shuhrat topgan “Latoyifut- tavoyif” asari qariyb to`rt asrdan so`ng Xorazmda ham e`tiborni o`ziga tortgan. Bu haqda “Latoyifuz- zaroyif” asarining “Kirish” qismida Komil shunday yozgan:

“... Sanai hijriy ming ikki yuz sakson olti avoyilida muvofiqi yilon yili erdikim,...Sayyid Muhammad Rahimxon soniy kitobxonlig` va tavorixdonlig`g`a masrub tutor erdilar. Bir kun kitobxonlig` asnosida muborak xotirotlarig`a tushmushdurkim, “Latoyifuz- zaroyif” kitobinkim, hazrati maxdum alnomi Ali Ibnul Husayn al-Voiz valadi Ali Safiy muallifotidindur, atrok tavhimi uchun forsiddin turk tilida tarjima qildurg`iylar...Bu saropo saodat xizmatga mani ma`mar va nomzod qildilar”.

Muhammad Rahimxon Komilning yaxshi tarjima qilishiga ishongan.

“Latoyifut- tavoyif” asarining muallifi XV asrning oxiri va XVI asrning boshida Hirotida yashab ijod qilgan tojik adibi Faxriddin Alidir. U XV asrda yashab ijod etgan shoir va tarixchi olim Husayn Voiz Koshifiyning o`g`li bo`lib, adabiy taxallusi Safiy. U o`zining o`ta ziyrak, harakatchanligi bilan o`z davri shoir va olimlariga tanilgan, xususan, Abdurahmon Jomiy bilan hamsuhbat bo`lib, undan ta`lim olgan.

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” tazkirasida Ali Safiy haqida shunday yozgan:

“Mavlono Safiy – Mavlono Husayn Voizning o`g`lidir. Bag`oyat darveshvasht va foniy sifat va dardman sheva yigittir...Tab`i xo`b...” U zamonasining o`tkir hikoyanavis – nasr ustasi sifatida tan olingan. Asar 1525 yilda yozilgan. Asar adabiyotshunos Halim Saidov tomonidan nashr qilingan. Kibriyo Qahhorova va S.Inomxo`jayevlar bir qancha hikoyalarni tarjima qilib, “Ajoyib hangomalar “nomi nashr etganlar.

“Latoyifut- tavoyif” (“Turli guruhlar haqida latifalar”)ni Muhammadniyoz Komil asarning nomini “Latoyifuz – zaroyif” – “Zarif kishilar haqida latifalar” deb o`zgartiradi. Asar har xil syujetdan tashkil topgan nasriy hikoyalardan iborat. Qissadan hissada bir qancha ruboiy, qit`a, masnaviy, g`azal va boshqa janrdagi she`riy parchalar keltirilgan.

“ Ota bilan o'g'ulning hokimning oldiga olib keladilar. Qilgan gunohlari uchun avval otani 100 tayoq urdilar. U hech narsani demay chidadi. O'g'lini urganda, otasi dodu faryod qila boshladi. Undan o'zing tayoq eganingda dodlamading, o'g'lingni urganda nega nola qilding, deb so'radilar. U shunday deda: Menga urilgan tayoqlar tanamga tegdi. Men sabr qildim. endi jigaringa tekkan erdi, chiday olmadim, - deydi.

Hikoyalar quyidagi mavzularga bo'lingan: 1. Adolat. 2. Axloqiy. 3. Mehnatga muhabbat. 4. Tabiblar. 5. Shoirilar haqida.

1. Ma'munning vakili Abusalama Ma'mung'a maktub yozgan. Farmon qilsangiz, Sizga bir sohibjamol topayin. Xalifa shunday javob yozadi: Podshohlarning qudrati qanchalik ko'p bo'lsa, maishiy orzular kam bo'ladur.

2. Bir hakim sharob ichmas edi. Undan nimaga sen ichmaysan deb so'radilar. U shunday deb javob berdi: Meni aqlimni ichgan narsani men ichmasman.

Yoki, bir podshoh bir hakimni o'z holiga qo'ymay sharob ichiradi. Ichgandan so'ng bema'ni so'zlarni ko'p aytdi. O'ziga kelgandan so'ng, nimalar demading, deb aytdilar. U men bu so'zlarni aytganim yo'q, meni sharob ichishga taklif qilgan podshoh aytdi, deb aytadi.

3. Bir tabib go'riston oldidan o'tsa yuzini beokitib o'tar ekan. Sababini so'rasalar, shunday debdi: Bu go'ristonda yotgan o'liklardan uyolaman. Chunki ular mening dorimdan eb va sharbatimdan ichib o'lganlar.

4. Amir Temur va Hofiz Sheroziy hikoyasi. Amir Temur Sherozga kelib shoirni o'z huzuriga olib kelishlarini so'raydi. U ey, Hofiz, men shamshir zarbi bilan er yuzini xarob qildimki, Samarqand va Buxoroni obod va ma'mur qilish uchun. Sen esa bir xolga ikki shaharni baxsh etibsan, deydi.

Agar on turki Sherozi ba dast orad dili moro,

Ba xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo.

Hikoyalarda xalqning hayoti haqqoniy tasvirlangan.

6 - Mavzu O'zbek marifatparvarlik adabiyotida nasr (2 soat)

1. XIX asrning ikkinchi yarmidan 1917 yilning oktyabrigacha bo'lgan ijtimoiy hayot.
2. “Furqatnoma”- o'zbek prozasining yorqin namunasi.
3. “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) - avtobiografik publitsistik qissa.
4. “Qarolar falsafasi” – badiiy publitsistik asar namunasi.

Tayanch tushunchalar:

1. Ma'rifatparvarlik.
2. Furqatnoma.
3. “Tarixi muhojiron”.
4. “Qarolar falsafasi”.
5. Dilshod.
6. Anbar otin.

XIX asrning ikkinchi yarmidan 1917 yilning oktyabrigacha bo'lgan ijtimoiy hayot. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgan davr edi. Bu davrda ma'rifatparvarlik adabiyoti keng rivojlandi. Komil, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li, Dilshod va Anbar otinlar o'z ijodlari

bilan ancha asarlarni maydonga keltirdilar. Tuzumning qabihlik va illatlarini, hukmron tabaqalarning mehnatkash xalqqa etkazga jabr-zulmlari qoraladilar.

XIX asrning 90-91 yillarda Zokirjon Furqat hayotida ijodiy ko'tarinkilik davri bo'ldi. U "Turkiston viloyati gazetisi"da rasmiy xodim sifatida faol ishlagan. U gimnaziya, bosmaxona, laboratoriya, teatr, vistavka va kontsert zallarida bo'lib, barcha yangiliklarni sinchkovlik bilan o'rgangan. Bu yillar shoir uchun eng sermahsul ijod davri ham bo'ldi. Uning "Gimnazich", "Akt majlisi", "Na'ma bazmi", "Vistavka", "Suvorov" kabi o'nlab she'rlari yaratildi. O'zbek nasrining yorqin namunasi bo'lgan "Furqatnoma" ana shu ijodiy yuksalish davrining mevasi sifatida maydonga keldi.

Furqatning jurnalistik faoliyati, publitsistik maqolalari G'afur Fulom, V.Zohidov, I.Mo'minov, X.Rasul, M.SHayxzoda, F.Karimov kabi olimlar ishlarida, A.Abdug'afurovning "Furqatning nasriy merosi" ("O'zbek adabiyoti tarixi masalalari" to'plamida, Toshkent, 1976).

"Furqatnoma" memuar asar. Unda: a) hayotiy mazmunni, mehnatkash omma turmushi va ijtimoiy ongida yuz berayotgan siljish va o'zgarishlar realistik uslubda ifodalangan; b) umuxalq va o'lka hayoti va taqdiri bilan chambarchas bog'liq yirik ijtimoiy-siyosiy masalalarni ham qamrab olishi va xalqchil yoritishi; v) yakka shaxs hayoti sahifalarini ijtimoiy-tarixiy voqalar asosida tasvirlash; g) o'zida aniq tarixiy sharoit va davr ruhini singdirishi; d) tilining soddaligi, bayonning aniq va izchiligi jihatidan ijobiy farqlanadi.

Asar juda qisqa vaqt ichida yozilgan. Uning ilk sahifalari "Turkiston viloyatining gazetisi"da 1891 yil 22 yanvarda e'lon qilingan bo'lsa, oxiri o'sha yilning 28 iyun' sonida bosilib chiqqan. Spoir bu asarni maqolalar shaklida paydar – pay yozgan lekin tugal asar. Asar ma'lum ijtimoiy zarurat – jamoatchilikda Furqat shaxsiyati, hayoti va ijodiga bo'lgan katta qiziqish, ma'naviy talab taqozosi bilan yaratilgan.

"Furqatnoma" da 1) Muallif shaxsiyati.

2) Ijodiy faoliyat.

3) eskilik tanqidi, yangilik ta'rifi.

4) etnografik ma'lumotlar.

5) Badiiy lavhalar ancha keng va aniq berilgan.

"Furqatnoma", avtobiografik-memuar janridagi asar bo'lganligi uchun ham, avvalo shoirning o'zi haqida hikoya qiluvchi asardir. Spoir asarning yaratilishi haqida quyidagilarni yozadi:

"Gimnaziya boshlig'i (so'z Toshkent gimnaziyasining direktori N.P.Ostroumov haqida)...aksar mendin islomiya madrasasi xususida savol qilur erdi. Bir kun ittifoqo suhbat voqe' o'lub, islomiya maktablarining ta'lim va tadbirlaridin arog'a so'z tushub, meni o'z ovoni tufuliyatimdin boshlab maktabda qaysi tariqa o'qug'onimdin va ul dabiston ichindagi tartib va tadbirlardin bayon qilmoqni xohladi. To ushbu vaqting'a tegru sarguzashtimdin so'rab taqrir buyurdi. Alqissa, men ul kechmish holatlarini yaxshi fikr birla yoding'a olib, bu minvalda tahrir silkag'a chektim...(131 - 132- betlar).

"Furqatnoma" shoirning oilasi, bolalik yillari, o'qishi, intilishi, faoliyati haqidagi ma'lumotlar bilan birga ijtimoiy, siyosiy, madaniy masalalar ham o'z ifodasini topgan. Asarda shoirning bolalik va yoshlik yillaridan tortib to

chet ellarga chiqib ketgunicha bo'lgan hayoti va faoliyati tasvirlangan. Tushi voqeasi, asarda yoshlikdagi ilk she'riy mashqlarini tush ko'rish va Navoiyning "shaxsan o'zidan" ijod uchun "oq fотиha" olish voqeasi bilan bog'lab quyidagilarni yozadi:

"...Maktabg'a kirib ustodim hazratiga bu voqeadin (tushni) yuayon ayladim. Ul kishi muborak ta'birlar aytib, dedilarkim: "Ey farzand! Ul yuqorida o'lturgan aziz Amir Alisher Navoiy va o'zgalari soyir shuarolar bo'lg'ay. Sening zotingga alardin madad etib, ilmi ash'ordin bashorit bermishlar, muboraking o'lg'ay!"- deb jabinimdin bo'sa ayladi, duoyihayrlar ayladi" (135-bet). U o'n yoshida Fuzuliy g'azaliyoti va masnaviyda bitilgan "Maslakul-muttaqin" asari bilan to'la tanishib chiqadi. O'zi o'qiyotgan maktabda halifalik qiladi. Husnixatga alohida ahamiyat beradi. "Savodim takmili uchun bir yilg'a tegru ul dabiston atfolig'a xalifalik maqomida saboq ta'lim berdim. Mazkur ustodim xat ilmida noqis erdi. Mullo Qambar Ali nomli bir xushnavis kishida digar bora ta'lim olib, xatimni filjumla loyiqi kitobat qildim va ko'b kitoblar musavvada qildim".

14 yoshida madrasaga kirgan, lekin o'qish uzoqqa cho'zilmaydi. Qo'qon xonligida 1875-76 yillarda yuz bergan voqealar mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotini qaytadan izdan chiqaradi.

17 yashar Zokirjon mustaqil mehnat faoliyatini boshlaydi. Yangi Marg'ilonga borib, tog'asi bilan ishlaydi. Keyin o'zi do'kon ochib, savdo yuilan shug'ullanadi. U erda ham bir muallim topib, tahsil oladi.

U tabiatan do'stparvar, ulfatsevar va xushsuhbat, samimiy, ochiqyuzu bo'lgan. Toshkentda rus ziyolilari bilan ham ulfat tutingan. Toshkentdagi gimnaziya boshlig'i hamda o'zbek gazetasining muharriri N.P.Ostroumov bilan tanishadi. Asarda bu haqda ancha ma'lumotlar bor.

"Vaqtaki, Toshkand shahriga kelib, Laxtin bosmaxonasiga borib tamosho qildim, nechand tariqa moshinalar va asboblarni ko'rdim" (141-bet).

"Bir kun gimnaziyaning ilm hay'atini mudarrisi Nazarov nomli tasvirkashning suvratxonasiga guzorim tushdi. Anda ajoyib ko'b ashyolar ko'rdim va devorlarda ra'no o'g'ul va zebo qizlar tasvirlari g'oyat rang va nihoyat tarovatda chekilmishdurkim, ul xona rashki suvratxonayi CHindur. Ul tasvirkash Nazarov to'ra shinosliq yuzidin xotirim posini mar'i tutub, bisotida mavjud asboblarni bir-bir manzur ayladi va tasvirg'a lozim dorular va qog'ozlar haqiqatini bayon ma'razig'a etkurdi va tasvir ilmidin bir misol ko'rsatmoq uchun bir kishi suvratini tortib huzurimg'a kelturdi...Musavvir menga ayt tikim, alhol suvrat moshinasi birlan osmondag'i yulduzlar va chopib borayotgon otlar suvratlari olinadur,deb" (143 -144 betlar).

2) Ijodiy faoliyat. "...Har xil g'azaliyotim Farg'ona muzofotig'a va digar mamlakatlarg'a muntashir (mashhur) bo'ldi va sho'rangez ash'orimdin xonaqoh hofizlarni o'qub, safo hayli halqasig'a halovatlar bag'ishladi va tarabxez abiotimdin xushalxon ma'nilar soz birla savt chiqorib nashot ahlini majlisig'a farhatlar etkurdi va bul mutafarriqadin juz'idonimda qolg'on g'azal va muxammaslarim avroqini daftar sherozasig'a bog'lab jam' qildim." (139 –bet).

Parchadan ikki xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, Furqatning asarlari keng doirada tarqalib, xalq tomonidan sevib o'qilgan, kuylargatushirilgan

va hofizlar kuylagan. Ikkinchidan, shoir o'z g'azal va muxammaslarini to'plab, 20-24 yoshlari atrofida an'aaviy devon holiga ham keltirgan – "sohibi devon" bo'lgan. Bu juda muhim ma'lumot. Lekin shoirning devoni topilmagan.

Furqatdan tashqari Farhat taxallusida ham g'azallar yozgani haqida ham fikrlar bildiradi. O'z davrining fozil kishisi SHarifxo'ja unga Farhat taxallusi bilan ijod etishni aytadi. Lekin Farhat taxallusi bilan yozilgan g'azallari topilmagan. Asarlarining yozilishi haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan. Toshkentda Gimnaziyaning borib ko'rib, "yigirma-o'ttuz bayt masnaviy she'r qilub" "Gimnaziya" sherini yaratadi.

3) eskilik tanqidi, yangilik ta'rifi. Rus maorifidan ibrat olishga da'vat ruhi, yangi o'qituv sistemasiga o'tishga tashviqot, gimnaziyaning tuzilishi, undagi tartib qoidalar, muallimlarning bilimdonligi, o'qitiladigan darslar, xonalarning yorug'ligi, kutubxonalar, imtihonlar haqida ma'lumotlar berilgan.

"...Ul madrasada sakkiz darsxona mavjud ekan...O'n ikki nafar mudarris bor ermish. Alar har qaysilari bir ilmga dars aytur ekanlar. Tahsil kunlarida bir soatda bir dars saboq berilur ekan. Yil oxirida – may oyida shogirdlar imtihon berur ekanlar...Oltun va kumush medal olg'on shogirdlar boshqa xatm qilg'on shogirdlardan ko'proq hurmat ko'rub, katta madrasalarda joy tang bo'lsa ham o'run topar ermishlar...Har ilm uchun, xususan, ilmi hikmat va ilmi tarix uchun asbob va suratlar mavjud ekan...O'qiydurgon shogirdlar har kun ma'yorlik saboqlarini do'tkorib bo'lub, ba'daz takror, boshqa har xil kitoyu o'qumoqqa mashg'ul bo'lur ekanlar. Ul madrasa uchun maxsus tabib bor ekan. Har kun kelib shogirdlarni ko'rub, salomatlig'lari uchun ob-havo xususida ko'b diqqat ko'rguzur ekin. Gradus nom asbob birlan garmu sard me'yorini bilib, o'n to'rt darajada issiqni tutar ekinlar. Har kun darsxonalarni vintilyator nom asbobliq ravzanini ochib, eski havolarni chiqorib...yuog'din toza havo kirguzur ekinlar..." (129-130-betlar).

4) etnografik ma'lumotlar. "Furqatnoma"da muallif o'zining qariyb 30-yillik hayotini xalq turmushi, ijtimoiy ong holati, o'lka iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar, voqea-hodisalar bilan bog'liq holda hamda ular fonida bayon qiladi.

"...mezon oyidin boshlab tahsil bo'ladur. Tolibul-ilmlar atrof-aknofdin kelib madrasalarda, masjidlarda istiqomat qilib dars o'qiydurlar va boshqa erlardin ham kelib, madrasadin hujra sotib olib tahsil qiladurlar. Har hafta to'rt kun dars o'quladur, chunonchi: shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari. Ba'zan ul o'qulg'on saboqlarni uch kun mutolaa va takror qiladurlar, chunonchi: chorshanba, panjshanba, jum'a kunlari...Andin boshqa (talabalar) madrasadin vaqf ham olurlar. Ul vaqfning tariqasi bukim, masalan: bir podshoh va yo bir davlatmand kishi bir madrasa bino aylab, sahroda o'z mulkidin nechand tanob ziroatlik erni mazkur madrasasig'a vaqif qilib va nechand shartlar mazmunida vaqfnoma qilib, qozilar muhrini bostirib, bir insofli kishini mutavalli aylab, anga taslim qiladur. Ul mutavalli mazkur zaming'a juvori va gandum va boshqa nimarsalar ziroat qildirib, bozorg'a sotib, mablag'ini mazkur madrasada, muvofiqi vaqfnoma, istiqomat qilib turg'on tolibul-ilmlarg'a taqsim qilib beradur" (136- 137- betlar).

5) Badiiy lavhalar. Asarda hayotiy voqea hodisalar tasviri va bayonida haqqoniylik va samimiylik, fikr ravshanligi va lo'ndalik, mazmunni qiziqarli va obrazli ifodalash, da'vat tashviqot ruhi va til ravonligi jamlikda muallifning yagona uslubini tashkil etadi. Bu uslub butun asarga badiiylik baxsh etgan. Hiqiqatdan ham memuar xarakterga ega bo'lgan asarda ma'lumot va hodisalar kuruq, behis, loqayd qayd etilmaydi. Badiiy tasviriy vositalargan keng va o'rinli foydalangan shoir qator sof yuadiiy lavhalar yaratadi, tarixiy, real shaxslarning yorqin obrazlarini chizib, tabiat manzaralarini jonli va ta'sirchan tasvirlaydi.

“Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) - avtobiografik publitsistik qissa. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar 1905 yil revolyutsiyasining ta'siri natijasida poeziya demokrat shoirlar, shuningdek, o'zbek xalqi orasidan etishib chiqqan ilg'or fikrli ziyolilar uchun o'z qarashlarini ifodalashga to'la javob berolmay qoldi. Po'ziyaning turli janrlari bilan birga badiiy publitsistika, dramaturgiya va proza namunalari ham yaratila boshlandi. Albatta, ular janr qonun-qoidalariga to'la-to'kis javob berolmasa-da, o'zbek demokratik adabiyotida yangi janrlarning, jumladan, badiiy prozaning rivojlanishiga yordam berdi.

Demokratik shoirlar Dilshod va Anbar otinlar ham bu sohaga o'z munosib hissalarini qo'shdilar. Dilshod “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) avtobiografik publitsistik qissasini, Anbar otin “Falsafai siyohon” (“Qarolar falsafasi”) badiiy publitsistik asar namunasi yaratdilar.

Ilmiy tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, Dilshod “Tarixi muhojiron” asari tojikcha va o'zbekcha variantlarga ega. Ikkovi qiyoslanganda, tojikcha nusxa birmuncha mukammal, o'zbekchasi esa mustaqil yozilgan risola. O'zbekchasi tojikchadan bir necha yil keyin yozilgan.

Dilshod “Tarixi muhojiron” da kechmish-kechirmishlarini bayon qilgan. Qo'qon xoni Umarxon 1816-1817 yili O'ratepaga yurish qiladi, bu harbiy bosqinchilik ayanchli oqibatlariga olib keladi. Xon va beklarning o'zaro nizo va tajovuzlari natijada mahalliy xalq boshiga tushgan musibatlar, talon-toroj qilingan shahar, dordan omon qolgan xaloyiqning Farg'onaga haydab olib ketilganiga oid tarixiy ma'lumot va voqealar bilan tanishtiradi. Surgun qilinganlar orasida adibaning oila a'zolarining qismati ham bayon qilinadi. “Kamina o'n etti yosh shu olomon ichinda yurib qaqshar erdim. Volidai yuechoram uch yil ilgari vabodan favot yuo'lg'on va qiblagoh o'ldirilib kallai Mingrag'a kallasi qo'yilg'an”. Dilshodning zolim xonga bo'lgan qahr-g'azabi asarda yorqin ifodalangan. Asar avtobiografik qissa bo'lishi bilan birga, davrning muhim tarixiy hujjati ham hisoblanadi. Chunki asarda O'ratepa, ya'ni Istravshanning gergrafik jihatdan joylashgan o'rnini, u erdagi mahalla, xalq to'planadigan CHorsu maydoni, shaharning bosqinchilar tomonidan toptalganligi bayon qilingan. Muallimlik hayoti haqida ham yozadi. U 51 yil maktabdorlik qiladi. 891 qizni savodli qiladi. Dilshodning yozishicha, ulardan to'rtidan bir qismi nazmga moyil bo'lgan. Anbar otin haqida ham ma'lumot beradi.

Asarda tazkirachilik xususiyatlari ham bor. Unda O'ratepa va Qo'qonda yashab ijod etgan shoir va shoirlar haqida ma'lumot beradi.

Anbar otin (1870 yilda tugʻilgan) "Falsafai siyohon" ("Qarolar falsafasi") risolasidav qora baxt, qora niyat va qora fikrlarga urgʻu berib, ijtimoiy tuzumga munosabatini bildiradi. Jamiyatda hukmron sinflar- qora niyatlardir. Jabrdiyda ayollar esa bixti qarolardir. Tuban va tutqun hayotdan qutulish uchun kurash yoʻlini axtarishga harakat qiladi.

Asar debocha va toʻrt fasl(bob) dan iborat. Debochada asarni yozish maqsadi va asar gʻoyasi haqida fikr yuritilgan.

"Qarolar orazi bayonida" birinchi faslda shoira qora narsalar, qora baxt, qora niyat, qora tusli xalqlar haqida fikr yuritadi. Ikkinchi fasl "Farqi qarolar bayonida" deb atalib, unda onalar hayoti va taqdiri haqida soʻz boradi. Risolaning "Baxti qarolar bayoni"ga bagʻishlangan uchinchi faslida shoira baxti qarolik haqida oʻz fikr-mulohazalarini bildiradi.

Asarning "Qaro zulmat tasviri" deb nomlangan toʻrtinchi faslida asar yaratilgan davrdagi hayot koʻrinishlari: "Qorongʻi tunda qora baxt, qora niyat va qora fikr harakat qiladi", deb badiiy tasvirlanadi.

Portret chizishdagi mahorat: "Habash aʼzoyi badani qaro, faqat tishlari qator sadaf sheroza monand oq namoyondur. Labi doʻrdoq, yuzi dud tusta, sochi toʻs rang qoʻngʻur, yuzi qaroligʻ sayqali ilan yarqiroq, qoʻl va oyoqlari niz qaroqurum, faqat oyoq va qoʻl kafti oqgʻa moyil boʻlur".

Farqi qarolar tasviri: "Farqi qarolarni, qora soch, qaro koʻz, qaro xol va lola yuz, laʼldek lab, sadafdek tish va hokazolar ila tasvir etganda, ularda oʻz husni jamollarigʻa yarashgan aql, farosat, himmat va gʻayrat, xizmat va mehnatlari ham bordurki, ul fazilatlar ila birga yodlamoq lozimdur".

Adibalar oʻz asarlarida xalqning jonli soʻzlashuv tilidan va uning boy imkoniyatlaridan foydalanib oʻz fikrlarini obrazli shaklda xalqqa yaqin va tushunarli tilda ifodalaydilar.

7- Mavzu: Milliy uygʻonish davri ilk bosqichi adabiyotida nasr

(2 soat)

REJA:

1. Jadidchilik davri oʻzbek nasri.
2. 1905-1917 yillar orasida yaratilgan nasr namunalari.
3. Prozaning taraqqiyotida dramaturgiyaning taʼsiri.

Jadidchilik davri oʻzbek nasri. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotini 2 bosqichga ajratilgan: 1) Milliy uygʻonish davri oʻzbyuek adabiyotining ilk bosqichi (XIX asr oxirlari); 2) milliy va ijtimoiy kurashlar davri (XX asr birinchi choragi). Bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon avdabiyotida sheʼriyat (poeziya) asosiy oʻrin egalladi. Aruz asosiy vazn boʻldi. Gʻazal, ruboiy, tuyuq, taʼrix, muammo, maxammas, masaddas, masamman va

masnaviydan keng foydalanildi. Sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnoma janri maydonga keldi. Bu davrlarda hikoya, qissa va romanchilik keng rivojlandi.

H.H.Niyoziyning “YAngi saodat, yoxud Milliy roman” (1915), “Turmush achchiqlari”, “Uchrashuv”, Mirmuhsin SHermuhamedovning “Befarzand Ochildiboy”, “Zindon”, Abdulla Qodiiyning “Juvonboz”, “Uloqda” asarlarini nasr sohasidagi muhim namunalardir. Bulardan tashqari darsliklar, tarix, jug`rofiya, tabiat kabi fanlarga oid ilmiy hikoyalar yaratildi.

Abdulla Avloniy (“Birinch muallim”, 1909, “Ikkinchi muallim”, 1912, “Turkiy Guliston yoxud Axloq”), Sadriddin Ayniy (Taxzibus-sibyon, 1909), Behbudiy (“Muntaxabi jug`rofiyai umumiy”, “Madhali jug`rofiyai imroniy”, “Muhtasar geografiyai Rusiy”), Fitrat (“Ibtidoiy o`quv maktablarining so`nggi sinflari uchun”, 1917)ning bolalar uchun yaratgan darsliklariga o`nlab hikoya va hikoyachalar kiritilgan. Ko`pisi asliyat, ko`pisi qardosh xalqlardan tarjimalardir.

Bu davrda adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri uning tarbiyaviy ahamiyatidir. Adabiyot jamiyatni, xalqni, olamni badiiy aks ettirish bilan birga insoniyatni tarbiyalash, ongini yoritish vazifasini ham bajaradi.

Kichkintoylar uchun adabiyot yaratgan ma`rifatparvarlar kattalar uchun – jamiyat, xalq uchun ham mumtoz she`rlar, fol`klordan badiiy-estetik va g`oyaviy mazmuni bilan farq etadigan yangi Evropa tipidagi adabiyotni vujudga keltirdilar.

Proza va drama janrlarida asarlar yaratishning naqadar zarur va muhim bo`lganligini “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1915 yil sonida bosilgan “Muhtaram yozuvchilarimizga” degan maqolasidan ham ko`rish mumkin.

“...Bizga ko`p teatru, ro`man kitoblari yozmoq kerakdurkim, bu qarz bir hovuch ziyoli yoshlarimiz ila ahli qalam ustlariga tushadilar.

Muhtaram qalam ahllari milliy maishatni yomon deb bezmay, zohira bo`lsa ham, to`ylarda, kechxonalarda, bichabozlar majlisida, bazmlarda va shunga o`xshash millatlarning eng tanqid qiladurg`on o`rinlarida birga aralashib yurmaklari kerakdurkim, toki komil o`shal odatlarini kitob sahifalarida chiroyliroq qilub yozgunday bo`lsunlar. Milliy maishatdan bezgan bilan bezilub, ko`mulub ketaberadi. Onda aralashub yurulsa andog`i so`zlarni, odatlarni o`rganmoqqa bo`ladurkim, kitob betlariga ko`chirib yozmakka materiallarning eng asllari xalq orasidan olinadi. Ovropaning katta-katta muharrirlari o`shal o`zlarining yaxshiyomon odatlarining orasinda yuribdilar. So`ngra qo`llariga qalam olib yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko`rsatib yozubdurlar” (185-bet).

Milliy uyg`onish davri adabiyotida Yevropa tipidagi proza, drama va lirika janrlari xalqning kundalik turmushi, urf-odatlarini, ijtimoiy tengsizlik va zulmdan ezilgan xalqni chuqur o`rganish natijasida paydo bo`ldi. Bu davr prozasi tasvirining diqqat markazidahr qanday insoniy huquqlardan mahrum shaxs- “kichkina odam” obrazi turadi. Bu yo`qsil dehqon, huquqsiz SHarq zaifasi, etim norasidalar bo`lib, o`zida davrning adolatsizligi va vahshiyiligini aks ettiradi.

Hamzaning “miliy romani”dagi Olimjon o`z boshidan otasizlik va yo`qsizlikning barcha qiyinchiliklari va dahshatlarini kechiradi.

“Milliy roman”ning badiiy va g`oyaviy maqsadi ham adib tomonidan aniq beogilangan: “Bu risola esa eski maktabga maxsus bo`lmay, balki qora

xalqimizning eru xotinlari orasida o`qulub turg`on “Jamshid”, “Zarqum”, “Aldarko`sa”, “Dalli Muxtor”, “Gulandom”, “Bayoz” kabi butun xurofot va axloqni buzadurg`on asossiz kitoblar o`rniga istifodalik bir qirat risolasi bo`lurmukin degan xayol ila yozilgan”, - deb ta`kidlaydi Hamza.

Asar epik muqaddimadan boshlanadi. Unda xalqni, butun jamiyatni ko`p asrlar davomida o`rab olgan jaholat haqida gap boradi. Olimjonning ajdodlari ma`rifatdan yiroq kishilar bo`lgan. Hamza asarining qahramoni xalq hayotining dahshatli, dramatik sharoitlarida ko`rsatiladi. Bolaning otasi – Abduqahhor o`qimagan, johil kishi edi. Bu hol uning yaramas yo`lga kirishiga sababchi bo`ladi. U xotinining bisotini, otasidan meros qolgan butun molu mulkini qahvaxonlarda aysh-ishratga sarflab, qimorga yutqazadi. Keyin 4 yashar Olimjon va 3 yashar Hadicha ismli farzandlarini, xotini va onasini tashlab g`oyib bo`ladi. Oila esa boquvsiz, og`ir ahvolda qoladi.

Qissada Olimjonning o`qishi, his-kechinmalari, ma`rifatni egallashdagi harakati birma-bir kuzatilib, tasvir etib boriladi. Asar kompozitsion jihatdan shunday qurilganki, undagi voqea –hodisalar ijobiy qahramon –Olimjon atrofiga birlashtirilib, uning xarakterini mukammal va yorqinroq ochish uchun xizmat qilgan.

Olimjon taqdirida chngi usuldagi maktab muallimi katta o`rin egallaydi. U sofdil boladagi nochor va ayanchli ahvolni ko`rib, ich-ichidan achinadi, rahmi keladi. Olimjonning egnida toza, lekin kiyilaverib uvadasi chiqib ketgan chopon, eskirib ketgan kalish, ko`zida yosh. SHunda muallim tahqirlangan va o`ksik qalbli bola ahvoliga achinib, uning peshonasini silaydi. Muallimning ko`ngil ko`taruvchan iliq so`zlari Olimjonga yoqimli tuyuladi. “Qo`yaber, - deydi u bolaga,- hali otang qaytib keladi. Hozircha men senga otalik qilaman”.

Hamzaning “Milliy roman”idagi Muallim xalq himoyachisi, ezilgan va tahqirlanganlarning panohi sifatida tasvirlangan. U o`z ma`rifatparvar g`oyalari yo`lida kurashish uchun etarli darajada qat`iyatli, sabotli, ahdida mustahkam, o`zgalarga e`tiborli, insonparvar.

Prozaning taraqqiyotida dramaturgiyaning ta`siri ijobiy o`ringa ega. Ma`rifatparvarlik prozasining o`ziga xos takrorlanmas xususiyati va fazilatlari bori edi. Bular epik janrdagi asarlarda hayot ma`lum aniq, falsafiy-ijtimoiy va badiiy nuqtai nazardan obrazlar sistemasi orqali gavdalantirilgan. Nasriy asarlarda hayotning qandayligidan tashqari, uning qanday bo`lishi kerakligi ham tasvirlana boshlangan. Prozaning (nasrning) bu fazilati ma`rifatparvarlik adabiyotining umumiy g`oyaviy badiiy yutuqlaridandir.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlari ham yangi davrning talablariga javob beradigan hayotga muhtoj edilar. Buni his etgan ma`rifatparvarlar o`z darslik va turli janrdagi asarlarida u yoki bu darajada ijtimoiy-falsafiy va axloqiy-siyosiy masalalarni yoritishga intilganlar va axloqiy asarlar yaratishga jur`at etganlar.

1905-1917 yillar adabiyotining nasriy asarlarida voqealar tizmasi, dramatik holatlar, epik elementlar, dialog va monologlar, peyzaj, portret va boshqa badiiy asarni tashkil qiladigan uslub va metod orqali birlashtirilib, muayyan ijtimoiy-tarixiy va milliy muhit doirasida gavdalantiriladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.1-jild.- T.: "Fan",1978. 418 bet.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.2-jild.- T.: "Fan",1979. 449 bet.
3. Aristotel. Poetika. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1980. 52 bet.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik.-T..1987-1992.
5. Vohidov R., eshonqulov H.O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.1 –kitob. Buxoro-2005.
6. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. –T.: "Fan", 1983.167 bet.
7. Ishoqov Y. So'z san'ati so'zligi. –T.: "Zarqalam", 2006.125 bet.
8. Rustamov V. Navoiyning badiiy mahorati. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1979. 213 bet.
9. Muborak maktublar.-T.: "Fan", 1987.
- 10.Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Ikki tomlik,1-tom.-T. «YOzuvchi»,1991.
- 11.Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Ikki tomlik,2-tom.-T.: «YOzuvchi»,1991.
- 12.Safarova H. Hazrati YUsuf- go'zallik timsoli.-T.: "M2003.
- 13.XI – XY asrning turkiy yozuvidagi yodgorliklar.-T.:Fan,1994.
14. O'zbek nasri tarixidan.-T.: "Fan", 1982.196 bet.
15. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik.1-tom.-T.:Fan,1978.
16. Qayumov A. Qadimiyat obidalari.-T.:Fan,1993.
17. Qadimiy hikmatlar.-T.: "Fan",1987.
- 18.Qudratillaev H. Navoiyning adabiy-estetik olami. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1991. 160 bet.
19. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. - T.: "SHarq" nashriyot-matbaa kontserni bosh tahririyati,1999. 237 bet.

ILMIY MAQOLALAR:

1. Ishoqov Y. Klassik adabiyot poetikasidan ma'lumotlar. O'TA. 1970 yil, 1-son.